



UDK:930

Muhayyo ISAKOVA,

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti bosh ilmiy xodimi, tarix fanlari doktori, professor

E-mail: muhayyo.isakova@gmail.com

Tarix fanlari doktori, professor Y.Ergasheva taqrizi asosida

FROM THE HISTORY OF ADMINISTRATIVE-TERRITORIAL RULLING OF JIZZAKH UEZD

Annotation

In the article based on archival documents, statistical collections and published studies analyzes the legal foundations of administrative-territorial rulling and the practice of delimitation into volosts, villages and auls, distribution of population and tax collection, introduced by the Russian Empire after the conquest of the territory of Jizzakh. During the research revealed that that system, introduced by force, was aimed at eradicating the historical traditions of governance that were centuries old in colonial interests, the main goal being to get as much profit as possible from the conquered territories.

Keywords: Turkestan region, colony, Jizzakh uezd, administrative system, uezd, volost, village, aul, military governor, oqsoqol.

ИЗ ИСТОРИИ АДМИНИСТРАТИВНО-ТЕРРИТОРИАЛЬНОГО УПРАВЛЕНИЯ ДЖИЗАКСКИМ УЕЗДОМ

Аннотация

В статье на основе архивных документов, статистических сборников и опубликованных исследований анализируются правовые основы административно-территориального управления и практика разграничения на волости, село и аулы, распределения населения и сбора налогов, введенные Российской империей после завоевания территории Джизака. В ходе исследования выявлено, что введенная насильственным путем данная система, была направлена на искоренение исторических традиций управления, имевшие многовековую давность в колониальных интересах, главная цель – получить как можно больше прибыли с завоеванных территорий.

Ключевые слова: Туркестанский край, колония, Джизакский уезд, административная система, уезд, волость, село, аул, военный губернатор, староста.

JIZZAX UYEZDI MA‘MURIY-HUDUDIY BOSHQARUVI TARIXIDAN

Annotasiya

Maqolada arxiv hujjatlari, statistik to‘plamlar va e‘lon qilingan tadqiqotlar asosida Rossiya imperiyasi Jizzaxni bosib olganidan so‘ng amalga oshirgan ma‘muriy-hududiy boshqarish siyosatining huquqiy asoslari, volost, qishloq, ovular chegaralarini belgilash, aholini taqsimlash va soliq undirish borasidagi tadbirlari tahlil etilgan. Zo‘rluk yo‘li bilan joriy qilingan mazkur tizim asrlar davomida rivojlanib kelgan boshqaruv ildizlarini qo‘porib tashlab, uni o‘rniga mustamlaka manfaatlarga javob beruvchi, eng muhimi, bosib olingan hududlardan imkon qadar katta daromad olishga yo‘naltirilgani ochib berildi.

Kalit so‘zlar: Turkiston o‘lkasi, mustamlaka, Jizzax uyezdi, boshqaruv tizimi, uyezd, volost, qishloq, ovul, harbiy gubernator, oqsoqol.

Kirish. 1865-yilda Rossiya imperiyasi Toshkentni bosib olganidan so‘ng amalga oshirgan harbiy yurishlari natijasida egallagan hududlarni boshqarish uchun ham huquqiy, ham siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning yangi tizimini shakllantirgani kirishdi. Zo‘rluk yo‘li bilan joriy qilingan bu tizim asrlar davomida rivojlanib kelgan boshqaruv ildizlarini qo‘porib tashlab, uni o‘rniga mustamlaka manfaatlarga javob beruvchi, eng muhimi, bosib olingan hududlardan imkon qadar katta daromad olishga yo‘naltirildi.

Toshkent shahri bosib olingandan keyin 1865-yil 2-martda Rossiya imperiyasi Senatining «Turkiston viloyatini tashkil qilish to‘g‘risida»gi farmoni e‘lon qilindi. 1866-yili oxirlariga kelib, bosqin oqibatida Turkiston viloyati tarkibida Yerjar (Oq Jar), Xo‘jand, O‘ratepa, Zomin va Jizzax hududlari kiritildi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. XIX asr oxiri – XX asr boshlari Jizzax uyezdining ijtimoiy, iqtisodiy ahvoli va tarixiga oid bir qancha ma‘lumotlar to‘plangan. Jumladan, Rossiya imperiyasi ma‘muriyati vakillari bo‘lgan A.I.Maksheyev, A.A.Kushakevich va L.Kostenkolar 1865 – 1880-yillarda Mirzacho‘l hududidagi aholining joylashuvi, etnik tarkibi va xo‘jalik tarzi, sug‘orish tarmoqlari haqida raqamlar tahlil etilgan [1]. Mualliflar imperiyaning Mirzacho‘lni o‘zlashtirish, rus aholisini vohaga ko‘chirish

siyosati doirasida asarlarida Jizzaxga oid ayrim ma‘lumotlar ham keltirilgan. N. Gavrilov esa Turkistonning Sirdaryo, Samarqand va Farg‘ona viloyatlarining ijtimoiy ahvoriga baho berib o‘tgan[2].

Sovet davrida ham bir qator tadqiqotlar chop etilgan [3]. Mualliflar belgilangan mafkuraviy cheklovlar doirasida vohaning iqtisodiy ahvoli, ko‘rik yerlarni o‘zlashtirish ishlarini yoritib berganlar.

Mustaqillik davrida N. Abduraximova va F. Ergashev hammuallifligida Turkistonda chor mustamlaka boshqaruv tizimi va ma‘muriy-hududiy bo‘linish amaliyoti yoritib berilganlar[4].

3.K. Ashurboyeva XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Mirzacho‘l yerlarini o‘zlashtirilishini tahlil etgan bo‘lsa, N.D. Mirzayeva [5] mazkur davrda ushbu o‘zlashtirish natijasida hududda vujudga kelgan rus qishloqlari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy holatini o‘rgangan[6], U. Alibekov esa o‘rganilayotgan davrda hududdagi demografik jarayonlarni tahlil qilgan [7].

Tadqiqotchi A. Bozorboyev mustamlaka Turkistonda agar munosabatlardagi o‘zgarishlarni Mirzacho‘l geografik hududi misolida tadqiq etadi [8].

O. Ata-Mirzayev, V. Genshtke, R. Murtazayeva [9] va U.Alibekovlar [10] Rossiya imperiyasining ko‘chirish

siyosatini Jizzax vohasidagi demografik jarayonlarga ko'rsatgan ta'siriga ham qisman to'xtalib o'tganlar.

Britaniyalik olim Aleksandr Morrison Rossiya imperiyasining Samarqand viloyatida amalga oshirgan boshqaruv siyosatini qiyosiy tahlil etib, Jizzax uyezdi hududdagi o'zgarishlarni ham ko'rsatib o'tadi [11].

Tadqiqotchi Paolo Sartori Turkiston o'lkasiga doir huquqiy hujjatlarning tahlili asosida boshqaruv tizimiga baho bergan bo'lsa [12] va Biatrice Penatti o'lkadagi agrar munosabatlar va iqtisodiy masalalarni o'rganib [13], mualliflar o'z izlanishlari davomida Jizzax uyezdiga oid misollar ham keltirganlar. Umuman olganda, Jizzax uyezdi mustamlaka Turkiston tarixi doirasida o'rganilgan bo'lib, hududiy jihatdan alohida tadqiqot obyekti sifatida kam o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tarixiylik tamoyili, tizimlashtirish, tasniflash, muammoviy-xronologik, mikrotarix (microhistory) kabi usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. 1867-yilda Sirdaryo viloyatini rus harbiy gubernatori, uni qoshida xo'jalik, moliya, qurilish va sud ishlari bo'yicha ijro organi sanalgan viloyat bo'linmalari boshqargan. Viloyat harbiy gubernatori uyezd va volost qurultoylarini o'tkazish joylarini belgilash, uyezd va volost boshqaruvchilari saylovlarini nazorat qilish, tanlangan nomzodlarni lavozimda tasdiqlash yoki saylov natijasi bekor qilingan taqdirda, nomzodlarni o'z ixtiyoriga ko'ra tayinlash; ariq oqsoqollarini tayinlash va jamoat pulidan ularga beriluvchi maosh miqdorini belgilash; xalq sudyalarini va sudyalikka nomzodlarni tasdiqlash hamda ular tasdiqlanmaganda, yangi saylovlarni tayinlash; o'z ixtiyoriga ko'ra uyezd ma'muriyati a'zolarini tayinlash va ishdan olish (uezd boshligi bundan mustasno bo'lib, ular to'g'risida faqat general-gubernator nomiga taqdimnoma yozilardi) hamda uyezd boshliqlari tub aholi vakillariga belgilagan jarima to'lash jazosi yuzasidan kelgan shikoyatlarni ko'rib chiqish kabi vakolatlarga ega bo'lgan [14].

1872-yilda aholi soni va maydoni jihatidan kichik bo'lgan Jizzax va O'ratepa hududi Xo'jand uyezdi tarkibiga kiritilib, rayonga (tuman) aylantiriladi. Bu hududlarni markazlashgan holda boshqarishning o'ziga xos siyosiy ma'nosi bo'lgan. K. Kaufmanni Jizzax uyezdini tumanga aylantirish va Xo'jand tarkibida ushbu 3 ta hududni markazlashgan holda boshqarish borasidagi yondashuvi Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi o'rtasidagi aloqalarni to'liq nazorat qilish imkonini bergan.

Ushbu maqsadda Xo'jand uyezdi boshlig'iga 3 ta yordamchilar tayinlanib, ulardan ikkitasi mudir mansabida Jizzax va O'ratepa tumanlarini boshqargan. Shuningdek, yordamchilar asosan tegishli tuman ish yuritish hujjatlariga javob bergan va uyezd boshliqlari bilan yozishmalar olib borgan. Ulardan tashqari, uyezd boshlig'ining tub aholi vakilidan tanlab olingan kichik yordamchisi ham bo'lgan. Kichik yordamchi qirg'izlardan tanlab olinib, ovullarga turli farmoyishlarni e'lon qilish va topshiriqlarni bajarish uchun yuborilgan [16]. Aksariyat hollarda kichik yordamchi lavozimi bo'sh qolib ketgan.

Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori N. Golovachev Xo'jand uyezdi boshlig'i I. Guyusga yuborgan maxfiy xatida: «...tashkiliy ishlarda faol ishtirok etayotgan shaxslarga, shuningdek bir vaqtini o'zida hukumat maqsadlariga to'g'ridan-to'g'ri qarshilik ko'rsatgan yoki fikri va befarqligi bilan shubha tug'dirgan kishilarga alohida e'tibor qaratishingiz, sadoqatli bo'lgan va hukumatga nomaqbul bo'lganlar haqida maxsus «yopiq» kitob yuritib, ularni har biri to'g'risida alohida varaqda ma'lumotlar kiritib borishi kerakligi» to'g'risida ko'rsatma beradi. Shu tarzda, mustamlaka hukumat o'z tarafdorlari safini kengaytirish bo'yicha tadbirlar olib borgan. Birgina 1871-yilda jinoiy javobgarlikka tortilgan va Xo'jand hibsxonasiga tashlangan

753 ta kishilarning 745 tasi yerli aholi vakillari bo'lgan [17]. Mustamlaka hukumat mulozimlari tomonidan taklif etilgan imtiyozlarga qaramasdan, aholi ularga xizmat qilishdan bosh tortgan. Shu sababli, 1881-yilda Yettisuv harbiy gubernatori G. Kolpakovskiy uyezd boshlig'ining kichik yordamchisi lavozimiga nomzodlar 10-yil davomida bo'lmaganligi hisobga olib, uni qisqartirish bo'yicha Turkiston general-gubernatoriga taklif kiritadi.

1882-yilda Senator Girs boshchiligidagi taftish a'zolari Jizzaxni alohida uyezdga aylantirish hamda Xo'jand, O'ratepa va Jizzaxni chegara hudud va etnik jihatdan yaqin bo'lgan Farg'ona viloyati tarkibiga kiritish bo'yicha xulosa tayyorlaydi. Biroq, Turkiston general-gubernatori M. Chernyayev 1886-yili «Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizom» qabul qilingunga qadar ushbu masalani ochiq qoldiradi. Sababi 1876-yilda tashkil etilgan Farg'ona viloyatida imperiya boshqaruviga qarshi Mingtepa qishlog'ida 1878 – 1882-yillar davomida “Yetim xonlar” nomi bilan qo'zg'olonlari tinimsiz davom etgan.

Taftish natijalaridan so'ng Turkistonga yetib kelgan M. Chernyayev zor berib 15-yildan ortiq muddat tasdiqlanishi pajsalga solinib kelgan “Turkistonni boshqarish to'g'risidagi Nizom”ni ishlab chiqish va tasdiqlatishga kirishadi. Bu jarayon, eng avvalo, ma'muriy-boshqaruv tizimini qayta qo'rib chiqish bilan yakun topdi. Jumladan, 1886-yil 12-iyunda tasdiqlangan “Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizom”ga asosan Turkiston general-gubernatorligi tarkibida: Sirdaryo, Yettisuv, Samarqand, Farg'ona Kaspiyorti kabi 5 ta viloyat tashkil etiladi.

1887-yilda Zarafshon muzofoti Samarqand viloyatiga aylantirildi va muzofot boshlig'i mahkamasi asosida viloyat harbiy gubernatori boshqaruvi ta'sis etildi. Samarqand viloyatining hududi 64645.5 km² bo'lib, ma'muriy jihatdan: Samarqand uyezdi – 8269 km², Katta Qo'rg'on uyezdi – 7465 km², Xo'jand uyezdi – 21374.4 km² va maydoni eng katta ya'ni 27541.5 km² bo'lgan Jizzax uyezdini o'z ichiga olgan. Viloyatda 6 ta shahar: ular Samarqand, Kattaqo'rg'on, Xo'jand, Jizzax uyezd boshqaruvdagi shaharlar bo'lsa, Panjkent va O'ratepa esa viloyat boshqaruviga kiritilgan.

Ma'muriy tuzilish jihatidan Jizzax uyezdi Jizzax shahri, Yangiqo'rg'on, Zomin va Bogdon uchastkalariga bo'lingan edi. Har bir uchastka volostlarga ajratilib, har biridan 1000 tadan 2000 tagacha xonadonlar bo'lishi, ular hududiy jihatdan alohida qishloq jamoalariga ajratilgan edi. Volost boshligi va qishloq jamoasi oqsoqollari 3-yil muddatga saylangan. Biroq aksariyat hollarda volost boshqaruvchisi Turkiston general-gubernatori bilan kelishgan holda viloyat harbiy gubernatori tomonidan tayinlangan. Aholidan undirilgan soliq va boshqa majburiyatlarni yig'ish oqsoqollar zimmasiga yuklatilgan bo'lib, ular volost boshqaruvi nazorati ostida tushumlarni imperiya g'aznasiga topshirgan.

O'z navbatida Jizzaxdagi har bir volost bir necha qishloq va ovul jamoalariga bo'lingan. O'troq aholi yashovchi qishloq jamoalari bitta yoki bir necha mayda, bir-biriga yaqin, yer va ariqdan foydalanish bo'yicha umumiy xo'jalikka bo'lgan. Ovul jamoalari esa o'tovlar soniga qarab, har bir ovul jamoasining soni 200 ta o'tovdan oshmasligi belgilab qo'yilgan edi.

XX asr boshlarida Jizzax uyezdi 77 ta qishloq va 35 ta ovul jamoasiga bo'lingan bo'lib, ular 896 ta aholi yashash punktlaridan (shahar, qishloq va ovul) tashkil topgan. Odatda qishloq jamoalari uning tarkibiga kirgan eng katta qishloq nomi bilan atalib, qishloqlarning qadimgi nomlari qolgan. Biroq ovul jamoasida chorvadorlar o'z qishlov yoki yozgi yaylov joylarini hech qanday nom bilan atamagani bois imperiya hukumati ularni tartib raqamlari bilan belgilashga qaror qilgan. Har bir ovul jamoasi bir necha aholi punktlariga bo'lingan bo'lib, o'sha joydagi quduq nomi bilan atalgan.

1898-yil sentyabrda Samarqand viloyat harbiy gubernatori Jizzax uyezd boshlig'i V.N. Ribushkinga ma'muriy-hududiy tuzilish masalasini qayta ko'rib chiqish, volostlarning ro'yxati va to'liqroq ma'lumot yuborishni so'raydi. Xatga javoban Jizzax uyezd hokimi volostlar taqsimoti bo'yicha o'z takliflarini yuboradi. Ma'lumotnomaga ko'ra Qizilqum volosti 2647 ta chorvadorlar o'tovi, Rabot volostida 2732 ta xo'jalik hamda Zomin volostida 2188 ta xo'jalik yashashi, o'tgan yillar davomida aholini sonini oshib borishi natijasida, mazkur volostlarni qayta taqsimlash zaruriyati paydo bo'lganini bayon etadi. Chunki bu holat soliqlar va yig'implarni undirishda va aholi harakatini nazorat qilishda qiyinchilik tug'dirgan edi. Tadqiqotchi A. Bozorboyevning fikriga ko'ra, imperiya ma'muriyati bu masalani hal etishda ortiqcha xarajatlar talab qiluvchi Zomin uchastkasida yangi ovul yoki qishloq tashkil etishdan ko'ra, aholisi ko'p bo'lgan qishloq jamoalaridagi kishilarni boshqa kamroq ovul yoki qishloqlarga ko'chirishni afzal ko'rди. Qayta taqsimlash jarayonida qishloq jamoalarining topografik joylashgan o'rni va ariq suvidan foydalanish xo'jaligi inobatga olinib, bir necha xonadonlar boshqa volostlarning qishloq jamoalariga o'tkazib berilgan. Jumladan, Zomin qishloq jamoasidan Pshag'or volostining Archa qishlog'iga 43 ta, Sho'rcha qishlog'iga 17 ta, Taylon qishlog'iga 26 ta hamda Yom volostiga 25 ta hovli ko'chirilgan. Shu yo'l orqali Zomin qishloq jamoasidagi xonadonlar soni 705 tadan 594 taga kamaytiriladi.

1914-yili Toshkeskan qishloq jamoasini ikkiga bo'lish tashabbusli taklifiga ko'ra Zomin, Qayirma va Qorasirkali Zomin qishloq jamoasi tarkibida, qolgan Chunqayma qishloq, Quruq qishloq, Qizilsoy qishloq, Bog'ishamol qishloq, Jumagul qishloq hamda Bo'yinturuq qishloqlari Jumagul nomli yangi qishloq jamoasi tarkibiga kiritish masalasi ko'tariladi. Murojaatnomada qishloq jamoasini qayta taqsimlash jarayonida talab etilgan xarajatlar fuqarolar tomonidan qoplanishi qayd etiladi. Bunga sabab qilib, soliq yig'ish jarayonidagi nohaqliklar ko'rsatib o'tiladi.

Jizzax uyezd hokimi Zomin qishloq jamoasining ikkiga bo'lish yoki bo'lmaslik to'g'risidagi hal qiluvchi qaror chiqarib, bu tortishuvga chek qo'yadi. Uyezd boshlig'i mazkur qishloq jamoasini ikkiga ajratmaslikni Zomin uchastka pristaviga buyuradi. Chunki bu vaqtda Zomin qishloq jamoasida jami 393 ta hovli mavjud bo'lib, bu ko'rsatkich

ikkita qishloq jamoasi tashkil qilish uchun kamlik qilardi. Bundan tashqari, Zomin qishloq jamoasining 9 nafar ellik boshisidan faqat Yo'ldosh Ashurmatov rozi bo'lib, qolgan 8 ta ellikboshi uni nomzodiga qarshi chiqadi.

Bu turdagi taqsimlanishlar faqatgina o'troq aholi yashovchi volostlarda emas, chorvadorlar yashovchi ovullarda ham bo'lib turgan. 1903-yil noyabrda Turkiston general-gubernatorligi kanselyariyasi boshlig'i Jizzax uyezd hokimiga 1903-yilga doir soliqlarni yig'ib bo'lgandan so'ng Qizilqum volostini ma'muriy-hududiy jihatdan qayta taqsimlashni buyuradi. Buyruqda Qizilqum volostining bo'linishi aholini ma'muriy jihatdan boshqarishda, jamoalar o'rtasidagi aloqalarda, urug'larning alohida xo'jalik turmush tarzida, qishlov makonlari hamda chorva mollari uchun yaylovlarning taqsimlanish tartiblarini kuchaytirish xam ta'kidlangan edi.

Chorvador volostlardagi ovullarga tartib raqami berilishi ovul jamoalarining farqlashda bir qator chalkashliklarni keltirib chiqargan. Shu sababli, Samarqand viloyat harbiy gubernatori ovul jamoalarining aksariyatini tartib raqamlarini o'zgartirish va boshqaruvga aholi vakillarini tayinlashga qaror qiladi. Masalan, Qizilqum volostining 8-ovul jamoasini 3-tartib raqamiga, 9-ovul jamoasini 4-tartib raqamiga o'zgartirish hamda qolgan 1, 2 va 5-ovul jamoalari o'z tartib raqamida qoldirish, Qo'rg'ontepa volostining barcha ovul jamoasining tartib raqamini o'zgartirilgan [18]. Ovul jamoalarining tartib raqamlarini o'zgartirishi ulardagi qozilarni ham qayta saylanishiga sabab bo'lgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Rossiya imperiyasining Buxoro amirligi bilan olib borilgan janglaridan so'ng Jizzax hududi imperiya tarkibiga kiritiladi. Jizzaxda mustamlaka boshqaruv tartibini o'rnatish, eng avvalo, uni oldingi ma'muriy birliklardan uzoqroqda ushlab turish, ya'ni Zarafshon muzofotiga emas, balki Sirdaryo viloyati Xo'jand uyezd tarkibiga kirish orqali amalga oshiriladi. Bunday ko'zlangan maqsad, 1876-yilga qadar Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi qo'shinlarini birlashib, imperiyaga qarshi qurash olib borish xavfiga chek qo'yish uchun chegara o'rnatish edi. Shu nuqtayi nazaridan puxta o'ylangan imperiya siyosati natijasida Jizzax 1887-yilda Samarqand viloyati tarkibiga alohida uyezd maqomida kiritiladi. Bu esa, o'z navbatida, hududdagi harbiy boshqaruvni yanada kuchaytirish va imperiya g'aznasi foydasiga aholidan imkon qadar ko'proq soliq undirish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Макшеев А.И. Географические, этнографические и статистические материалы о Туркестанском крае. // Записки Императорского Русского географического общества по отделению статистики. – СПб., 1871. – 60 с.
2. Кушакевич А. Сведения о Ходжентском уезде. – СПб., 1875. – 20 с.
3. Гаврилов Н. Переселенческое дело в Туркестанском крае (области Сырдарьинская, Самаркандская и Ферганская). – СПб., 1911. – 262 с.
4. Касимов Н. Прогрессивное значение образования русских поселков в Ходжентском уезде. – Душанбе: Дониш, 1968. – 152 с.
5. Аминов Б. Формирование населения Голодной степи (конец XIX - 60 - е годы XX в.): Дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1970. – 280 с.
6. Ходжиев Э.Х. История орошения и освоения Голодной степи (1917-1970 гг). – Ташкент: Фан, 1975. – 188 с.
7. Abduraximova N., Ergashev F. Turkistonda chor mustamlaka tizimi. Toshkent: Akademiya, 2003. – B. 30-35.
8. Mirzayeva N.D. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Mirzacho'l vohasidagi rus qishloqlari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli.: Tarix fan. nomzod. diss. - Guliston, 2011. – 160 b.
9. Ashurboyeva Z.K. X asr oxiri – XX asr o'rtalarida Mirzacho'lining o'zlashtirilishi.: Tarix fan. nomzod. diss. ... avtoref. Toshkent: 2008. - 26 b.
10. Alibekov U. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Sirdaryo viloyati demografiyasi // O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari: Tarix va hozirgi zamon. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Toshkent, 2007. – B. 17-20.
11. Morrison A.S. Russian Rule in Samarkand 1868-1910: A Comparison with British India. - Oxford, 2008. – 364 p.
12. Paolo Sartori. Colonial Legislation Meets Sharia: Muslims' Land Rights In Russian Turkestan // Central Asian Survey. - 2010. -1 (29). – P.43-60.
13. Beatrice Penati. Swamps, Sorghum and Saxauls: marginal lands and the fate of Russian Turkestan (1880-1915) // Central Asian Survey, 2010. – 1 (29). – P.61-78.
14. O'zbekiston Milliy arxivi, I-1 jamg'arma, 27-ro'yxat, 659-ish, 18-varaq.
15. Sh. G'offorov. Tarix va taqdir: Rossiya imperiyasidan Turkistonga ko'chirilganlar. – Toshkent: Fan, 2006. 36 – 37- betlar.

16. Otchyot revizuyushogo, po Visochayshemu poveleniyu, Turkestanskiy kray taynogo sovetnika F. Girsu. SPb. 1884. S. 41.
17. Tojikiston markaziy davlat arxivi, 1348 jamg'arma, 1 - ro'yhat, 1- yig'majild, 1-2-varaqlar.
18. A. Bozorboyev. X asr oxiri – XX asr boshlarida Mirzacho'lda agrar munosabatlardagi o'zgarishlar. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2018. 49-64 -betlar.



UDK: 94(575.146)(075.8)

Navro'zbek KARIMOV,
Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
E-mail: navrozbekkarimov56@gmail.com

O'zbekiston FA Tarix instituti bosh ilmiy xodimi, t.f.d, professor Q.Rajabov taqrizi asosida

AMIR HAYDAR DAVRIDA BUORO AMIRLIGIDAGI HARBIY SOHA VA QO'SHIN AHVOLI

Annotatsiya

Maqolada XIX asr boshlarida Buxoro amirligidagi harbiy soha va qo'shin tuzilishi, harbiy boshqaruv tizimi va mohiyati haqida ma'lumot keltirilgan. Bu davrda amirlikdagi siyosiy ahvol, qo'shni davlatlar bilan yuzaga kelgan mavjud itxloflar arxiv ma'lumotlari va muhim tarixiy manbalar yordamida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: muntazam qo'shin, nomuntazam qo'shin, shogirdpesha, to'pchiboshi, Amir Haydar, Din Nosirbek, xitoy-qipchoqlar.

ПОЛОЖЕНИЕ ВОЕННОЙ СФЕРЫ И АРМИИ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ ВО ВРЕМЕНА АМИРА ХАЙДАРА

Аннотация

Статья посвящена военной сфере и структуре армии Бухарского эмирата в начале XIX века, а также системе и сущности военного управления. С помощью архивных данных и важных исторических источников были изучены политическая ситуация, существующие конфликты с соседними странами в эмирате в этом периоде.

Ключевые слова: регулярная армия, нерегулярная армия, артиллерист, Amir Xaydar, Din Nasirbek, khitay-kipchaki.

THE SITUATION OF THE MILITARY SPHERE AND THE ARMY IN THE EMIRATE OF BUKHARA DURING THE TIME OF AMIR HAYDAR

Annotation

The article is devoted to the military sphere and the structure of the army of the Emirate of Bukhara at the beginning of the 19th century, as well as the system and essence of military administration. With the help of archival data and important historical sources, the political situation, the existing conflicts with neighboring countries in the emirate in this period were studied.

Key words: regular army, irregular army, artilleryman, Amir Khaidar, Din Nasirbek, Chinese-Kipchaks.

Kirish. Tarixdan ma'lumki, har bir davlatning siyosiy ahvoli birinchi navbatda qo'shinning qudratiga ham bog'liq. Chunki bu davrda mamlakat qudrati kuchli qo'shinning mavjudligi bilan ham belgilanar edi. Buxoro amirligida XVIII asrning ikkinchi yarmida qo'shin hamon nomuntazam bo'lib, u ichki va tashqi xavfni bartaraf etishga qodir emas edi. XIX asr boshlariga kelib Buxoro amirlari ham muntazam qo'shinning bo'lmisligi davlat xavfsizligi uchun fojiali oqibatlariga olib kelishi mumkinligini anglay boshladi. Shuning uchun ham hukmdorlar muntazam qo'shin tashkil etish, uni mustahkamlash va yaxshi qurollantirish masalasiga katta e'tibor bera boshlaganlar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XIX asr boshlariga kelib, xonlik hukmdorlari o'z qo'shinlarini yaxshilash, uning tarkibida muntazam qismlarni tarkib toptirish borasida ko'p say-harakatlarni amalga oshirdilar. Bunday hukmdorlar jumlasiga Buxoro hukmdori Amir Haydarni (1800-1826) kiritish mumkin. U mamlakat harbiy kuchlarini ikki qismga: muntazam qo'shin - «navkariya» va nomuntazam qo'shin - «qora cherik»ka bo'ldi. Buxoro amirining «dashkar», «cherik», «qo'shin» deb nomlangan harbiy kuchlarining nomuntazam kismi (qora-cherik) oliy hukmdorning amriga binoan harbiy xarakterli harakatlar davrida tinch aholidan to'plangan. Odatda, amir jarchilari boshlangan harbiy yurishlar haqidagi xabarlarini bozorlarda e'lon qilganlar. Aynan shu yerda, shahar hayotining markazi bo'lmish bozorlarda «qora-cherik» ro'yxati osib qo'yilgan. Harbiy harakatlar davomida, shuningdek, amirlikdagi harbiy qal'alarni himoyalashda «qoracherikdan» unumli foydalanganlar[1]. Qoracherik amirning farmoniga ko'ra, harbiy harakatlar paytida tinch aholidan to'planardi. Ular xizmatga o'zlarining qurollari va baquvvat otlari bilan kelishi shart bo'lgan. Asosiy harbiy

qismga to'pchiboshi rahbarlik qilgan. Qurol aslahalar aravalarda olib borilgan. Mamlakatda tinchlik o'rnatilgach, qoracherikka uylariga qaytib ketishga ruxsat berilgan. Xususan, mamlakat chegarasidagi qal'alarni qo'riqlashga safarbar etilgan qoracherik a'zolari ma'lum bir vaqt davomida bu yerda ushlab turilgan. Taniqli olim V.L. Vyatkinning ko'rsatishicha, amirlikning janubiy qal'asi Sherobodni yuz kishidan iborat askarlar qo'riqlab, ular har oyda almashtirib turilar edi. Bunday turdagi qo'shin a'zolari turli o'zbek urug'larining vakillari bo'lib, urush paytida jasorat va mardlik namunalarini ko'rsatganlar. Mamlakatda tinchlik hukmronlik surgan davrlarda esa qoracheriklar uylariga jo'natib yuborilgan. Ular uylariga qaytgach, o'zlarining asosiy mashg'ulotlari - dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo bilan shug'ullanish imkoniga ega bo'lganlar.

Amir Haydar muntazam qo'shin tuzibgina qolmasdan uning ta'minotiga ham e'tibor qaratgan. Amirlikda muntazam qo'shinning asosini tashkil etgan navkarlarga bir qancha imtiyozlar berilgan edi. Navkar muntazam qo'shinning asosi bo'lib, har bir bo'linmada ularning soni 200 tadan 300 tagacha bo'lib, qorovulbegi lavozimigacha ko'tarilgan[2]. Buxoro amirligida mansabiga muvofiq ravishda navkarlarga oziq-ovqat, pul va kiyim-bosh, otlari uchun yem-hashak berilgan. Ular boshqa xonliklarning muntazam qo'shinlari kabi turli soliq va majburiyatlardan ozod etilgan edi. Uz yeriga ega bo'lgan navkarlar amirning buyrug'i bilan bu yerlar va ularda yetishtiriladigan turli ekinlarga solinadigan soliqlardan ham ozod edilar. Bu haqida tarixchi Muhammad Yoqub Buxoriy ibn Amir Doniyolning «Turkiston al-muluk» asarida yozilishicha «Amir Said Haydar boshqa mang'it hukmdorlaridan farqli ravishda o'z qo'shinidagi askarlarga muntazam ravishda yaxshi maosh to'lagan. Bundan tashqari u

mamlakatdagi bir necha ming soliqchilar (amaldorlar)ga yillik maosh to'lagan va ularga har yili 2 matra sarupo ulashgan"[3]. Amirlik artelleriyasi Eronda ishlab chiqarigan bir necha to'plardan tashkil etilgan edi. "XIX asr 20-yillarida Buxoroda bo'lgan E.K.Meendorf Buxoro amirligi askarlarining "pilta miltiq, uzun nayza va egri qilich" bilan qurollanganliklari, ularning ayrimlari "kalta sovut, temir dubul'ga kiyganlari va ho'kiz terisidan yasalgan qalqon"ga ega bo'lganliklarini takidlab o'tgan"[4].

Amir Haydar boshqa mang'it hukmdorlaridan farqli ravishda o'z qo'shinidagi askarlarga muntazam ravishda yaxshi maosh to'lab, qo'shinning moddiy taminotiga alohida e'tibor qaratadi. "Amir Haydar o'z doimiy armiyasini Qarshida tuzishga harakat qildi, chunki bu yerdagi harbiy garnizon eng kuchli edi. U tashkil etgan qo'shinda zobit va harbiy boshliqlar sarkarda maqomiga ega bo'lib, davlat xazinasidan maosh olar edilar. Oylik maoshlar qisman pul, qolgan qismi esa natural tarzda to'lanar edi. Panjsad boshi o'zining belgisiga – bayrog'iga ega edi. Mingboshining yonida doimo bundan kattaroq bayroq bo'lar edi va bu «tug'» deb yuritilgan. Bunday bayroqqa ming kishilik guruh haqli bo'lib, uning boshlig'i hurmatli sanalar, ark darvozasidan otda o'tishga haqli, boshqa zobitlar esa piyoda kirar edilar[5].

Amir Haydar davrida ayrim viloyatlar hukmdorlari uning tajribasizligidan foydalanib, markaziy hokimiyatga bo'ysunmaslikka uringanlar. Biroq Amir Haydar katta qiyinchiliklar bilan bo'lsa-da, ulardan aksariyatining qarshiligini sindirgan va markaziy hokimiyatga bo'ysundirgan. Bu haqida tarixchi Halim To'raev o'z kitobida shunday yozadi: "Uning hukmronlik yillarida mamlakatda notinchlik hukm suradi, ya'ni markaz va viloyatlar hamda kechagina viloyat maqomida bo'lgan, lekin endilikda alohida siyosiy birlik - xonlikka aylangan Xiva va Qo'qon bilan qarama-qarshiliklar avjiga chiqadi va mamlakatda har 3-6 oyda uzluksiz ichki urushlar va qo'zg'olonlar bo'lib turar edi. Miyonkol, Shahrisabz, Karki, Marvdagi mahalliy kuchlar yana o'zboshimchalik qila boshlaydi. Amir Haydar ayirmachilik kayfiyatlarini namoyon qilayotgan Shahrisabz, Kitob, Urgut beklilari, Miyonqol va Samarqand hokimlariga qarshi janglar olib borishga majbur bo'lgan"[6].

Amir Haydar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidini yaxshilashga qanchalik harakat qilmasin uning davrida ham norozilik harakatlari bo'lib turgan. Bu davrda qo'shni davlat hukmdorlari ham amirlikning siyosiy ahvolidi og'irlashtirishga harakat qiladi. Bu haqida tarixchi olim Q. Rajabov o'zining asarida "Buxoroga qo'shni davlatlarning hukmdorlari Amir Haydar hukmronligini zaiflashtirish maqsadida uning saroy a'yonlari va beklari, qarindosh urug'lari va birodarlariga turli va'dalar berib, ularning o'zaro totuvligiga putur yetkazishga urunganlar" [7]-deb ma'lumot beradi.

Amir Haydar o'z hukmronligi davrida amirlikning siyosiy ahvolidi mustahkamash uchun asosan ichki va tashqi dushmanlarga qarshi kurash olib borishga majbur bo'ladi. Shahrisabz, Marv, Miyonqol, Samarqand beklilklarida bo'lib o'tgan g'alayonlar, Marv vohasi uchun Xiva xoni bilan olib borilgan urushlar amir Haydarni harbiy-siyosiy islohotlar o'tkazishga majbur qiladi. "Marvda joylashgan Buxoro amirligi qo'shini turkman qabilalarining doimiy siquviga bardosh berishiga to'g'ri kelardi. Bu hudud O'rta Osiyoni Eron bilan bog'lovchi muhim strategik savdo yo'li ustida joylashganligi uchun Xiva va Buxoro o'rtasidagi doimiy to'qnashuv nuqtasi bo'lib kelgan. Ye.K.Meyendorfnining yozishicha, Amir Haydar Marvda 400 – 500 kishidan iborat qo'shin saqlab, ular asosan surgun etilgan hamda o'limga mahkum qilinganlardan tashkil topgan bo'lib, mazkur hududda askarlar yilida uch marotabagacha almashtirib turilgan"[8].

Amir Haydar davrida 1800-yilda Marv turkmanlari o'plon yig'ish siyosatidan norozi bo'lib qo'zg'olon ko'tardilar. Amir Haydar qattiqqo'llik bilan bu qo'zg'olonni bostiradi. Biroq Marvliklar 1804 yilda yana bosh ko'tardilar. Bu safar qo'zg'olonga amirning ukasi Din Nosirbek boshchilik qiladi. Bu isyonga Xiva xoni Eltuzarxon ham aralashadi. Bu haqida olim Q. Rajabov o'zining maqolasida shunday yozadi: "Marv hokimi Din Nosirbek Xiva xoni Eltuzarxon qutqusiga uchib, akasiga qarshi bosh ko'tardi(1804) va mag'lubiyatga uchradi"[9]. Amir Haydar uchun ukasining isyoni nihoyatda xavfli holat edi. Chunki bu shunchaki bir viloyatning markazga bo'ysunmasligi emas, balki rasmiy sulola vakilining muxolifatda bo'lgan xivaliklar bilan til biriktirib, oliy hokimiyatga qarshi ko'targan isyoni edi. Shuning uchun ham Amir Haydar Marv qo'zg'olonini bostirish chorasini ko'radi. Amir Haydar Marv vohasini suv bilan ta'minlab turgan Sultonband to'g'onini buzdiradi. Natijada bir necha vaqt suvsiz qoldirilgan Marv aholisi jangni to'xtatishga majbur bo'ldi. Shu tariqa bu qo'zg'olon ham bostirildi. Bu haqida Mirzo Salimbek o'zining "Kashko'li Salimiy taxovixi muttaqadimin va muttaaxirin" asarida yozadi: "Din Nosirbek ibn amir Ma'sum Marvdan turt ming lashkar bilan Chorjuy ustiga kelib amir Haydar o'n ming baxodirga Niyozbek parvonachini boshliq qilib yubordi. Borib jang qilib, ikki ming kishi Din Nosirbek lashkaridan xalok buldi, boshqalar taslim buldilar. Parvonachi Din Nosirning orkasidan taqib kilib, Marvgacha borib, Marvdagi Sulton bandini (tug'onni) buzib, kaytdi. Marvdagi ekinlar suvsizlikdan kurib koldi. Bir ming ikki yuz yigirma birinchi yilda xijriyda Din Nosirbek bilan axli ayoli Maxshadga borib joylashdilar. Marvda turt yil xokim yuk edi. Amir Xaydar turkmanlardan ikki yuz xonadonni Marvga kuchirib, ularning boshliklari Yorlakab biyni Marvga xokim kilib tayinladi"[10].

Marv qo'zg'oloni bostirilgan bilan Xivaliklarning amirlikka qarshi harakatlari to'xtab qolmadi. Xiva qo'shinlarining amirlik sarhadlariga, hatto mamlakat ichkarisiga qilgan talonchilik hujumlari kuchaydi. Shunday yurishlarning birida Xiva xoni Eltuzarxon qo'shinlari Niyozbek parvonachi boshchiligidagi Buxoro qo'shinlaridan mag'lubiyatga uchraydi. Amir Haydar muruvvat ko'rsatib Eltuzarxonning ukasi Qutlug' Murodxonni Urganchga hokim etib tayinlaydi. Bu haqida Sayyid Mansur Olimiy o'zining asarida quyidagilarni keltiradi: "Amir Sayyid Haydar Niyozbek parvonachi boshchiligida 20 ming lashkarni Xorazm tarafga safarbar kildi. Eltuzarxon Amudaryodan o'tgandan so'ng Buxoro va Xorazm lashkarlari o'rtasida jang bo'lib, xorazmliklar talafot ko'rdilar. Eltuzarxon bir necha askarlari bilan asirga olinib Buxoroga keltirildi. Amir Haydar farmoni bilan Eltuzarxon va uning ikki ukasi osib o'ldirildi. Uning uchinchi ukasi Kutlug' Murodxon esa to'rt yuz kishi bilan birga asirlikdan ozod kilinib Urganch xokimi etib tayinladi"[11]. Biroq Xiva xoni Muhammad Rahimxon I tomonidan qilingan harbiy yurishlar natijasida Marv shahri qo'ldan ketadi.

Amir Haydar davrida Qo'qon xonligi bilan ham munosabatlar keskinlashadi. Bunga Qo'qon xonlarining azaldan Buxoro amirligi tasarrufida bo'lgan Xo'jand, Jizzax, O'ratepa, Samarqand, Toshkent va Turkiston hududlariga tahdid solganligi sabab bo'ldi. Bu haqida Azamat Ziyo o'zining "O'zbek davlatchiligi tarixi" kitobida quyidagicha ma'lumot beradi: "Qo'qon hukmdorlari 1805-yili Xo'jandni, 1809-yili Toshkentni, 1816-yili esa Turkistonni ishg'ol etib xonlik doirasiga kiritadilar. 1806-1813-yillarda O'ratepaga, 1806-yili Jizzaxga, 1821-yili Samarqandga tahdid solganlar"[12]. Bundan tashqari mamlakatning turli hududlarida markaziy hokimiyatga qarshi isyonlar yuz berib turdi. Ayniqsa 1821-1825-yillarda Amir Haydarning Miyonqol vodiysida yashaydigan xitoy-qipchoqlarga va ularga qo'shilgan qoraqolpoqlarga qarshi olib borgan urushlari

shiddatli bo'ldi. Qo'zg'olonning asosiy sababi soliq siyosatining og'ir oqibatlarini edi. Tez orada qo'zg'olonchilar Kattaqo'rg'on, Yangiqo'rg'on va Chelak shaharlarini egalladilar. Qo'zg'olon to'rt yil davom etdi va 1825-yilda bostiriladi. Bu kabi qo'zg'olonlar amirlik iqtisodiyotining qiyin ahvolga tuhib qolishiga ham sabab bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, Amir Haydar hukmronlik davri qanchalik tahlilali, ziddiyatli bo'lmasin, u ichki va tashqi dushmanlarga qarshi kurashish bilan birga mamlakatda

birqator islohotlarni amalga oshirishga muvaffaq bo'ldi. Uning davrida amirlikda muntazam qo'shin tuzish ishlari boshlangan. Amirlikning siyosiy osoyishtaligini ta'minlash uchun Shahrisabz, Marv, Miyonqol, Samarqand bekliliklarida bo'lib o'tgan g'alayonlarga qarshi, bundan tashqari Marv vohasi uchun Xiva xoni bilan, Xo'jand, Jizzax, O'ratepa hududlari uchun Qo'qon xonligi bilan tinimsiz kurash olib borishga majbur bo'lgan.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekistonda harbiy ish tarixidan (qadimgi davrdan hozirgacha)/ O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi; mas'ul muharrir: D.X.Ziyaeva/- T.: «Sharq», 2012. - 126 b.
2. A. Zamonov. XVIII-XIX asr o'rtalarida Buxoro amirligida harbiy boshqaruv va qo'shin tuzilishi // "O'zbekiston tarixi" jurnali, 2014. 1-son.-B. 18.
3. Rajabov Q. Amir Haydar yohud amiri sayyid // "Buxoro mavjlari", 2006. №2. – B. 42.
4. Baxodirov I. Turkiston harbiy okrugi tashkil etilishi arafasida O'rta Osiyo davlatlarida harbiy soha// "O'tmishga nazar" jurnali, 2021. 3-son.4-jild.-B.41.
5. Y. Shukurullayev, B.Rajabov. Buxoro amirligida qo'shin va harbiy ish (1756-1920-yillar).- Buxoro: "Durdona", 2019. 61-bet.
6. Halim To'raev. Buxoro tarixi. – Buxoro: "Durdona", 2020. 186-bet.
7. Rajabov Q. Turkiston tarixida o'tgan 55 siymo. Birinchi kitob. –Toshkent.: "Fan" nashriyoti, 2022. 270-bet.
8. Y. Shukurullayev, B.Rajabov. Buxoro amirligida qo'shin va harbiy ish (1756-1920-yillar).- Buxoro: "Durdona", 2019. 27-bet.
9. Rajabov Q. Amir Haydar //O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Tom 11.-Toshkent: O'zME Davlat ilmiy nashriyoti, 2005.276-bet.
10. Mirzo Salimbek. Kashko'li Salimiy tavorixi muttaqadimin va muttaaxirin. Fors-tojik tilidan o'zbekchaga dotsent Narzullo Yo'ldoshev o'g'irgan. - Buxoro: "Buxoro",2003. 294-bet.
11. Sayyid Mansur Olimiy. Buxoro-Turkiston beshigi. Fors tilidan tarjima, tarjimon nomidan so'zboshi va ayrim izohlar muallifi Halim To'raev. – Buxoro: "Buxoro", 2004.43-bet.
12. Azamat Ziyov. O'zbek davlatchiligi tarixi. - Toshkent: "Sharq", 2001.283-bet.



Kuvonch NURULLAEVA,
Urganch innovatsion universiteti o'qituvchisi
E-mail: kuvonch@mail.ru

PhD, dotsent B. Nasirov taqrizi asosida

THE ROLE OF THE SERVICE INDUSTRY IN ENSURING THE ECONOMIC STABILITY OF THE KHORAZM REGION

Annotation

This article discusses the role of entrepreneurship in the development of the service sector, the socio-economic nature of entrepreneurship development, the role of the service sector in the national economy. It analyzes the measures taken to develop the economic potential of the Khorezm region and their results in the service sector.

Key words: Service and service, reform, small business and entrepreneurship, gross domestic product, Khorezm region, tourism, credit.

РОЛЬ СФЕРЫ УСЛУГ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СТАБИЛЬНОСТИ ХОРАЗМСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация

В данной статье рассматривается роль предпринимательства в развитии сферы услуг, социально-экономическая природа развития предпринимательства, роль сферы услуг в национальной экономике. Анализируются меры, принимаемые по развитию экономического потенциала Хорезмской области и их результаты в сфере услуг.

Ключевые слова: Сервис и сервис, реформа, малый бизнес и предпринимательство, валовой внутренний продукт, Хорезмская область, туризм, кредит.

XIZMAT KO'RSATISH SOHASINING XORAZM VILOYATI IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDAGI O'RNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda tadbirkorlik faoliyatining o'rni va tadbirkorlikni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, xizmat ko'rsatish sohasining milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni masalalari haqida so'z yuritilgan. Unda Xorazm viloyatining iqtisodiy salohiyatini rivojlantirish uchun olib borgan chora-tadbirlar, ularning xizmat ko'rsatish sohasida erishilgan natijalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Xizmat ko'rsatish va servis, islohot, kichik biznes va tadbirkorlik, yalpi ichki mahsulot, Xorazm viloyati, turizm, kredit.

Kirish. Mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichida jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va O'zbekiston Respublikasi bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlari belgilandi. Xususan xizmat ko'rsatish sohasini jadal sur'atlar bilan rivojlantirish Yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Xizmat ko'rsatish sohasi keng qamrovliligi bilan iqtisodiyotda, aholi hayotida muhim o'rin tutadi. Bu sohada yangi ish o'rinlarini kam xarajat bilan va tez muddatda tashkil etish mumkin. Aholi daromadlarining real o'sishi ham avvalo xizmatlar rivojida seziladi. Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek har bir hududning o'ziga xosligidan kelib chiqib, xizmatlarni kengaytirish, yangi xizmat turlarini yo'lga qo'yish, ilg'or tajribalar va namunaviy loyihalarni joriy etish bo'yicha yangi metodologiya yaratish zarur.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga e'tibor berildi. O'tgan davrda ushbu sohani rivojlantirish jarayoni bir necha bosqichni tashkil etdi. Chunki, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish aholi farovonligi va ish

bilan bandlik masalalarini hal qilishni ta'minlovchi muhim omildir.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda statistik tadqiqot usuli, tizimlashtirish va tarixiy-qiyoslash usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin tashabbuskorlik va tadbirkorlik uchun keng imkoniyatlar yaratildi, yangi ish uslublari joriy etildi. Mavjud imkoniyatlardan to'laqonli foydalanishga harakat qilindi. Mashinalarning bekor turishi keskin kamaytirildi, har bir mashinadan yuqori samarada foydalanish choralari ko'rildi. Misol uchun "Xorazmtrans" birlashma korxonalariga qarashli mashinalar Turkmaniston Respublikasi bilan tuzilgan shartnomaga binoan 1992-1993-yillarda shu respublikada yuk tashishga ko'maklashdilar. Natijada qardoshlarimizning 3 million tonnadan ko'proq yuklari tashib berildi. 1993-yilning ikki oyi mobaynida yuzdan ortiq katta hajmda yuk tashiydigan avtomashinalar Qozog'istonning Ko'kchatov viloyatida ishlatilib, ular bilan 40 ming tonnadan ziyod bug'doy tashildi. Bularning hammasi avtotransportlar uchun qo'shimcha daromad bo'libgina qolmay, O'zbekiston uchun ham qo'shimcha don va boshqa noz-ne'matlar keltirildi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida Qoraqalpog'iston, Toshhovuz, Xorazm hududidagi suv inshootlarida ishlatiladigan suv nasoslarining har bir ishdan chiqqanini yangisi bilan almashtirish imkoniyati bo'lmagan. Viloyat

kommunal drenaj xo'jaligi qoshida "Meliorator" kichik korxonasi asosiy yumushi ESB markali elektr motorli suv nasoslarini ta'mirlashdan iborat bo'lib, Qoraqalpog'iston Respublikasi suv havzalarida va Xorazm hududida ishlatilib, yaroqsiz holga kelib qolgan suvosti elektr nasoslarini tuzatish korxonasi zimmasidagi ishga aylandi.

"2003-2006 yillarda chakana savdo, umumiy ovqatlanish va aholiga maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari tarmoqlarini rivojlantirish dasturi"ga asosan viloyat iqtisodiyotiga qariyb 41 mln AQSh dollarlik xorijiy investitsiyalar jalb etildi, 7 ta qo'shma korxonasi tuzildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish 2 baravardan ko'proq o'sdi. Viloyatni "Iqtisodiy rivojlantirishning 2005-2007 yillarga mo'ljallangan Dasturi" rejasi o'z ichiga uch yilda viloyatga investitsiya kiritish miqdorini 161,1 mln dollarga yetkazish, viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish 31 ta loyihaga ya'ni yengil sanoat, mashinasozlik, elektrotexnika, oziq-ovqat, kimyo sanoatiga, turizm va aloqa xizmati, sog'liqni saqlash va maorif, kommunal xo'jalik va boshqa sohalarga xorijiy sarmoyalar kiritilishini qamrab oldi.

2006-yil 17-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida 2006-2010 yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ushbu soha va undagi subyektlar samaradorligini oshirish va soha taraqqiyotining konseptual yo'nalishlarini belgiladi. Ushbu dastur asosida Xorazm viloyati hokimining "Xorazm viloyatida 2006-2010 yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2006-yil 7-may 99-sonli qarori ijrosini ta'minlash hamda viloyatda xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish, ularning iqtisodiyotdagi ulushini oshirish, ichki iste'mol bozorini zamonaviy xizmat turlari bilan to'ldirish, xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lganlar sonini ko'paytirish va shu asosida aholi daromadlarini oshirish maqsadida tadbirlar amalga oshirilgan. 2006-yilda sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2000-yildagi 14,2 foiz o'rniga 22,1 foizni, xizmatlar ko'rsatish sohasining ulushi 30 foiz o'rniga 39,5 foizni tashkil etdi, qishloq xo'jaligida esa aksincha bu ko'rsatkich pasayib 32 foizdan 24 foizga tushdi.

Turizmni yanada rivojlantirish va uni tashkil etishni takomillashtirish, sayyohlik xizmatlari bozorida kichik va o'rta sayyohlik tashkilotlarining qatnashishini faollashtirish, shuningdek xorijiy investorlarni turizm sohasiga keng jalb qilish bo'yicha Vazirlar Mahkamasining qarorini bajarish maqsadida Xorazm viloyati hokimi qarori asosida "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi tarkibiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatiga Xorazm viloyati mintaqaviy bo'limi, shu jumladan: "Xorazmturizm" ochiq turdagi aksionerlik jamiyati, "Jayxun" mehmonxonasi, Urganch sayohatlar va ekskursiyalar byurosi, "Xiva" sayyohlik-ekskursiya majmuasi, "Xorazminturservis" va "Xorazm" mehmonxonasi kiritilgan. Bundan tashqari viloyatda sayyohlik infratuzilmasini takomillashtirish, chet ellik sayyohlarga xizmat ko'rsatish saviyasini oshirish, sayyohlik yo'nalishlarida xizmat ko'rsatishning yangi turlarini tashkil etish, erkin muomaladagi valyuta tushumini ko'paytirish, bu yo'nalishdagi ishlarni muvofiqlashtirish va Urganch, Xiva, Hazorasp shaharlarida chet ellik sayyohlarni qabul qilishga mos bo'lgan xususiy mehmonxonalar tashkil qilish maqsadida viloyat hokimi qarori qabul qilinib samarali bajarilgan.

Xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish dasturi izchil amalga oshirilishi natijasida 2008-yilning I choragida xizmat ko'rsatish hajmi 21,7 % oshdi va YAIMda ularning salmog'i o'tgan yilning shu davridagi 43,5 %ga nisbatan 44,4 %ni tashkil etdi. 217 ta yangi chakana savdo va

umumiy ovqatlanish korxonasi o'z faoliyatini boshladi. 100 dan ortiq transport yo'nalishi tashkil etildi.

O'zbekistonda jahon iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha 2009-2012 yillarga mo'ljallab qabul qilingan "Inqirozga qarshi choralar dasturi" mamlakatni 2009-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo'nalishi qilib belgilandi. Shu asosda Xorazm viloyatida 2009-yili qishloq joylarda chakana savdo 12 ta, umumiy ovqatlanish 145 ta, maishiy xizmat ko'rsatish obyektlari va boshqalarni ishga tushirish hisobiga qishloqda aholi bandligini yanada oshirish ko'zda tutildi. Mamlakat yalpi ichki mahsulotida 1991-yildan 2009-yilgacha sanoat ulushi 2 barobar ya'ni 11 foizdan 23,6 foizga, xizmat ko'rsatish sektorining ulushi 16,3 foizdan 47,2 foizga o'sdi.

Xorazm viloyatida mamlakatda amalga oshirilayotgan tarkibiy islohotlar va modernizatsiya dasturi vazifalari negizida muayyan tadbirlar belgilanib hayotga tatbiq etildi. 2007-2013 yillarda xizmatlar va servis sohasini rivojlantirish dasturi asosida 2009-yilda 231 ta xizmat ko'rsatish shahobchasi tashkil qilinishi natijasida jami xizmatlar hajmi 20 foizga o'sishi ta'minlandi.

Kichik biznes va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish maqsadida 2010-yilda xizmat ko'rsatish va servis infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarini amalga oshirishga mikro kredit bank hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining bandlikka ko'maklashish jamg'armasining session 8,7 milliard so'mlikdan ortiq kredit mablag'lari yo'naltirildi. Natijada bu davrda mingdan ziyod chakana savdo korxonalari, 240 ta umumiy ovqatlanish korxonalari, 1,8 mingga yaqin maishiy xizmat ko'rsatish obyektlari ishga tushirildi. Qishloq joylarida xizmatlar ulushi barcha turlari bo'yicha 2009-yilgi 22,4 foizdan 23,9 foizga oshdi.

2012-yilga kelib xizmat ko'rsatish va servis sohasiga kredit ajratish hajmini 14 foizga, jumladan, pullik xizmatlar ko'rsatishni 16,2 foizga oshirish imkonini berdi. Buning natijasida yalpi ichki mahsulotda xizmatlar ulushi 2011-yildagi 48,3 foiz o'rniga 52,2 foizni tashkil qildi. Aloqa va axborotlashtirish (2011-yilga nisbatan o'sish 26,9 foiz), sayyohlik (22,8 foiz), maishiy (22,6 foiz) va moliya xizmatlar (16 foiz) rivojlandi.

"2013-2015 yillarda Xorazm viloyatini kompleks rivojlantirish dasturi" doirasida sanoat, xizmatlar ko'rsatish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish sohalari bo'yicha jami 84,5mln dollarlik 1187 ta loyiha amalga oshirilib, 6936 ta yangi ish o'rinlari yaratildi. Xususan sanoat tarmog'ida 197 ta, xizmatlar sohasida 775 ta va qishloq xo'jaligida 215 ta ish o'ri yaratildi. Xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish dasturiga asosan 775 ta xizmat ko'rsatish shahobchalari tashkil qilinib, 3425 ta yangi ish o'rinlari yaratildi. Natijada yalpi hududiy mahsulotda xizmatlar sohasining ulushi 42,9 foizga yetdi. 2013-yilda mahalliy savdo ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchilarni rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash natijasida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 8,1 foizga, mahalliy lashtirilgan mahsulotlar hajmi 13,4 foizga, chakana tovar aylanmasi 11,2 foizga va xizmatlar 17,5 foizga o'sishi ta'minlandi.

Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda endilikda xizmat ko'rsatish va servis sohasi eng muhim manba va omil hisoblandi. 2013-yilda tasdiqlangan dasturga asosan 953 ta xizmat ko'rsatish shahobchalari tashkil qilinib, xizmat ko'rsatish sohasida 3 ming 456 ta yangi ish o'rinlari yaratildi. 2014-yilda aholiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 16,4 foizga o'sdi, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 41,3 foizni tashkil qildi. Keyingi uch yil davomida turizm infratuzilmasini rivojlantirish hududning sayyohlik yo'nalishlari va xizmatlarini takomillashtirish, sayyohlik imkoniyatini namoyish qilish ishlarini amalga oshirish, sayyohlar uchun

qo'shimcha obyektlar infratuzilmasini yaxshilash, soha mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, xizmat ko'rsatish darajasini yanada yuksak pog'onaga ko'tarish bo'yicha amaliy ishlar olib borildi.

"2016-2020 yillarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish dasturi"ni amalga oshirish doirasida 2,3 mingdan ziyod obyekt barpo etildi. Natijada ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 12,1 foiz, xususan, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 10,2, moliya xizmatlari 22,9, sog'liqni saqlash xizmatlari 14, avtotransport xizmatlari 15,7, savdo xizmatlari 13,1 foiz ko'paydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-apreldagi "2017-2018 yillarda Xorazm viloyatida sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish loyihalarining ko'rsatkichlarini tasdiqlash to'g'risida" 181-sonli qaroriga asosan sanoat, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi yo'nalishlarida 2018-yilda 1 trillon 117 mlrd so'mlik investitsiya mablag'larini o'zlashtirilishi hisobiga 2609 ta istiqbolli loyihalar amalga oshirilgan, hamda 14 ming 587 ta yangi ish o'rinlari yaratilgan.

Davlat rahbari tomonidan xizmatlar sohasini muhim drayverga aylantirish hamda 2023-yilga qadar xizmatlar hajmini ikki baravarga oshirish belgilandi. Pandemiya davrida umumiy ovqatlanish, savdo va turizm, transport sohalari uchun berilgan imtiyozlar muddati uzaytirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-iyunda "Xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2021-yil 11-mayda "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish

chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlar qabul qilindi. Natijada, 2021-yilda jami 18 trillon so'mlik 29 mingta loyiha amalga oshirilib, xizmatlar sohasi 20 foizga o'sdi.

Xulosa. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, xizmat ko'rsatish sohasi davlat milliy iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning eng muhim manbai va omili hisoblanadi. Xizmat ko'rsatish sohasini iqtisodiyotning yetakchi sektoriga aylantirish ko'p jihatdan bu sohada kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bilan bog'liq. Negaki xizmat ko'rsatish sohasi asosan kichik va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatiladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining son jihatdan ko'payishi va faoliyat turlarining kengayishi hisobiga xizmat ko'rsatish sohasida o'zgarish yuz berdi. Misol sifatida respublikada xizmat ko'rsatish sohasining so'nggi yillarda kengayib, yuqori sur'atlarda o'sib borayotganligini ko'rsatish mumkin. Ushbu sohaning rivojlanganlik darajasi jamiyat rivojlanishining mezoniga aylanib ulgurdi. Xizmatlar sohasi ko'p qirrali mexanizm bo'lib, zamonaviy iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmog'i hisoblanadi. Xizmat ko'rsatish va servis sohasi o'z ichiga savdodan tortib transport, maishiy va kommunal xizmatlar, aloqa va axborotlashtirish, texnik xizmatlar, bank-moliya, turizm, mehmonxonalar, auditorlik-konsalting xizmatlari kabi keng faoliyatni o'z ichiga oladi. Mustaqillik yillarida mamlakatda xizmatlarni turli yangi xillari paydo bo'lishi natijasida xizmat ko'rsatish sohasi ishlab chiqarish sohasiga nisbatan tez rivojlandi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 17.04.2006-yil, 325-son. //https://lex.uz/ru/docs/-1124273
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 16.06.2020, 4752-son. //https://lex.uz/docs/-4857409
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 11.05.2021, 5113-son. //https://lex.uz/docs/-5421233
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 2022-yil 28-yanvar, 60-son. //www.lex.uz/docs/-5841063
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 08.08.1998-yil, 346-son. //https://lex.uz/uz/docs/-838278?ONDATE=08.08.1998
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 13.02.2003-yil,78-son.//https://lex.uz/ru/docs/-749712?ONDATE=22.02.2021&ONDATE =13.02.2003&action=compare
7. Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha choralar belgilandi. 22.04.2021. https://yuz.uz/uz/news/xizmat-korsatish-sohasini-rivojlantirish-boyicha-qoshimcha-choralar-belgilandi
8. Xorazm Viloyati Hokimligi Arxivi.1150-fond,10-ro'yxat, 13-ish, 55-varoq.
9. Xorazm Viloyati Hokimligi Arxivi.1150-fond, 8-ro'yxat, 8-ish, 72-varoq.
10. Jurayeva D.D. Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar. Monografiya. – Buxoro. 2022.



UDK:316.1:323.3 (575.1)

Enaxon NISHANBAYEVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti
E-mail: enahon235@gmail.com

Tarix fanlari doktori, professor N.Egamberdiyeva taqrizi asosida

MUSTAQILLIK YILLARI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOYIY SHERIKLIK INSTITUTINI IZCHIL RIVOJLANTIRISHGA OID QONUN HUJJATLARINING TAKOMILLASHUVI

Аннотация

Maqolada muallif manbaga asoslanib mustaqillik yillarida ijtimoiy sheriklik institutini izchil rivojlantirishga oid qonun hujjatlarini tahlil qilgan. Bunday tahlil mamlakatimizda ijtimoiy sheriklik munosabatlarining rivoji uchun mustahkam huquqiy baza yaratilganligi va u doimo takomillashib borayotganligi haqida xulosa qilish imkonini berdi.

Kalit so‘zlar: mustaqillik yillari, Yangi O‘zbekiston, ijtimoiy sheriklik, rivojlanish, Harakatlar strategiyasi, fuqarolik jamiyati institutlari, “Yuksalish” umummilliy harakati.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬНЫХ ДОКУМЕНТОВ ПО УСТОЙЧИВОМУ РАЗВИТИЮ ИНСТИТУТА СОЦИАЛЬНОГО ПАРТНЕРСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Аннотация

В статье на основе источника автор проанализировал правовые документы, связанные с последовательным развитием института социального партнерства в годы независимости. Подобный анализ позволил сделать вывод о том, что для развития отношений социального партнерства в нашей стране создана прочная правовая база, которая постоянно совершенствуется.

Ключевые слова: годы независимости, Новый Узбекистан, социальное партнёрство, развитие, Стратегия движений, институты гражданского общества, национальное движение «Юксалиш».

IMPROVEMENT OF LEGISLATIVE DOCUMENTS ON SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF THE INSTITUTE OF SOCIAL PARTNERSHIP IN UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Annotation

In the article, based on sources, the author analyzed legislative documents on the consistent development of the institution of social partnership during the years of independence. This analysis allowed us to conclude that for the stable development of social partnership relations in our country, a strong legal framework has been created, which is constantly being improved.

Keywords: years of independence, New Uzbekistan, social partnership, development, Strategy of movements, civil society institutions, national movement "Yuksalish".

Kirish. Yangilanayotgan O‘zbekistonda ijtimoiy-siyosiy jarayonlar shiddat bilan kechayotganining guvohi bo‘lib turibmiz. Bu jarayonlar mazmun-mohiyatining tahlili davlat tomonidan fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va bu sohada nodavlat notijorat tashkilotlari rolini va nufuzini yanada oshirishga bo‘lgan e‘tibor borgan sari kuchayib borayotganligini ko‘rsatmoqda.

Boshqacha qilib aytganda, davlat fuqarolik jamiyatining kelajak qiyofasini ishlab chiqish va uni barpo etishda fuqarolik jamiyatining barcha institutlari hamda fuqarolarni jalb etish uchun mas‘uliyati oshib borayotganligi kuzatilmoqda. Bu borada davlat aholi farovonligini oshirishda sa‘y-harakatlarni birlashtirish, davlat hamda keng aholi ehtiyojlarini ifodalaydigan, turli jamoat tashkilotlari manfaatlariga javob beradigan samarali mexanizmlarni, usul va vositalarni ishlab chiqib, ularni amaliyotda qo‘llash borasida normativ-huquqiy hujjatlarga tayangan holda faoliyat olib bormoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Ushbu maqolada mustaqillik yillarida ijtimoiy sheriklik institutini izchil rivojlantirishga oid qabul qilingan qonun hujjatlari, jumladan: O‘zbekiston Respublikasining “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi, “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi, “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi qonunlari shuningdek mavzuga oid qator normativ huquqiy hujjatlar, hamda ijtimoiy sheriklik munosabatlarini tadqiq etgan xorijiy

(Yu.Matyuxina) va mahalliy (A.Muminov, A.Begmatov, A.Saidov) olimlarning mavzuga oid tadqiqotlari tahlil qilindi.

Tadqiqot ishi umum qabul qilingan tarixiy metodlar–qiyosiy-statistik va mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, tarixiylik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan.

Tahlil va natijalar. Ta‘kidlash joizki, O‘zbekistonda umume‘tirof etilgan xalqaro standartlarga javob beradigan, ijtimoiy rivojlanishning dolzarb masalalarini hal etishda nodavlat notijorat tashkilotlari va davlat organlarining samarali o‘zaro hamkorligi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratuvchi qonunchilik bazasi shakllantirilgan. Xususan, 2014 yilda “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinib[1], unda:

mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda davlat organlari va fuqarolik institutlarining o‘zaro hamkorligi mexanizmlari;

hamkorlikning ijtimoiy himoyasi, aholini qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy faolligini oshirish, bandligini ta‘minlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, fermerlik, atrof-muhitni muhofaza qilish, aholi salomatligini muhofaza qilish, barkamol va sog‘lom yosh avlodni shakllantirish kabi muhim yo‘nalishlar ochildi;

aholining huquqiy bilimi va huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, millatlararo, madaniyatlararo va fuqarolar totuvligi g‘oyalarini mustahkamlash, ko‘p asrlik,

an'anaviy ma'naviy-axloqiy va tarixiy-madaniy qadriyatlarini tiklash va asrab-avaylash va boshqalar belgilandi.

Ayni chog'da, hozirgi vaqtda dunyoda ijtimoiy ahamiyatga ega iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun davlat va biznes o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirish tendensiyasi kuchayib borayotganini ham aytish zarur.

Boshqa tomondan esa mamlakatda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning muvaffaqiyati davlat bilan fuqarolik jamiyati o'rtasidagi munosabatlarni yangi sifatli bosqichga olib chiqishga, aholida daxldorlik hissini oshirishga, ularni boshqaruv jarayonlariga faolroq jalb qilishga bog'liq ekanligini tushunish darajasi oshib bormoqda.

Shu nuqtayi nazardan, mamlakatimizda so'nggi yillarda bu sohada mavjud qonun hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirildi.

Fikrimizni asoslash maqsadida O'zbekistonda keng ko'lami islohotlar boshlangan 2016 yildan hozirgi kunga qadar o'tgan davr voqealar ketma-ketligiga nazar solaylik.

Respublikamizning barcha tuman va shaharlarida 2016 yilda tashkil etilgan mutlaqo yangi tizim Xalq qabulxonalarini va Virtual qabulxonalar[6] odamlar og'irini yengil qilish, ularning muammolarini hal etishda muhim ahamiyat kasb etib, davlat organlari bilan fuqarolar o'rtasidagi hamkorlikning samarali mexanizmiga aylanganligini guvohi bo'lib turibmiz.

Endilikda Xalq qabulxonalarini tom ma'noda xalq ovozi, jamoatchilik fikrini ifoda etadigan tuzilmaga aylinishi uchun ularga konstitutsiyaviy maqom berish va faoliyati to'g'risida alohida qonunni ishlab chiqish borasida ishlar amalga oshirilmog'da[7].

2017 yilda yurtimizda "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili" e'lon qilinishi natijasida fuqarolarning erkinliklari, huquqlari, munosib turmush tarzini ta'minlash, xalq bilan ochiq muloqotlarni yo'lga qo'yishda yangi, samarali vosita va usullar joriy etilib, "Inson manfaatlarini - barcha narsadan ustun" tamoyili ostida chora-tadbirlar tashkil etildi[8].

2017-2021 yillar uchun mo'ljallangan "Harakatlar strategiyasi"[9] qabul qilinishi ham davlat inson uchun, xalq uchun ochilganligini, uning muammolarini ijobiy hal etish bo'yicha mutlaqo yangi tizim yaratganligidan dalolat edi.

Aynan shu davrda "mahallaga tushish", "xalq ichiga kirish, uning dardiga quloq solish", "tashvishga sherik bo'lish" va "muammolarni joyida hal etish" tamoyillari davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining asosiy mezoniga aylandi.

Bunday tizimli ishlar natijasida mamlakatimiz aholisining keng qatlamlari tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan turli xil fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlarining jadal shakllanganligi va faoliyatining rivoji hamda ularning davlat boshqaruvi organlari bilan sheriklik munosabatlarining yangi jihatlari kuzatildi.

Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyat ko'rsatadigan huquqiy makonni yanada kengaytirish maqsadida Harakatlar strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalar mohiyatidan kelib chiqib, amaldagi qonun hujjatlarini yanada takomillashtirildi va davr talablariga mos yangi qonunlar ishlab chiqildi. Jumladan, 2018 yil 12 aprelda "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonun[10] qabul qilindi. Qonunga binoan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, shuningdek, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatga olingan nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari jamoatchilik nazorati sub'ektlari sifatida davlat organlari va muassasalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini tashkil etishi belgilangan.

Natijada fuqarolarning ijtimoiy sheriklik va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish institutlari orqali jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish uchun yangi imkoniyatlar yaratildi.

Bundan tashqari, so'nggi yillarda mamlakatimizda qator yangi qonun hujjatlarini[11] qabul qilindiki, ular fuqarolik jamiyati institutlari ijtimoiy faolligini yanada kuchaytirishda muhim omil vazifasini bajarmoqda.

Xususan, 2018 yil 4 mayda "Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni[12] asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi "Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha "Maslahat kengashi" tashkil etildi.

Farmonga ko'ra, Maslahat kengashiga fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy asoslarini takomillashtirish, ijtimoiy sheriklik va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, mazkur institutlarning jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish uchun qulay sharoitlar yaratish masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga takliflar kiritish vakolati ham belgilanishi natijasida yurtimizda fuqarolik jamiyatining ijtimoiy-siyosiy va huquqiy asoslari yanada mustahkamlanishi uchun imkoniyat kengaytdi[12].

Mustahkam huquqiy baza va yaratilgan shart-sharoitlar tufayli respublikamizda amalga oshirilayotgan kuchli ijtimoiy-siyosatni amalga oshirishda davlat institutlari bilan bir qatorda ijtimoiy sheriklik mexanizmlari asosida keyingi yillarda "Advokatlar palatasi"[13], davlat xizmatchilari va mutaxassislarini xorijda tayyorlash hamda ularning salohiyatini yanada oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida Prezident farmoni asosida tashkil etilgan "El-yurt umidi" iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi[14] kabi nodavlat notijorat tashkilotlari muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. 2019 yilda tashkil etilgan "Yuksalish" umummilliy harakatini[15] tubdan yangi turdagi NNT sifatida ko'rish mumkin.

Yuqorida keltirilgan amaliy tadbirlar mamlakatda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning sifat jihatidan yangi bosqichga o'tish imkonini berdi, inson huquqlarini hurmat qilish va inson erkinliklari va fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirok etish darajasini oshirish muammolarini hal qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qildi.

Fuqarolarning jamiyat hayotining turli sohalarida ishtirokini kengaytirishga qaratilgan ijobiy tendensiya qonunchilik bazasini mustahkamlash zarurligini oldindan belgilab berdi. Jumladan 2018 yil avgust oyida qabul qilingan "Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi Farmonda[16] fuqarolar, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari, tadbirkorlik subyektlari vakillarini keng jalb etish bo'yicha samarali ishlarni tashkil etish orqali norma ijodkorligi jarayoniga jamoatchilik muhokamalarining ta'siri darajasini yanada oshirish ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'z ma'ruzalarida fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarida ishtirok etishi ko'lamini kengaytirish zarurligini bir necha bor ta'kidladi. Jumladan, shunday ma'ruzalardan birida Prezident "Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining aholi uchun alohida qiziqish uyg'otgan eng muhim masalalari bo'yicha qarorlar qabul qilishda jamoatchilik bilan maslahatlashuvlar o'tkazish majburiyati aniq belgilab qo'yilishi kerak", deb ta'kidladi[19] hamda davlat va jamiyat o'rtasida yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadida Prezident O'zbekiston Respublikasi Jamoatchilik palatasi tashkil etishni taklif qildi.

Davlat rahbari fikrlarining mantiqiy davomi sifatida 2020 yil 16 aprelda "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik palatasi tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni imzolandi[20].

2024 yil fevralida aholi bilan muloqotning yangi shakli bo'lgan, boshqaruv faoliyatiga NNT va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini jalb qilishning zamonaviy modeli deb e'tirof etilgan Toshkent shahri aholisining ariza va

murojaatlarini qabul qilish xizmati – “Xalq nazorati” portali ishga tushganiga uch yil to'ldi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z ma'ruzalarining birida bu platforma faoliyatiga ijobiy baho berib, uni rivojlantirishga ko'proq e'tibor qaratish bo'yicha topshiriq berdi. Natijada O'zbekistonning yana yetti viloyatida Xalq nazorati platformasini ishga tushirish rejalari e'lon qilindi.

2023 yilda “Xalq nazorati” xizmatiga toshkentliklardan bir yil avvalgiga nisbatan qariyb ikki barobar ko'p murojaat kelib tushgan.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan misollar, ijtimoiy sheriklik munosabatlariga oid qonun hujjatlarining 2017 yildan hozirgi kunga qadar takomillashuvi avvalo, soha munosabatlarining rivojini yangi bosqichga ko'tarilishiga, qolaversa ularni ilmiy jihatdan atroflicha tadqiq qilish ijtimoiy sheriklik munosabatlarining nazariy asoslarini chuqurroq o'rganish, yangi jihatlarini aniqlash uchun muhim omil bo'lib xizmat qildi.

ADABIYOTLAR

1. Ижтимоий шериклик тўғрисида” ги Ўзбекистон Республикаси қонуни. <https://lex.uz/acts/2468214>
2. “Давлат-хусусий шериклик тўғрисида” ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни. <https://lex.uz/acts/4329270>
3. Сенат ялпи мажлисида “Давлат-хусусий шериклик тўғрисида” ги қонун кўриб чиқилади. Инт.: http://xs.uz/uzkr/post/senat-yalpi-mazhlisida-davlat-khususij-sheriklik-togrisidagi-qonun-korib-chiqiladi?utm_source=uznet.press&utm_campaign=topic
4. Ўзбекистонда ижтимоий шерикликнинг моделлари: Ҳозирги ҳолати ва истикболлари [Матн]: монография / А.Муминов [ва бошқ.]. - Тошкент : Shafolat Nur Fayz, 2020. - 322 б.
5. Матюхина, Ю. С. Анализ моделей государственно-частного партнерства в здравоохранении РФ // Вопросы экономических наук. 2015. № 6 (76). С. 58–61
6. Бош вазирнинг виртуал қабулхонаси очилди <https://www.gazeta.uz/uz/2016/09/25/qabulxona/>
7. Халқ қабулхонаси: муаммоларга ечим борми? https://pm.gov.uz/ru/lists/view/1367?sort=received_at
8. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида нутқ сўзлади. <https://president.uz/uz/lists/view/1063>
9. 2017-2021 йиллар учун мўлжалланган “Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февраль ПФ-4997 сонли фармони. <https://www.lex.uz/acts/3107036>
10. “Жамоатчилик назорати тўғрисида” ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. (2018). <https://lex.uz/docs/3679092>
11. “Фуқаролик жамиятини ривожлантириш маркази фаолиятини қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида” ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. Тошкент ш., 2019 йил 30 октябрь, ПҚ-4501-сон. <https://lex.uz/docs/4572953>; “Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисида” ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1999 й., 5-сон, 115-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 25-сон, 287-модда; 2007 й., 52-сон, 533-модда; 2008 й., 52-сон, 513-модда; 2012 й., 15-сон, 164-модда; 2014 й., 50-сон, 588-модда; 2016 й., 17-сон, 173-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 11.09.2019 й., 03/19/566/3734-сон). Инт.: <https://lex.uz/docs/11360>.
12. «Мамлакатни демократик янгилаш жараёнида фуқаролик жамияти институтларининг ролини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Тошкент, 2018 йил 4 май. ПФ-5430-сон. Инт.: <https://lex.uz/docs/3721649>
13. Ўзбекистон Республикаси адвокатлар палатаси <https://paruz.uz/post/normativnye-akty-palaty-advokatov>
14. “Давлат хизматчилари ва мутахассисларни хорижда тайёрлаш ҳамда уларнинг салоҳиятини янада ошириш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони. <https://lex.uz/docs/5286354?ONDATE=09.11.2021%2000>
15. “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Фаол инвестициялар ва ижтимоий ривожланиш йили” да амалга оширишга оид Давлат дастури тўғрисида” ги 2019 йил 17 январдаги УП-5635-сонли Фармони. https://nrm.uz/content?doc=575871_&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana
16. “Норма иждокорлиги фаолиятини такомиллаштириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” ги ЎзР Президентининг Фармони, 08.08.2018 йилдаги ПФ-5505-сон. <https://lex.uz/ru/docs/3858817>
17. “Фуқаролик жамиятини ривожлантириш маркази фаолиятини қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида” ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 30.10.2019 йилдаги ПҚ-4501-сон қарори. <https://lex.uz/docs/4572953>
18. Фуқаролик жамиятини ривожлантириш маркази ташкил этилди. <https://kun.uz/news/2019/11/02/fuqarolik-jamiyatini-rivojlantirish-markazi-tashkil-etildi>
19. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>
20. “Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Жамоатчилик палатасини ташкил этиш тўғрисида” ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони. <https://lex.uz/docs/4789926>
21. Сервису Халқ назорати, который связывает жителей Ташкента и городские органы власти, исполнилось три года. <https://www.gazeta.uz/ru/2024/02/20/xalq-nazorati/>



UDK: 929.94(4-12).

Xolmurod RAXIMOV,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

BuxDU dotsenti N.Qo'ziyev taqrizi asosida

THE ABBASID STATE – MAMOON'S COME TO THE TOP OF POWER

Annotation

In this article, the reasons for the rise to power of the Abbasid state, the list of rulers who ruled the state before the Mongol invasion, Ma'mun's rise to the top of the state, and the way of governing the state are covered based on the sources.

Key words: Umayyads, Abbasids, Abu Muslim, Baghdad, Harun al-Rashid, Amin, Ma'mun, Marv, Caliphate, Mu'tazila, Shi'a, Sunna.

ГОСУДАРСТВО АББАСИДОВ – ПРИХОД МАМУНА НА ВЕРШИНУ ВЛАСТИ

Аннотация

В данной статье освещаются причины прихода к власти государства Аббасидов, список правителей, управлявших государством до монгольского нашествия, восхождение Мамуна на вершину государства, а также способ управления государством на основе по источникам.

Ключевые слова: Омейяды, Аббасиды, Абу Муслим, Багдад, Харун ар-Рашид, Амин, Мамун, Марв, Халифат, Мутазилиды, Шииты, Сунна.

ABBOSIYLAR DAVLATI – MA'MUNNI HOKIMIYAT TEPASIGA KELISHI

Аннотация

Ushbu maqolada Abbosiylar davlati hukmronlikka kelish sabablari, davlatni mo'g'ullar bosqiniga qadar boshqargan hukmdorlar ro'yxati, Ma'munni davlat tepasiga kelishi va davlatni boshqarish usuli manbalar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Umaviylar, Abbosiylar, Abu Muslim, Bag'dod, Horun ar-Rashid, Amin, Ma'mun, Marv, xalifalik, mo'tazila, shia, sunna.

Kirish. Milodiy VII asr birinchi yarmiga kelib, Muhammad payg'ambar tomonidan Arabiston yarim orolida islom davlatiga asos solindi. Bu davlat qisqa vaqt ichida Fors va Rim imperiyalarini mag'lub etib, juda katta hududni o'z hukmronligi ostida birlashtirdi. Muhammad payg'ambar vafotidan keyin uning izdoshlari Abu Bakr Siddiq, Umar ibn Xattob, Usmon ibn Affon, Ali ibn Abu Tolib o'ttiz yil davomida davlatni boshqardilar. Bu davrda tuzum Muhammad payg'ambar ko'rsatmasi asosida boshqarilgani uchun bu to'rt kishi "Xulafoi roshidin" (to'g'ri yo'ldagi xalifalar) deb nomlandi. Undan keyingi hukmdorlar bu boshqaruvni davom ettira olmadilar. Ali ibn Abu Tolib vafotidan keyin Muoviya ibn Abu Sufyon 661 yilda (661-750 yillarda hukm surgan) umaviylar davlatiga asos soldi va Damashq shahrini xalifalik poytaxtiga aylantirdi. Uning hukmronlik qilgan 20 yillik davri Umar ibn Xattob vafotidan keyingi eng barqaror davr bo'lgan edi[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. To'qson yil umr ko'rgan Umaviylar davlatini o'n to'rt hukmdor idora qilgan: Muoviya ibn Abu Sufyon (661-680), Yazid ibn Muoviya (680-683), Muoviya II ibn Yazid (683-684), Marvon I ibn Hakam (684-685), Abdulmalik ibn Marvon (685-705), Valid ibn Abdulmalik (705-715), Sulaymon ibn Abdulmalik (715-717), Umar ibn Abdulaziz (717-720), Yazid ibn Abdulmalik (720-724), Hishom ibn Abdulmalik (724-743), Valid II ibn Yazid (743-744), Yazid III (744), Ibrohim ibn Valid (744), Marvon II ibn Muhammad (744-750).

747-750 yillardagi Abu Muslim qo'zg'olon natijasida xalifa Marvon ibn Muhammad taxtdan tushirilgach, hokimiyat Abbosiylar qo'lga o'tdi[2].

Muoviya ibn Abu Sufyon davrigacha xalifalar saylov yo'li bilan tayinlanar edi. Muoviyadan keyin esa, hukmronlik otadan o'g'ilga o'tadigan toju taxt ko'rinishida davom etdi va

saylov orqali xalifa saylash an'anasi yo'q qilindi. Shu sababli bu sulola islom olamida "roshid xalifalar", ya'ni "to'g'ri yo'ldagi xalifalar" deb tan olinmadi, martaba va daraja jihatidan oldingi xalifalarga tenglashtirilmadi.

Xurosonda bosh ko'targan Abu Muslim qisqa vaqtda O'rta Osiyo va Eronni egallab, 749 yil noyabrda Abul Abbosni xalifa deb e'lon qildi[3]. 750 yil yanvarida umaviylarning asosiy qo'shini Katta Za'b daryosi qirg'og'ida mag'lub etildi va oxirgi xalifa Marvon ibn Muhammad (Marvon II) Misrga qochdi va o'sha erda qatl etildi[4].

Islom tarixida Umaviylardan keyin hukmronlikka qadam qo'ygan sulola nomi "Abbosiylar" deb ataladi. Ular Muhammad payg'ambarning amakisi Abbas ibn Abdulmuttalib zuriyodlaridir. Unga Abul Abbas as-Saffoh asos solgan, oxirgi xalifa Musta'sim bo'lgan. Abbosiylar hijriy 132-656 (milodiy 750-1259) yillarda, ya'ni besh asrdan ziyod xalifalik qilishgan. Shiorlari qora bayroq bo'lgan. Ular davrida xalifalik poytaxti Damashqdan Bag'dodga ko'chirilgan, iqtisod-savdo va madaniy sohalar gullab-yashnagan. Oxirgi xalifani mo'g'ullar xoni Haloku (Xulogu) qatl ettirgan. Abbosiylardan mashhurlari Mahdiy (775-785), Horun ar-Rashid (786-809). Ma'mun ((813-833), Mu'tasim (833-842) lardir. Abbosiy xalifalar (taxtga o'tirgan yili bilan) quyidagilar: Saffoh – hijriy 132/ milodiy 750. Mansur – hijriy 136/ milodiy 754. Mahdiy – hijriy 158/ milodiy 775. Hodiy – hijriy 169/ milodiy 785. Horun ar-Rashid – hijriy 170/ milodiy 786. Amin – hijriy 193/milodiy 809. Ma'mun – hijriy 198/ milodiy 813. Mu'tasim – hijriy 218/ milodiy 833. Vosiq – hijriy 227/ milodiy 842. Mutavakkil – hijriy 232/ milodiy 847. Muntasir – hijriy 247/ milodiy 861. Musta'in – hijriy 248/ milodiy 862. Mu'tazz – hijriy 252/ milodiy 866. Mu'tadiy – hijriy 255/ milodiy 869. Mu'tamid – hijriy 256/ milodiy 870. Mu'tazid – hijriy 279/ milodiy 892. Muktafiy – hijriy 289/

milodiy 902 . Muqtadir – hijriy 295/ milodiy 908. Qohir – hijriy 320/ milodiy 932. Roziy – hijriy 322/ milodiy 934. Muttaqiy – hijriy 329/ milodiy 940. Mustakfiy – hijriy 333/ milodiy 944. Muteh – hijriy 334/ milodiy 946. Toih – hijriy 363/ milodiy 974. Qodir – hijriy 381/ milodiy 991. Qoim – hijriy 422/ milodiy 1031. Muqtadiy – hijriy 467/ milodiy 1075. Mustazhir – hijriy 487/ milodiy 1094. Mustarshid – hijriy 512/ milodiy 1118. Rashid – hijriy 529/ milodiy 1135. Muqtafiy – hijriy 530/ milodiy 1136. Mustanjid – hijriy 555/ milodiy 1160. Mustazih – hijriy 566/ milodiy 1170. Nosir – hijriy 575/ milodiy 1180. Zohir – hijriy 622/ milodiy 1225. Mustansir – hijriy 623/ milodiy 1226. Mustahsim – hijriy 640-656/ milodiy 1242-1258[5].

Ushbu besh asrdan ziyod muddat davomida o'ttiz etti xalifa hukm surgan. Birgina IX asrda Horun ar-Rashid, Amin, Ma'mun, Mu'tasim, Vosiq, Mutavakkil, Muntasir, Mustahin, Mu'tazz, Mu'tadiy, Mu'tamid, Mu'tazid hukmronlik qilishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Bu maqolani tayyorlashda tarixiy metodlar – tarixiylik, ilmiylik, qiyosiy tahlil, xolislik, ketma-ketlik uslublaridan va ishonchli manbalardan foydalanildi. IX asrda hukm surgan Abbosiylar va o'sha davrda sodir bo'lgan siyosiy jarayonlar va ijtimoiy holatlarni ochib berishga harakat qilindi. Aynan shu davr renessans poydevorini yaratgani uchun bu davrni o'rganish muhim hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Horun ar-Rashid hukmronligi IX asrning dastlabki yillarida nihoyasiga etgan. Horun ar-Rashiddan keyin uning o'g'li Amin taxtga o'tirgan. Amin hukmronligi davrida ukasi Qosimni Shom hokimligidan bo'shatdi. Bu vazifaga Qosimni Horun ar-Rashidning o'zi tayinlagan edi. Bu voqeadan keyin Amin va Ma'munning orasi buzildi. Amin Ma'munni valiahdlidan bo'shatib, uning o'rniga go'dak o'g'li Musoni valiahd etib tayinlaydi. Bir necha yil davom etgan siyosiy tanglik Ma'munni xalifalik taxtiga o'tirishi bilan yakunlandi[6].

Tarixchi Ibni Asirning keltirishicha, Horun ar-Rashid hijriy 182/ milodiy 798 yil Abdullohni Amindan keyin valiahd etib tayinladi va unga Ma'mun laqabini berdi. Unga Xurosonni va Hamadongacha bo'lgan hudud boshqaruvini topshirdi[7].

Hijriy 186, milodiy 802 yil haj safariga yo'lga chiqqan Horun ar-Rashid valiahdlariga tuhfa qildi. Shom va Iroqqa hokim etib tayinlagan o'g'li Aminga Mag'rib o'lkasini ham qo'shib berdi. Xuroson o'lkasiga hokim bo'lgan Ma'munga Hamadon va sharqiy hududlarni hammasini tuhfa qildi. So'ng Amin va Ma'mundan keyin valiahd bo'lishiga o'g'li Qosimga bay'at berdi (qasamyod qildi). Unga Mu'taman laqabini qo'ydi. Mu'tamanga Jazira, Sug'ur va Avasim erlarini qo'shib berdi.

Hijriy 193/ milodiy 809 yil Rofi' ibn Laysga qarshi jang qilish uchun Xurosonga yo'l olgan Horun ar-Rashid Tus shahrida vafot etdi. Vafotidan oldin Ma'munni Marv shahriga jo'natgan edi.

Horun ar-Rashid vafotini eshitgan Amin Bag'dodda juma namozidan keyin xalqqa otasi vafot etganini e'lon qildi va barchani o'ziga bay'at qilishga chaqirdi[7].

Otasining amakisi Sulaymon ibn Mansur va Sindiyni boshqa joylardagi askarlar va xalqdan bay'at olishga vakil qilib yubordi[7].

Ibni Asirning keltirishicha, Amin va Ma'munning o'rtasidagi kelishmovchilikning sababi Horun ar-Rashid Xurosonga yurishi vaqtida o'zi va qo'shinni barchasini Ma'munga bay'at qildirdi va barcha mollarni unga berdi. Bu hodisa Aminga qattiq ta'sir qildi. Ikkinchi sabab esa, Fazl ibn Rabi' Ma'mundan yuz o'girib, Tusdan Iroqqa kelgach, xalifalik Ma'munga o'tganidan keyin, Ma'mun o'zini vazifasida qoldirmasligini o'yladi va Aminni Ma'munga gij-gijlashga o'tdi. Uning maqsadi Ma'munni valiahdlidan

bo'shatib, Aminning o'g'li Musoni valiahd qilish edi. Bu vaqtda qadar Amin bu haqda o'ylamagan edi. Fazl Aminga aytar edi: "valiahdlilik ishida Ma'mun va Qosimni kutmang. Bay'at ulardan oldin sizga berilgan. Ular bay'atga sizdan keyin kiritilgan", dedi. Bu fikr xalifa huzurida o'z o'rniga ega bo'lgan Ali ibn Iso ibn Mohon va Sindiya ham ma'qul keldi. Natijada Amin ularning fikriga qo'shildi va Ma'mun bilan Mu'taman (Qosim)ni valiahdlikdan bo'shatdi. Buni eshitgan Ma'mun Aminni ismini Taroz shahri xutbalaridan olib tashladi va Amin bilan xat-xabarni to'xtatdi[7.891].

Amin Ma'munga to'rt kishini elchi qilib yubordi va o'g'li Musoni undan baland ekanini tan olishini va Ma'munning o'zi esa Bag'dodga kelishini talab qildi. Ma'mun maslahat qilib, so'ng Aminga xat yozdi. Xatda xalifani tan olishini, o'zi uni bir xizmatchisi ekanini e'tirof etdi va o'z o'rnida qoldirsa xursand bo'lishini yozib yubordi. Amin xatni o'qib, Ma'mun unga to'liq itoat etmasligini bildi[7].

Hijriy 195/ milodiy 811 yil xalifa Amin Ma'munni nomi zarb qilingan tanga pullarni muomaladan chiqardi va uning nomini xutbalardan oldirib tashladi. Bunga sabab bu tangalarda Aminning ismi zarb qilinmagani edi. Amin o'g'li Musoni minbarlarda tilga olinishiga buyurdi va unga "Annotiqu bil-haq" (Haqiqatni gapiruvchi) laqabini qo'ydi. Ikkinchi o'g'li Abdullohga "Al-qoimu bil-haq" (Haqiqatni tiklovchi) laqabini tayin qildi[7.894].

Ma'mun tarafidan Tohir ibn Husayn ismli qo'mondon jangga kirishdi va barcha janglarda g'olib bo'lib, Bag'dodni qo'lga kiritdi. Bu muvaffaqiyatsizlikni ko'rgan Amin Ma'munni bo'shatganidan va bu xunuk ishlar sodir bo'lganidan pushaymon bo'ldi[9]. Qo'lga olingan Amin bir guruh askarlar tomonidan tunda qatl etildi. Aminning xalifalik muddati to'rt yildan ko'proq edi.

Tohir ibn Husayn bu xizmatlari evaziga Ma'munni eng ishonchli odamiga aylandi va keyinchalik Xurosonda Tohiriylar davlati vujudga kelishi uchun poydevor qurdi.

Ma'mun taxtga o'tirgach, hijriy 201, milodiy 816 yilda Husayn ibn Ali ibn Abu Tolib avlodidan Ali Rizoni valiahdlikka tayinladi va unga "ar-Rizo min oli Muhammad" (Rizo Muhammad oilasidan) laqabini beradi. Barchaga qora kiyimni echib, yashil kiyim kiyishni buyuradi. Bu g'oyani ba'zilar qabul qildi, ammo boshqa Abbosiylar Ma'munni bo'shatib, boshqa Abbosiyni taxtga o'tqazishga qaror qildilar[7].

Bag'dodliklar Ma'munning qilgan ishidan g'azablanib, Ibrohim ibn Mahdiyga bay'at qildilar. Shu yili Ma'mun Ali Rizoga qizi Ummu Habibni nikohlab berdi va uning o'g'li Muhammad ibn Ali Rizoga ikkinchi qizi Ummul Fazlni nikohladi[8].

Barcha sulolalarda bo'lgani kabi Abbosiylarda ham umumiy siyosiy kuch va an'analar shakllangan edi. Bu sistema o'zgarishidan Ma'mundan boshqa barcha Abbosiylar norozi bo'lishdi va noroziliklarini yangi xalifa saylash bilan izhor qilishdi.

Ibrohim ibn Mahdiy ikki yilga yaqin hukmronlik qildi. Bag'dodliklar endi Ibrohimni bo'shatib, Ma'munni saroyga chaqirdilar. Ma'mun yashil libosda edi va barchani yashil kiyishga buyurdi. Bu holatdan uning farzandlari, e'tiborli kishilar va qo'mondonlar norozi bo'ldilar, natijada Ma'mun ham kiyimini o'zgartirib, qora kiyim kiyishga o'tdi.

Bu voqea Ma'mun o'z g'oyasidan voz kechib, ko'pchilik Abbosiylar qarashlarini qabul qilganini ko'rsatadi.

Hijriy 212, milodiy 827 yil Ma'mun ikki katta e'tiqodiy g'oyani ilgari surdi. Birinchisi - Qur'anni maxluq dedi va ikkinchisi - Ali ibn Abu Tolibni Muhammad payg'ambardan keyin eng afzal inson deb tan oldi[8].

Birinchii fikr, ya'ni Qur'anni maxluq deb e'tiqod qilish mo'tazila toifasining e'tiqodi hisoblanadi. Ikkinchisi Muhammad payg'ambardan keyin eng afzal Ali ibn Abu Tolib deb shia toifasi e'tiqod qiladi. Vaholanki, ahli sunnat

e'tiqodida Payg'ambardan keyin eng afzal Abu Bakr hisoblanadi va Qur'on maxluq emas, deb e'tiqod qilinadi. Bu xabarlardan ma'lum bo'ladiki, ushbu yillarda Ma'mun saroyida mo'tazila va shia toifalarning ta'siri kuchayib ketgan.

Hijriy 218/ milodiy 833 yil Ma'mun Ishaq ibn Ibrohimga maktub yo'llab, mamlakatdagi qoziyu olimlarni imtihon qilishni va Qur'onni maxluq demaganlarni jazolashni buyurdi. Barchalari "Qur'on-maxluq" dedilar, faqat Ahmad ibn Hanbal va Muhammad ibn Nuh bu gapni inkor qildilar va qattiq azobga tortildilar. Bular e'tiqodlaridan qaytmagach, Ma'munni huzuriga olib bormoqchi bo'lganlarida, Ma'mun vafot etdi va bu kishilar o'lim jazosidan qutilib qoldilar[8].

Ma'mundan keyin hukmronlikka kelgan Mo'tasim ham Ma'munni gapiga ergashdi va Ahmad ibn Hanbalni imtihon qildi va azob berishga buyurdi[10]

Xulosa va takliflar. Abbosiy hukmdorlarning mashhurlaridan biri Ma'mun katta ishlarni amalga oshirgan.

Ilm-fan taraqqiyotiga xizmat qiluvchi katta islohotlarni amalga oshirgan. Bag'dodda "Bayt al-hikma" akademiyasini

rivojlantirgan, bir qancha imorat va rasadxonalar qurdirgan. Diniy va dunyoviy ilmlar rivojlanishi uchun sharoitlar yaratgan. Juda ko'p olimlar mana shu islohotlardan keyin etishib chiqqan. Ma'mun Ali Rizoni xalifa qilib saylashi va unga o'z qizini nikohlab berishi ham uning mustaqil fikrga ega ekanini va oz maqsadini amalga oshirish uchun hech kimdan qo'rqmasligini ko'rsatadi. Umaviylar Muhammad payg'ambar nabiralari Hasan va Husayn avlodlarini ta'qib ostiga olganlari sababli, xalifalikka faqat Muhammad payg'ambar avlodlari haqli deb bilar edi. Shu sababli Ali Rizoni taxtga chiqardi. Ammo bu ish boshqalarga yoqmasi va Ma'munni bir muddat taxtdan tushishiga sabab bo'ldi.

Turli xil mafkuralar shakllanayotgan ushbu davrda Ma'mun mo'tazila va shi'a toifalari ta'siriga tushib qoldi va barchani shu e'tiqodga majburladi. O'z ishini nihoyasiga etkazmasdan olamdan o'tdi. Keyingi xalifalar bu xatoni tuzatib, qayta sunniy aqidani tikladilar.

ADABIYOTLAR

1. Umaviylar xalifaligi. tarix.sinaps.uz/hodisa/umaviylar-sulolasi
2. Умавийлар давлати – oliymahad.uz <https://oliymahad.uz/30275?ysclid=lxxta86tds984505191>
3. Рыжов К. Халифат Аббасидов. <https://proza.ru/2011/05/15/257?ysclid=lxijwdnuxu229325723>
4. Аббасиды. <https://bigenc.ru/c/abbasidy-49a38c>
5. Аббосийлар давлати. <https://e-tarix.uz/maqolalar/1005-maqola.html>
6. شمس الدين ابو عبدالله محمد بن احمد بن عثمان الذهبي. تاريخ الاسلام و فييات المشاهير و الاعلام. بيروت, دار الغرب الاسلامي. م2003. 1062-1032 ص.
7. عز الدين ابو الحسن علي بن محمد بن محمد بن عبد الكريم ابن الاثير. الكامل في التاريخ تاريخ ابن الاثير. الرياض, بيت الافكار الدولية. 874 ص. noor book.com
8. ابو جعفر محمد بن جرير الطبري. تاريخ الطبري. الرياض, بيت الافكار الدولية. 1789 ص. noor book.com
9. محمد علي ابو زهرة. دولة بني العباس. 345 ص. noor book.com
10. محمود شاكر. التاريخ الاسلامية. الدولة العباسية. 1 ج. بيروت, المكتبة الاسلامية. 1411هـ-1991م. 247 ص.



UDK:221/227:71(575,1)

Murodjon RAHMATULLAEV,
Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

O‘zMU professori A.Yermetov taqrizi asosida

O‘ZBEKISTONDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI FAOLIYATINING NAZARIY KONSEPTUAL ASOSLARI

Annotatsiya

Mazkur maqola O‘zbekistonda ommaviy axborot vositalari faoliyatining nazariy konseptual asoslariga bag‘ishlangan. Bunda axborotni keng jamoatchilikka etkazib beruvchi matbuot, radio, televidenie kabi vositalarning respublika hududida tarixiy shakllanishi masalalari tahlil qilingan. SHuningdek, maqolada O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng matbuot va boshqa ommaviy axborot vositalari erkin faoliyat yuritayotganligiga e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Ommaviy axborot vositalari, matbuot, radio, televidenie, tezkorlik, tahliliylik, gazeta, jurnal, axborotnomalar, byulletenlar, Internet jahon axborot tarmog‘idagi veb-saytlar, senzura.

ТЕОРЕТИКО КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СРЕДСТВ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

Данная статья посвящена теоретическим и концептуальным основам деятельности СМИ в Узбекистане. при этом были проанализированы вопросы исторического становления прессы, радио и телевидения, доносящих информацию до широких слоев населения на территории республики. Также в статье уделяется внимание свободному функционированию прессы и других средств массовой информации после обретения независимости Узбекистана.

Ключевые слова: Средства массовой информации, пресса, радио, телевидение, скорость, анализ, газета, журнал, информационные бюллетени, сайты в глобальной информационной сети Интернета, цензура.

THEORETIC CONCEPTUAL FOUNDATIONS OF MASS MEDIA ACTIVITY IN UZBEKISTAN

Annotation

This article is devoted to the theoretical and conceptual foundations of media activity in Uzbekistan. in this, the issues of historical formation of press, radio, and television, which deliver information to the general public in the territory of the republic, were analyzed. also, the article focuses on the free functioning of the press and other mass media after the independence of Uzbekistan.

Key words: Mass media, press, radio, television, speed, analysis, newspaper, magazine, newsletters, bulletins, websites on the Internet global information network, censorship.

Kirish. Ommaviy axborot vositalari (OAV) – axborotni keng jamoatchilikka etkazib beruvchi matbuot, radio, televidenie kabi vositalarga nisbatan ishlatiluvchi tushuncha hisoblanadi. Ommaviy axborot vositalarining ta‘sir kuchi unda beriladigan materiallarning xarakteriga bog‘liq bo‘ladi. SHu nuqtai nazardan qaraganda, berilayotgan materiallarning tezkorligiga, tahliliylik darajasiga alohida e‘tibor beriladi. Ommaviy axborot vositalarida materiallar ayni paytda qanday auditoriyaga mo‘ljallangani bilan ham ajralib turadi hamda iste‘molchining yoshi, jinsi, bilim darajasi, dunyoqarashi, milliy, diniy mansubligi kabi omillarini hisobga olgan holda tuziladi. Tarqalganlik doirasi, qamrov darajasiga qarab mahalliy, umummilliy, mintaqaviy OAVni farqlash lozim bo‘ladi. Ayni paytda bugungi kunda global miqyosda faoliyat ko‘rsatayotgan va ta‘sir doirasi katta bo‘lgan telekanallar hamda axborot agentliklari borligini ham ta‘kidlash zarur. Ijtimoiy hayotga ta‘siri haqida gap ketganda, OAV kuchli jamiyat hayotidagi dolzarb masalalarni ko‘tarib chiqishda, uning samarali echimlarini topishga urinishida, mavjud muammolarga jamiyat a‘zolari diqqatini jalb qilishda, davlat organlari faoliyatini nazorat qilib borishida ko‘rinadi [1].

“Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 4-moddasida ommaviy axborot vositalariga nimalar kirishi xususida aniq belgilab qo‘yilgan. Ommaviy axborotni davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo‘lgan hamda bosma tarzda (gazetalar, jurnallar,

axborotnomalar, byulletenlar va boshqalar) va (yoki) elektron tarzda (tele-, radio, video, kinoxronikal dasturlar, Internet jahon axborot tarmog‘idagi veb-saytlar) olti oyda kamida bir marta nashr etiladigan yoki efirga beriladigan (bundan buyon matnda chiqariladigan deb yuritiladi), qonunchilikda belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan shakli hamda ommaviy axborotni davriy tarqatishning boshqa shakllari ommaviy axborot vositasidir [2].

Yuqorida keltirilgan asosiy fikrlardan kelib chiqqan holda axborotni keng jamoatchilikka etkazib beruvchi matbuot, radio, televidenie kabi vositalarni respublika hududida tarixiy shakllanishi masalalarini tadqiqotda tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Matbuot hamma vaqt rivojlanishning har bir bosqichida o‘zi yashab turgan jamiyatning manfaati uchun xizmat qilgan, uning maqsad va intilishlarini targ‘ib qilgan. Haqiqiy va xalqchil matbuotning vazifasi shundan iborat bo‘lmog‘i kerak. Afsuski, sho‘rolar tuzumi davrida matbuot yakkayu-yagona kommunistik mafkura g‘oyalarini targ‘ib qilgan, uning rahnamolari yo‘l-yo‘riqlari asosida ish tutgan, ular topshirig‘ini bajargan. XX asrda matbuot maydonida “qizil yozuvchi”, “proletar-yo‘qsul yozuvchi”, “aksilinqilob yozuvchisi”, “millatchi yozuvchi” kabi tushunchalar mavjud bo‘lgan. O‘zbekistonda erkin ijodkorlar faoliyati bolsheviklar tomonidan qattiq nazoratga olingan. Matbuotda qattiq senzura o‘rnatilgan. Ilgarigi mavjud bo‘lgan milliy matbuot o‘rnini kommunistik mafkurani targ‘ib qiluvchi gazeta va jurnallar

egallagan. Matbuotda bildirilgan har bir erkin fikr bolsheviklar tomonidan tahlil qilinib, senzurdan o'tkazilgan. Milliy ongni o'stirishga da'vat etuvchi har qanday maqola yoki asar bolsheviklarning qattiq qarshiligiga uchragan [3].

Xalq og'zida matbuot deb atalgan ommaviy axborot vositalari amalda "barcha g'alabalarimizning ilhomchisi va tashkilotchisi" deb bonga urilgan kommunistik partiyaning xizmatkoriga aylangan edi. U qizil imperiyaning suyangan tog'i, totalitar tuzum manfaatlarini himoya qiladigan g'oyaviy qurolga aylangan edi. Tabiiyki, bu holat omma bilan matbuot o'rtasida nomutanosiblikni keltirib chiqardi [4].

1975 yilda O'zbekistonda 257 nom bilan jami 4 mln. 405 ming nusxa, shu jumladan o'zbek tilida 169 nom bilan gazeta nashr qilindi. SHu yili jami 134 nomda jurnal chop qilinib, ular nusxasining yillik miqdori 134,4 mln.ga teng bo'lgan [5].

Sovet tuzumi sharoitidagi matbuotning shakllanish va rivojlanish jarayoni yakka partiyaviylik – Kommunistik partiyaning mutlaq yakkahokimligi sharoitida kechdi. Gazetalar, jurnallar, kitoblar qiyofasi, yo'nalishi shu partiya rahbariyati ko'rsatmalari asosida belgilandi, jurnallar faoliyati ham davlat senzurasining, ham partiyaviy nazoratning qattiq iskanjasiga olindi.

Davriy nashrlarning, umuman matbuotning ijtimoiy hayotdagi o'rni, vazifalarini, ijtimoiy hodisalarni tahlil qilishga yondashuvini belgilashda kommunistik mafkuraning asosiy shartlaridan biri – sinfiylikka asoslanildi. Matbuotning huquqiy asoslarini belgilashda ham sinfiy manfaatlarining ustivorligi bosh mezon hisoblandi. Bu ko'p hollarda umuminsoniy ma'noda axborot sohasida ham inson haq-huquqlari va erkinliklarining cheklanishi va qo'pol ravishda buzilishiga olib keldi [6].

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng matbuot va boshqa ommaviy axborot vositalarida o'ziga xoslik paydo bo'la boshladi. Endi gazetalari, jurnallar, radioeshitirishlar va teleko'rsatuvlarda bevosita respublikaning mustaqilligiga bag'ishlangan, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy-ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lgan mavzularda keng o'rin beriladigan bo'ldi. O'z navbatida respublikamiz haqidagi muhim yangilik va axborotlar ham mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan joriy axborot agentliklari vakillari va muxbirlari tomonidan o'sha mamlakatlar axborot vositalari uchun bevosita etkazib berilmoqda. Axborot almashinuvi, dunyo voqealaridan xabardorlik, yoki aksincha, dunyo sahnasiga chiqish, o'zini namoyon qilish imkoni tug'ildi.

Mustaqillik yillarida mamlakatda soni keskin ko'paygan ommaviy axborot vositalarining sho'ro davridan meros senzuralash nazorati ostida tutish mumkin bo'lmay qoldi. Traqqiyot senzurasini engdi. Jurnalistni tashqirdan nazoratlash emas, uni ichdan tartibga keltirish tizimi adolatliroq ekanini dunyo tajribasi ko'rsatdi. Bunday sharoitda ko'p sonli matbuot sohasini boshqarishning birdan-bir to'g'ri chorasi – sohani erkinlashtirish ediki, O'zbekiston ayni shu yo'lni tanladi. Bu o'rinda erkinlashtirish deganda matbuotning va jurnalistning o'zini-o'zi boshqarish, o'zini-o'zi tartibga solish nazarda tutilmoqda [7].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 5 fevral Farmoniga muvofiq hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 21 aprel 202-sonli qarori bilan O'zbekiston axborot agentligi (O'zTAG) O'zbekiston Milliy axborot agentligi (O'zA) aylantirildi.

Respublikaning ichki va tashqi siyosati to'g'risida ishonchli axborotni to'plash va ta'minlashni tashkil etishni yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori bilan yuklatilgan vazifalarga muvofiq O'zbekiston Milliy axborot agentligi (O'zA)ga quyidagi huquqlar beriladi:

Moddiy – texnik negizni mustahkamlash va ijtimoiy masalalarni hal qilish uchun byudjetdan tashqari moliyaviy manbalarning mablag'laridan mustaqil foydalanish;

SHartnomalar yuzasidan buyurtmachilarga sotiladigan axborot maxsuloti (ishlar, xizmatlar) narxlari va ta'riflarini belgilash;

Rahbarlarni, ijodiy xodimlarni, yuqori malakali mutaxassislarni va xizmatchilarni bitim asosida ishga yollash; Axborot maxsulotini, tegishli texnika va asbob uskunalarni sotib olish va sotish va ayiraboshlash, reklama xizmati va boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish yuzasidan tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish va boshqalar [8].

O'zbekiston Milliy axborot agentligi (O'zA) to'g'risidagi Nizom Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 21 aprel 202-sonli qarori bilan tasdiqlangan. O'zbekiston Milliy axborot agentligi O'zbekiston Respublikasining markaziy davlat axborot agentligi bo'lib, uning faoliyati Respublikaning Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga kiruvchi davlatlarning va xorijiy mamlakatlarning keng doiradagi o'quvchilarga mo'ljallangan. O'zA o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunlari va qarorlariga, Prezidentning farmonlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi ishtirok etadigan ommaviy axborot vositalariga doir halqaro shartnomalarga va o'z nizomiga amal qiladi [9].

O'zAning bosh vazifasi axborot to'plash va ularni ommaviy axborot vositalariga, davlat organlariga, muassasalarga, korxonalariga va tashkilotlarga, jamoat birlashmalariga, shuningdek respublikadagi va uning tashqarisidagi kishilarga etkazib berishdan iborat [10].

O'zA O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ijtimoiy-siyosiy va boshqa voqe'alarga baho berishga, ichki va tashqi siyosatining eng muhim masalalarga taalluqli rasmiy hujjatlarni, bayonotlarni va axborotlarni tarqatadi [11].

O'zbekistonda matbuot va ommaviy axborot vositalari kunini nishonlash 1994 yildan boshlangan. 1994 yil 27 iyunda Buxoro viloyat hokimi M.R.Rahmonov boshchiligida O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi viloyat kengashi yig'ilishi bo'lib o'tadi. Ushbu yig'ilishda viloyat va tuman gazetalar, radio va televidenie xodimlari ishtirok etadilar. Bunda viloyat ijtimoiy hayotida katta o'rin tutgan jurnalistlar faoliyati yuqori baholandi [12]. SHundan keyin har yili Buxoro viloyatida ham matbuot va ommaviy axborot vositalari kunini nishonlash an'anaga aylandi.

1996-yilda O'zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarining jamiyatdagi rolini oshirishga qaratilgan muhim amaliy choralar ko'rildi. 1996 yilning may oyida O'zbekiston ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish va qo'llab-quvvatlash ijtimoiy-siyosiy jamg'armasi tashkil qilindi. Bu ommaviy axborot vositalari vakillarining mustaqil o'z-o'zini boshqaruvchi, hukumatga qarashli bo'lmagan ijtimoiy xayriya tashkiloti hisoblanadi [13].

Ommaviy axborot vositalarining yana bir muhim tarmog'i hisoblangan radio mamlakat va jahonda yuz berayotgan voqea-hodisalarni tezkorlik bilan ommaga etkazishda eng qulay aloqa tarmog'i sanaladi. Uning insonlar hayotidagi dolzarb hodisalar, qirralar, jamiyatdagi keng ko'lamlil islohotlar, o'zgarish va yangilanishlarni xolisona yoritib berishdagi o'rni juda muhimdir.

Radioning insoniyat hayotidagi ahamiyatini inobatga olgan holda, 1946 yil, 13 fevral – "BMT radiosi" tashkil etilgan kun munosabati bilan 2011 yil YUNESKO Bosh konferensiyasi tomonidan 13 fevral – Butunjahon radio kuni deb e'lon qilingan. Kun yangiliklarini yoritishda ommaviy axborot vositalari orasida radioning ahamiyati-ni e'tirof etish, jamiyat hayotida radio mavqeini oshirish hamda mahalliy va xalqaro ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi hamkorlik munosabatlarini mustahkamlash maqsadida yil taqvimini

sahifalarida ushbu kun alohida tarixiy sana sifatida belgilangan [14].

Istiqloq yillarida radiolar soni yanada ko'paydi. "O'zbekiston", "Mash'al", "YOshlar", "Toshkent", radiokanallariga keyinchalik "Oriyat dono", "Poytaxt FM", "Vodiy sadosi", "Radio Grand", va "Ruxsor FM" kabi nodavlat radiokanallar qo'shildi. Keyingi yillardagi radio sohasidagi o'zgarishlar tufayli "Mahalla" hamda "O'zbekiston 24" kanallari tashkil etildi. SHu bilan birgalikda O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi tizimida to'rtta: "O'zbekiston", "YOshlar", "O'zbekiston 24", "Mahalla" radiokanallari, shuningdek, Qoraqalpog'iston va barcha viloyatlarda radiokanallar faoliyat yuritmoqda. Hususiy radiokanallarni qo'shib hisoblaganda respublikada jami 40 ga yaqin radiokanal ishlab turibdi [15].

Keyingi yillarda O'zbekistonda ommaviy axborot vositalarining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini, ular faoliyati samaradorligini yanada oshirish, mediatarmoqlarning huquqiy, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yangilash, texnik va texnologik modernizatsiya qilish, jurnalist kasbining ijtimoiy maqomi va nufuzini ko'tarish, soha xodimlarining mehnatini moddiy va ma'naviy rahbatlantirish yo'lida katta ishlar amalga oshirildi.

2007-yildan sun'iy yo'ldosh orqali "Uzbekistan" teleradiokanalining dasturlari xorijiy makmlakatlarga uzatilmog'ida. Teleradiokanallar ko'rsatuv va eshitirishlari Internet tarmog'i orqali online tarzda muntazam efirga berilmog'ida. 2011 yilda eng zamonaviy, yuqori tiniqlikda ishlovchi uskunalar bilan jihozlangan Mediamarkaz foydalanishga topshirilishi natijasida eng yuqori xalqaro sifat standartlariga mos telemahsulotlar tayyorlash imkoniyati yaratildi [16].

Ommaviy axborot vositalarining muhim tarmog'i hisoblangan televidenieng vatani Toshkent ekanligiga oid ma'lumotlar mavjud. O'zbekiston televideniyesining ko'rsatuvlari 1956 yil 5 noyabrda Toshkentda boshlangan. 1958 yildan ko'chma televizion stansiya ishlay boshladi va studiyadan tashqari ko'rsatuvlar olib borildi. 60-yillardan teleko'rsatuvlar tarmog'i kengaydi. Urganch 91961), Nukus (1964) da yangi telemarkazlar ishga tushirilgan [17].

1971 yildan O'zbekiston Markaziy televidenie ko'rsatuvlari muntazam rangli tasvirda uzatila boshladi. 1973 yil 1 yanvardan O'zbekiston televideniyesi ko'rsatuvlari ham rangli tasvirda berida boshladi. 1977 yil yili Respublika televizion texnika markazi ishga tushirildi. 1978-1985 yillarda

balandligi 375 metrli bo'lgan televizion minora qurib bilkazilgan [18].

Mustaqillikni qo'lga kiritgach O'zbekiston Respublikasi televideniyesi 1995 yildan quyidagi dasturda ishlay boshladi: 1-dastur (axborot, ijtimoiy-iqtisodiy, adabiy, badiiy ko'rsatuvlar) kuniga 14,4 soat (respublika aholisining 98,5 % ini qamrab oldi); 2-dastur kuniga 7 soat (respublika aholisining 24,8 % ini qamradi); 3-dastur (xalqaro telekanal, o'zbek tilidagi ko'rsatuvlar) bir sutkada 8 soat (respublika aholisining 67 % ini qamrab oldi) [19].

Umuman olganda, o'zining qadimiy va boy tarixi bilan haqli ravishda faxrlanadigan O'zbekiston televideniyesi yillar mobaynida davr bilan hamqadam ravishda rivojlanib bordi. Zero, sohadagi izchil islohatlar natijasida bugungi kunda respublikadagi har bir oila yuqori sifatli televidenie xizmatlaridan bahramand bo'lish imkoniyatiga ega bo'ldi.

O'zbekistonda nashr etib kelinayotgan matbuot, keyingi yillarda boshqa ommaviy axborot vositalari singari katta o'zgarishlarga duch keldi. Ushbu o'zgarishlarning barchasi ham gazeta va jurnallar foydasiga hal bo'layotgani yo'q. Lekin shu bilan birga bosma nashrlarning aksariyati davr va jamiyatning ajralmas qismiga aylandi va o'quvchilarning ehtiyojlarini qaysidir ma'noda qondirib kelmoqda. Bosma nashrlardagi zamonaviy o'zgarishlar avvalo eng yangi texnologiyalardan faol foydalanish fonida ko'zga tashlanmog'ida. 2021 yil 1-yanvar holatiga ko'ra respublikada 1866 dan ortiq (637 ta gazeta, 469 jurnal, 71 ta telekanal, 37 radio, 5 ta axborot agentligi, 17 ta axborotnoma-byulleten, qariyb 630 ta veb-sayt) ommaviy axborot vositalari faoliyat yuritmog'ida [20].

Xulosa qilib aytganda, istiqloq davrida ommaviy axborot vositalari tushunchasi jamiyat hayotiga tobora chuqurroq kirib borgani, unga tarbiya o'chog'i, ma'rifat qo'rg'oni sifatida yanada katta ahamiyat barchaga ma'lum. Har bir matbuot materiali, tele va radiokanalning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ularning bugungi kundagi ijodiy faoliyati xususan, ko'rsatuv va eshitirishlari, jurnalist, rejissyor va boshlovchilari faoliyatiga alohida e'tibor qaralilmog'ida. Bugungi kunda jurnalist boshqa sohalaridagi haqiqiy ahvol, mamlakatda kechayotgan islohotlar, yuz berayotgan o'zgarishlar to'g'risida atroflicha bilim va ma'lumotlarga ega bo'lib borishi zarur. Esh holda avvalo murojaat etgan qaysidir sohadagi fuqaroni suhbatga tortishi, undagi zarur ma'lumot va fikr-mulohazalarni olishi, pirovardida esa mavzuga chuqur kirib borishi, boshqalarga manzur bo'larli tarzda yoritishi qiyin kechadi.

ADABIYOTLAR

1. Qilichev R. Milliy g'oya va mafkura: asosiy tushuncha va atamalar. – Buxoro: Durdona, 2013. – B.178.
2. "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni // <https://lex.uz/docs/1106870>
3. Рашидов О. Ўзбекистон ҳудудида миллий зиёлилар ва большевикларнинг мафкура майдонидаги кураши (1917-1938йй.). – Тошкент: Муҳаррир, 2022. – Б.122.
4. Ўзбекистоннинг янги тарихи // Тузувчилар Н.Жўраев, Т.Файзуллаев. Учинчи китоб. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б.212.
5. Ўзбекистон Республикаси энциклопедияси. – Тошкент: "Қомуслар Бош таҳририяти", 1997. – Б.490.
6. Ўзбекистон Республикаси энциклопедияси. – Тошкент: "Қомуслар Бош таҳририяти", 1997. – Б.491.
7. Хуршид Дўстмуҳаммад. Журналистнинг касб одоби муаммолари: назарий-методологик таҳлил (Мустақиллик даври ўзбек матбуоти фаолияти мисолида 1991-2007 йиллар). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. –Б.8.
8. O'zbekiston Milliy arxivi. M-55 fond, 1-ro'yxat, 1-yig'ma jild, 3-varaq.
9. O'zbekiston Milliy arxivi. M-55 fond, 1-ro'yxat, 1-yig'ma jild, 3-varaq.
10. O'zbekiston Milliy arxivi. M-55 fond, 1-ro'yxat, 1-yig'ma jild, 3-4-varaqlar.
11. O'zbekiston Milliy arxivi. M-55 fond, 1-ro'yxat, 1-yig'ma jild, 4-varaq.
12. Журналистлар байрами // Бухоро ҳақиқати. 1994 йил 29 июнь. 52-сон.
13. Ўзбекистоннинг янги тарихи // Тузувчилар Н.Жўраев, Т.Файзуллаев. Учинчи китоб. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б.217.
14. Journee mondiale de la radio. <https://www.unesco.org/fr/days/world-radio>
15. Хаджаев А., Хайитов Ш. Радио ва телевидение. – Тошкент: IJOD-PRESS, 2022. –Б. 47.
16. Хаджаев А. Юсак масъулиятни ҳис этиб. Ўзбекистон миллий тeleradiokompaniyasi: замон билан ҳамқадам. – Тошкент: O'zbekiston, 2016.– Б.4-5.

17. Ўзбекистон совет энциклопедияси. 14-жилд. Тошкент: “Ўзбек совет энциклопедияси бош редакцияси”, 1980.– Б.553.
18. Ўзбекистон Республикаси энциклопедияси. – Тошкент: “Қомуслар Бош таҳририяти”, 1997. – Б.500.
19. Ўзбекистон Республикаси энциклопедияси. – Тошкент: “Қомуслар Бош таҳририяти”, 1997. – Б.500.
20. Nurmanov A. Jurnalistikada yangi trendlar // Zamonaviy mass-medianing dolzarb muammolari mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2021-yil 25-iyun. – Toshkent: Nafis bezak,2021. –Б.32.



UO'K: 316.334.3:343.341(575.1)

Azizjon RIZAYEV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tadqiqotchisi
E-mail: umidjon.usarov@mail.ru

Tarix fanlari doktori, professor v.b. A.Xolliyev taqrizi asosida

SAUDIYA ARABISTONI MILLIY IDENTIKLIGINING DINIY PARADIGMASI

Аннотация

Maqolada Saudiya Arabistonida milliy identiklikni mustahkamlash maqsadida islom diniga asoslangan milliylikni o'rnatishga qaratilgan sa'y-harakatlar ochib berilgan. Arab dunyosida milliylik va diniy mafkuraning rivojlanishi, shuningdek, ularning o'zaro bog'liqligi va mintaqadagi vaziyatga ta'siri ko'rib chiqilgan. Saudiya Arabistoni valiahdi Muhammad bin Salmon tomonidan mamlakatda milliy identiklikni mustahkamlash va konservativ tendensiyalarni susaytirish yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlar atroflicha ochib berilgan. Saudiya Arabistonining hozirgi siyosatidagi islomizmning diniy, milliy va global jihatlarini uyg'unlashuvi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Milliylik, islom, mazhab, saudiyaliklar, salafiyalar, identiklik, panarabizm, teokratiya, monarxiya, islohotlar, fundamentalizm, radikalizm, globallashtiruv.

РЕЛИГИОЗНАЯ ПАРАДИГМА НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ САУДОВСКОЙ АРАВИИ

Аннотация

В статье раскрываются усилия, направленные на установление национальной идентичности на основе ислама в Саудовской Аравии с целью укрепления национального самосознания. Рассматривается развитие национализма и религиозной идеологии в арабском мире, а также их взаимосвязь и влияние на ситуацию в регионе. Подробно освещаются реформы, проводимые наследным принцем Саудовской Аравии Мухаммедом бин Салманом, направленные на укрепление национальной идентичности в стране и ослабление консервативных тенденций. Показано сочетание религиозных, национальных и глобальных аспектов исламизма в современной политике Саудовской Аравии.

Ключевые слова: Национализм, ислам, мазаб, саудиты, салафиты, идентичность, панарабизм, теократия, монархия, реформы, фундаментализм, радикализм, глобализация.

RELIGIOUS PARADIGMS OF SAUDI ARABIA'S NATIONAL IDENTITY

Annotation

This article explores the efforts aimed at establishing a national identity based on Islam in Saudi Arabia with the goal of strengthening national consciousness. It examines the development of nationalism and religious ideology in the Arab world, as well as their interrelation and impact on the regional situation. The reforms implemented by Saudi Crown Prince Mohammed bin Salman to reinforce national identity in the country and mitigate conservative tendencies are thoroughly elucidated. The article demonstrates the convergence of religious, national, and global aspects of Islamism in contemporary Saudi Arabian politics.

Key words: Nationalism, Islam, Saudis, Salafists, identity, Pan-Arabism, theocracy, monarchy, reforms, fundamentalism, radicalism, globalization.

Kirish. Diniy identiklik Saudiya Arabistoni milliy identikligining, xususan, Podshohlik milliylikning uzviy qismi bo'lib kelmoqda. Buni boshqacha ta'riflaganda saudiyalik bo'lish uchun Podshohlikda tug'ilishning o'zi kifoya emas, balki shu bilan birga u musulmon-sunniy ham bo'lishi kerak[1]. Saudiya milliylik R.Brubakerning[2] yondashuvi asosida tahlil qilinganda uni etno-diniy milliylik deb baholash mumkin. Zero, Ol Saud va Ol ash-Shayx oilalari o'rtasidagi ittifoq hozirgi hududda Saudiya Arabistonining davlatchiligi shakllanishini legitimlashtirib berdi.

Tahlil va natijalar. XX asrning 80-yillaridan Saudiya Arabistoni Podshohligi (SAP) rahbariyati izchil ravishda milliy identiklikning diniy komponentini rivojlantirib bordi. Bu, ayniqsa, Saudiya Arabistoni podshohi o'zining "Ikki muqaddas masjid xodimi" (Makka va Madina shaharlaridagi) deb nomlanuvchi unvonidan faol foydalanishida yaqqol namoyon bo'ldi. Podshoh Salmon bin Abdulaziz Ol Saud o'zidan avvalgi podshohlar kabi "biz va xalqimiz islom dinining muqaddas yerlari himoyachilarimiz" deb ta'kidlash orqali hozirgi Saudiya milliy identikligining mazmun-mohiyatini belgilab berdi [3]. Gadi Xitman Saudiya milliylikni vahhobiylikning bir turi sifatida ta'riflar ekan,

uzoq vaqt davomida faqat Hanbaliy mazhabidagi shaxslar mamakat siyosiy hayotida ishtirok etishi va siyosiy qarorlarni qabul qilishga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lganligini ta'kidlagan[1]. Saudiya Arabistonining qolgan aholisi Podshohlik pasportiga ega bo'lsalarda bunday huquqdan mahrum edilar. Bu nafaqat mamlakatning Sharqiy viloyatda yashovchi shialariga, balki Hijozning Molikiy va Shofi'iy mazhabidagi aholisiga ham taalluqli. Yuqorida aytib o'tilgan guruhlarining vakillari Podshohlik huquq-tartibot idoralariga jalb qilinmagan va ularga davlat idoralarida yuqori lavozimlarni egallashga ruxsat berilmagan. Biroq so'nggi o'n yil ichida mamlakatni liberallashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlar o'zanida vaziyat nafaqat Hijoz vakillari uchun, balki shialarga ham ijobiy ko'rinishda o'zgarib boshladi.

Hozirgi vaqtda Saudiya Arabistonida davlat milliylikning yangi shakli tez sur'atlarda rivojlanmoqda. Xalqaro bozorda neftning yuqori narxlarini ushlab qolish, mahalliy mega-loyihalarni amalga oshirish, jahon sportida ishtirok etish, xorijiy davlatlar bilan aloqalarni kengaytirish kabi chora-tadbirlar ushbu milliylik strategiyasi doirasida rasmiy ar-Riyod tomonidan amalga oshirilayotgan ichki va tashqi siyosat bilan bog'liq. Yoshlarga qaratilgan ushbu

dasturlar, milliy identiklikni tiklash va davlat bilan jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilashga qaratilgan bo'lib, bu o'zgarishlar "yuqoridan pastga" yo'nalishida amalga oshiriladi.

Bu tashabbuslar allaqachon aniq natijalarga erishdi. Saudiya Arabistoni yaqin Sharqdagi deyarli barcha mojaro zonalarini va geosiyosiy yoriqlarga jalb qilingan bo'lib, so'nggi paytlarda ular mintaqadagi keskinlikni pasaytirish harakatining boshida turibdi. Saudiya Arabistoni hukumati rivojlanayotgan ko'p qutbli dunyo tartibining realligini tan oladi va AQSH e'tirozlariga tez-tez duch kelib, qisqa va uzoq muddatda o'z manfaatlarini eng yaxshi tarzda ilgari surish uchun o'zini mos tarzda ko'rsatadi.

Saudiya valiahdi Muhammad bin Salmon Podshohlikda milliylik g'oyasini mustahkamlash orqali o'zining mamlakat ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta'sirini mustahkamlashga intilmoqda. Muhammad bin Salmon Saudiya Arabistoni milliy identikligining muhandisi sifatida amalga oshirayotgan siyosatida milliylik g'oyasi asosiy o'rin tutmoqda. Muhammad bin Salmon Saudiya Arabistonida milliy identiklikni faqat din bilan bog'lashni o'zgartirish maqsadida uning tasavvurida "saudiyalik" bo'lish nimani anglatishini xalqqa yetkazishga intilmoqda. Biroq Saudiya Arabistonining rivojlanish tarixi davomida diniy identiklik hukmron Ol Saud oilasining legitimligini ta'minlab kelgan.

Muhammad bin Salmon Saudiya milliyligini mamlakatni asosiy birlashtiruvchi kuchga aylantirishga intiladi. Din ar-Riyod uchun davlat boshqaruvining muhim vositasi bo'lib qolsa-da, yangi milliylik harakatlarini qo'llab-quvvatlanishiga qaratilgan. Bu, valiahd shahzoda ko'rsatmasi bilan amalga oshirilayotgan turli islohotlarda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ular jumlasidan Saudiya Arabistoni tarixini din bilan ifodalashini o'zgartirish, ayollarga avtomashina boshqarish, alohida yashash va vasiyisiz sayohat qilishga ruxsat berish, kinoteatrlar faoliyatini yuritishi va turli xil konsert dasturlarini tashkil etishga ruxsat berish, korrupsiyaga qarshi kurash, ekstremistik g'oyalarni targ'ib qiluvchi ruhoniyyat vakillarini hibsga olish kabi choralarini zikr etish mumkin. O'quv adabiyotlari yangi Saudiya milliylik g'oyasi nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqildi va mamlakatni pan-arab va pan-islam g'oyalaridan uzoqlashtirdi.

Asta-sekin yangi shaklda Saudiya Arabistoni milliy identikligining mafkuraviy bazisi yaratilmoqda. Islom diniga mansublik arab tili, milliylik va etnik tushunchalarni chetga surib, o'zaro birlashishning yangi shakliga aylanmoqda. Shuningdek, ar-Riyod mamlakatda milliylik loyihasi amalga oshirish vositasi sifatida militarizatsiyadan foydalanmoqda. U harbiy ramzlarni jamiyatni birlashtirish va aholi o'rtasida davlatga nisbatan umumiy xayrixohlik va sadoqat tuyg'usini shakllantirishda foydalanmoqda.

Geosiyosiy makonda Saudiya Arabistoni din peshvolari XX asrning 50-60-yillari Misr Prezidenti Gamal Abdunnosir rahbarligidagi arab millatchilari va sotsialistlarining panarab g'oyalariga qarshi chiqib, 1962 yilda Jahon Islom Ligasini tashkil etilishiga erishdilar. Bu jarayon arab davlatlari o'rtasida milliylik va sotsializm mafkurasi asosida turli integratsion loyihalar amalga oshirilishiga to'sqinlik qilishi kerak edi. Ar-Riyodning nuqtai nazaricha, arab dunyosi faqat islom diniga mansublik identikligi asosida birlashishi mumkin va bunda Saudiya Arabistoni ulamolari targ'ib qiluvchi Muhammad bin Abduvahobning diniy g'oyalari yetakchilik qilishi lozim bo'ladi.

Saudiya Arabistoni nuqtai nazaricha, arab milliyligi va siyosiy islom o'rtasida G'arb qadriyatlarini va globallashuv jarayonlariga qarshilik qilishda umumiylik mavjud, ammo bu ularning o'rtasidagi ziddiyatlarini istisno etmaydi. XXI asr boshida siyosiy islom panislomizm g'oyasini qayta tiklab, globallashuvga javob sifatida siyosiy integratsiyaning yetakchi kuchi bo'lishga intildi. Siyosiy islom tarafdorlari arab

milliyligini va uning ramzi bo'lgan dunyoviy davlatni G'arb tomonidan singdirilgan rivojlanish modeli deb hisoblaydi [5]. Islomiy ta'limotning arab jamiyatlarida doimiy mavjudligi va uni birlashtiruvchi kuch sifatida qabul qilinishi ehtimoli yuqori.

Milliylikni rivojlantirishda iqtisodiyotni rivojlantirish muhim ahamiyatga molik. Valiahd Muhammad bin Salmon mamlakatda subsidiyalarni keskin kamaytirish orqali Podshohlikda neft daromadlariga tayanib qolmagan iqtisodiyotni shakllantirish yo'lida sa'y-harakatlar qilmoqda. Bunday tashabbuslarga qaramay neft daromadlari Saudiya Arabistoni uchun hanuzgacha muhim ahamiyatga ega. Podshohlikda keng islohotlarni amalga oshirish uchun Muhammad bin Salmon katta sarmoya kerak, biroq Saudiya Arabistoni iqtisodiyotining barqarorligi neftdan keladigan daromadlarga bog'liq.

Bunda "Vision 2030" strategiyasi yangi iqtisodiy rivojlanishning asosi bo'lib, u Saudiya Arabistonini Yaqin Sharqdagi eng yirik iqtisodiy markazga va xalqaro moliya bozoriga aylantirish ko'zda tutilgan. Bu maqsadga erishish uchun Saudiya Arabistonining xalqaro maydondagi imidjini yangi shart-sharoitlarga moslashtirgan holda Podshohlikning yangi qiyofasini yaratishga harakat qilinmoqda. Buning uchun mamlakatda turizm rivojlantirilmoqda, turli xalqaro sport musobaqalarida faol ishtirok etilmoqda, investitsiya forumlari o'tkazilmoqda va Podshohlikni mo'tadil islom tarafdori sifatida ko'rsatuvchi turli xalqaro tashabbuslarni ilgari surmoqda.

Saudiya Arabistoni "Vision 2030" dasturini amalga oshirish, ayrim sohalarda, ayniqsa, xususiy sektorni rivojlantirish va neftga bog'liq bo'lmagan davlat daromadlarini oshirishda qator qiyinchiliklarga ro'baro' kelmoqda. Masalan, 2022 yilda jahon bozorida neft narxining yuqoriligi tufayli Saudiya Arabistoni iqtisodiyoti 8,7 foizga o'sgan bo'lsa-da, bu Podshohlikka oxirgi 10 yil ichida birinchi marta budjet profitsitiga erishish imkonini berdi. Dunyo miqyosida iqtisodiy taraqqiyotning sekinlashuvi kuzatilayotgan sharoitda neft mahsulotlari savdosidan olinadigan daromad Saudiya Arabistoni uchun yaqin istiqbolda muhim bo'lib qoladi deb mulohaza qilinadi.

Ichki siyosatda Muhammad ibn Salmon milliy loyihalarni amalga oshirish va hokimiyatning avtoritar asoslarini modernizatsiya qilishni ustuvor vazifa deb bilmoqda. Bu jarayon xavfsizlik siyosatining kuchayishi va tanqidchilarga nisbatan qattiq choralar ko'rish bilan birga kechmoqda[4]. Milliylik strategiyasining muvaffaqiyati hukumatning iqtisodiy va'dalarini bajarishi va Muhammad ibn Salmonning o'zini milliy manfaatlar himoyachisi sifatida ko'rsata olishiga bog'liq. Biroq kuchli milliylik g'oyalari davlat nazoratidan tashqari kuchlarni shakllantirishi mumkin. Agar va'dalar bajarilmasa, valiahd shahzoda o'zi rag'batlantirgan millatchi kuchlar tanqidiga uchrashi ehtimoli mavjud.

Xulosa. Yuqorida zikr etilganlardan kelib chiqib, qayd etish mumkinki, globallashuv jarayonlari Saudiya Arabistonining milliy identikligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda, bu esa ko'plab ziddiyatlar va muammolarni keltirib chiqarmoqda. Podshohlikning jahon iqtisodiyotiga integratsiyasi jamiyatning ochiqligi va modernizatsiyasini talab etsa-da, bu jarayon an'anaviy qadriyatlar va madaniy o'ziga xoslikni yo'qotish xavfini tug'dirmoqda. Bu murakkab vaziyatda Saudiya Arabistoni islom olami va arab sivilizatsiyasining yetakchisi maqomini saqlab qolishga intilmoqda. Bu strategiya zamonaviylashuv va an'anaviylik o'rtasidagi nozik muvozanatni saqlashga qaratilgan bo'lib, milliy identiklikni saqlash va rivojlantirishning asosiy vositasi sifatida qaralmoqda. Mamlakat rahbariyati global tendensiyalarga moslashish va o'z madaniy-tarixiy merosini saqlab qolish o'rtasidagi muvozanatni topishga harakat

qilmoqda, bu esa Saudiya Arabistonining kelgusi rivojlanish yo'nalishini belgilab bermoqda.

Saudiya Arabistoni hozirda modernizatsiya va global integratsiya jarayonlarini o'z madaniy va sivilizatsion identikligini saqlab qolish bilan uyg'unlashtirish muammosi bilan ro'baro' bo'lmoqda. Bu muvozanatli yondashuvni ishlab chiqish mamlakat rivojlanishining ustuvor yo'nalishiga aylangan. Saudiya jamiyatining moslashuvchanligi va o'ziga xosligi an'anaviy hamda zamonaviy qadriyatlarni o'z ichiga olgan "Saudiya modeli"ni shakllantirish imkoniyatini bermoqda. Bu model islom qadriyatlarga asoslangan modernizatsiya; texnologik rivojlanish va madaniy merosni saqlash uyg'unligi; iqtisodiy diversifikatsiya va an'anaviy ijtimoiy tuzilmalarni saqlash; global standartlarga moslashish va milliy identiklikni saqlab qolish kabi xususiyatlarga ega bo'lishi ko'zda tutilgan. Uni amalga oshirish globallashuv tahdidlari sharoitida mamlakatning milliy birligi va

mustaqilligini saqlashga xizmat qiladi va Saudiya Arabistonining nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosda ham o'z mavqegini mustahkamlashga yordam beradi.

Saudiya Arabistoni rahbariyati an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy texnologiyalarni uyg'unlashtirgan, milliy identiklikni saqlagan holda global integratsiyaga qaratilgan, islom tamoyillariga asoslangan, iqtisodiy modernizatsiyani o'z ichiga olgan "Saudiya rivojlanish modeli"ni ilgari surmoqda. Bu model orqali mamlakat rahbariyati XXI asr talablariga javob beradigan yangi milliy identiklikni shakllantirishga intilib, yoshlarda milliy g'ururni kuchaytirish, fan va san'at sohasidagi yutuqlarni targ'ib qilish, ommaviy axborot vositalarida mamlakatning ijobiy imijini yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Shu bilan birga musulmonchilikka, an'anaviy axloqqa zid bo'lgan G'arb qadriyatlari Podshohlikda tarqalishini cheklashga sa'y-harakat qilmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Hitman G. Saudi Arabia's Wahhabism and Nationalism: The Evolution of Wataniyya into Qawmiyya // Digest of Middle East Studies. Vol. 27. No. 1. P. 81.
 2. Brubaker R. Nationalism Reframed: Nationhood and the National Question in the New Europe. Cambridge University Press, 1996. P. 65.
 3. Ближний Восток: Политика и идентичность. Коллективная монография / Под ред. И.Д.Звягельской / ИМЭМО РАН. –М.: Издательство «Аспект Пресс», 2020. С. 71
 4. Орлов В.В. Самоотождествление в арабском мире: этническое, конфессиональное, национальное // Нации и национализм на мусульманском Востоке / Отв. ред. В.Белокреницкий, Н.Ульченко. -М.: ИВ РАН, 2015. С. 138.
شاهر الغياليين، دينا شقير. معوقات التحول الديمقراطي في الدول العربية // مجلة آفاق للأبحاث السياسية والقانونية، العدد 3، عام 2020، ص 417-396
<https://www.asjp.cerist.dz/en/article/163044>
- الجابري محمد عابد "مسألة الهوية: العروبة والإسلام... والغرب". بيروت: مركز دراسات الوحدة العربية. 1995م
<https://ecss.com.eg/11052> جمال عبدالجواد. نهاية العالم العربي // مركز المصري للفكر والدراسات الاستراتيجية، القاهرة، 24.09.2023، عام،
الجابري محمد عابد "مسألة الهوية: العروبة والإسلام... والغرب". بيروت: مركز دراسات الوحدة العربية. 1995م
بلحبيب رشيد «الهويات اللغوية في المغرب: من التعايش إلى التصادم». في: مجموعة مؤلفين "اللغة والهوية في الوطن العربي: إشكاليات تاريخية وثقافية وسياسية". الدوحة؛ بيروت: المركز العربي للأبحاث ودراسة السياسات، 2013م. ص 247
فرحاتي عمر. معوقات التحول الديمقراطي في الدول العربية // مجل العلوم الانسانية لجامعة بسكرة في الجزائر، عدد 29، ص 144-137
<https://www.asjp.cerist.dz/en/article/3766>
إيمان أحمد. قراءات نظرية: الديمقراطية والتحول الديمقراطي // المعهد المصري للدراسات، 28.02.2016م، ص 6-5
أنصاف محمد. حروب الربيع العربي: نسخة موسعة ومعدلة من حرب حزيران // "مداد" – مركز دمشق للأبحاث والدراسات. 20.02.2017، عام،
<http://www.dcrs.sy/search/node/%3A%20%20%20>



УДК 950(575)

Sherzod SATTOROV,
TerDU Arxeologiya kafedrası tayanch doktoranti
E-mail sherzodsattorov03121993@gmail.com.

TerDU o'qituvchisi, PhD. I.Qarshiyev taqrizi asosida

ELENA EFIMOVNA KUZMINANING TADQIQOTLARIDA ARIYLARNING O'RGANILISH MASALASI

Аннотация

Ushbu maqolada, ilm-fan jadal rivojlanib borayotgan bir davrda ba'zi masalar borki ular o'z yechimini hali hanuz topmagan. Olimlarning qizg'in muhokamalariga sababchi bo'layotgan shunday masalalardan biri bu Ariylar masalasidir. Bilamizki, bu masala qalqib chiqqanigaham tahminan 200 yil bo'lganiga qaramay Olimlar bir to'xtamga kelishmagan. Bu masalani yechishda keng ko'lamli tadqiqotlar va o'ziga xos innovatsion uslublar talab etiladi. Bu maqolada Ariylar masalasini o'rganishda arxeologik, lingvistik va mifologik manbalarni qiyosiy tahlil qilish metodi haqida gap boradi. Maqola to'liq xorijiy adabiyotlarga suyangan holda tarjimaga asoslanadi.

Kalit so'zlar: Ariy, Hind-eroniy, Hind-ariy, lingvistik, mifologik, toponimlar, gidronim, jug'rofiy, dasa, asuro, dara, mara.

ИССЛЕДОВАНИЯ ЕЛЕНА ЕФИМОВНЫ КУЗЬМИНОЙ И ПРОБЛЕМА ОБРАЗОВАНИЯ ЧУЖИХ

Аннотация

В данной статье, в то время, когда наука стремительно развивается, рассматриваются некоторые вопросы, которые пока не нашли своего решения. Одним из таких вопросов, вызывающим бурные дискуссии среди ученых, является вопрос об арийцах. Мы знаем, что, несмотря на то, что этот вопрос поднимается уже почти 200 лет, учёные так и не пришли к единому мнению. Решение этой проблемы требует обширных исследований и уникальных инновационных методов. В данной статье говорится о методе сравнительного анализа археологических, лингвистических и мифологических источников при изучении арийского вопроса. Статья основана на переводе, полностью основанном на зарубежной литературе.

Ключевые слова: Арийский, индоиранский, индоарийский, лингвистический, мифологический, топонимы, гидроним, географический, dasa, asura, dara, mara.

ELENA EFIMOVNA KUZMINA'S RESEARCH AND THE PROBLEM OF EDUCATIONAL ALIENS

Annotation

In this article, at a time when science is rapidly developing, there are some issues that have not yet found their solution. One of such issues, which is the cause of heated discussions among scientists, is the issue of the Aryans. We know that despite the fact that this issue has been raised for almost 200 years, scientists have not come to a consensus. Solving this problem requires extensive research and unique innovative methods. This article talks about the method of comparative analysis of archaeological, linguistic and mythological sources in the study of the Aryan issue. The article is based on a translation based entirely on foreign literature.

Key words: Aryan, Indo-Iranian, Indo-Aryan, linguistic, mythological, toponyms, hydronym, geographical, dasa, asura, dara, mara.

Kirish. Tarixda va Arxeologiyada eng dolzarb bo'lgan masalalardan bir bu albatta Ariylar masalasidir. Bu masalani yechishda turli xil yondashuvlar asoslangan metodlardan foydalanish mumkin. Qadimgi dunyoda xalqlarning moddiy madaniyatlarini va ijtimoiy aloqalarini o'rganish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Turli xalqlar o'rtasidagi aloqalarni o'rganish nafaqat qadimgi davrlardagi madaniy aloqalarni rekonstruksiya qilishga, balki o'zaro bog'liq bo'lgan etnik guruhlarning asl vatanini aniqlash uchun ham fundamental ahamiyatga ega. Demak, Ariylarning asl vatanini aniqlashda uslubiy jihatdan uch guruh manbalarini qiyosiy tahlil qilish zarur, bular: arxeologik, lingvistik va mifologik.

Asosiy qism. Lingvistik jihatga misol qilib N. Anderson Fin-ugr tillarini Hind-yevropa tillar bilan aloqasini ko'rsatib bergan bo'lsa, B. Munkachi Hind-eroniy tillar masalasini ko'targan. XVIII-XIX -asrlardan boshlab Fin-Ugr tillari va hind-eroniy tillar o'rtasidagi bog'liklarga aloqador lingvistik ma'lumotlar K. Redei, E.Korenchi, A.Yoki tomonidan tizimlashtirilgan va A. Scillagy, Y.Koivulechto tomonidan to'ldirilgan. T.Barrou, V.I.Abaev va Y.Xarmatta

tomonidan tilshunoslik materiallari xronologik jihatdan tizimlashtirilishi fanga muhim hissa qo'shgan bo'lib, ariylarni boshqa xalqlar bilan aloqalari qadimgi davrlarga borib taqalashini ko'rsatadi, buni A.Parpolaham tasdiqlaydi.

Bu mavzuda o'z davrining yetuk tarixchilari, arxeologlar, etnograflar, lingvistlar va boshqa olimlar tomonidan ko'plab izlanishlar olib borilgan. 200 yillardan ortiq olib borilgan tadqiqotlar, izlanishlar va qazishmalarga qaramay bu masala o'z yechimini topmagan. Bu maqolada Sovet va Rossiya Federatsiyasi arxeologi va madaniyatshunos olimasi, qadimgi tarixda dasht migratsiyalari va hind-ariylar muammosi mutaxassisi Elena Efimovna Kuzminaning Ariylar masalasiga oid ba'zi tadqiqotlari hamda xulosalari bilan tanishamiz. Ariylar masalasiga oid bir qancha qarashlar mavjud bo'lib, eng avvalo Ariylar masalasini tashkil etuvchi ya'ni Ariylarning etnogenezi, ularning lokalizatsiyasi va Ariy qabilalarining tarqalish yo'llari hamda muddatlari "Ariylar masalasi" deb atalmish muammoning negizi hisoblanadi.

Ariylar masalasini 4 qismga bo'lib olish mumkin.



Sanskritcha “Arya” soʻzi dastlab etnik-madaniy atama boʻlib, vedik Sanskrit tilida soʻzlashuvchi va vedik madaniy meʼyorlariga (shu jumladan, diniy marosimlarga va diniy matnlarga) rioya qiladigan, yoki “an-arya”(ariy boʻlmagan) dan farqlash uchun ifodalangan. “Avesto”da “arya” atamasi “an-arya” dan oʻlaroq, qadimgi eroniy xalqlar tomonidan oʻzini-oʻzi etnik-madaniy belgilash sifatida ishlatilgan. Unda “Ariy” etnikiga mansub tilda soʻzlashuvchi va “Ariylar” diniga ergashuvchilarga nisbatdan ishlatilgan deb hisoblanadi.. “Arya” yoki “Aryo” bu ikki atama rekonstruksiya qilingan proto-hind-eroniy ildizdan olingan hamda qadimgi dunyoda hind-eroniy xalqlar tomonidan oʻzlarini etnik-madaniy guruh sifatida belgilash uchun ishlatilgan boʻlishi mumkin. Biroq,

“Arya” yoki “Aryan” atamasi hali-hanuz olimlar oʻrtasida bahslarga sabab boʻladi. Baʼzilar bu atamani ijtimoiy status bilan bogʻlashsa, boshqalar bu diniy lingvistik birxillik ekanligini takidlashadi. Uchinchi tomon bu atamani etnik madaniy tilga aloqador deb hisoblashadi. Boshqa fikrlarga koʻra boshida Ariylar “Indra” ga sigʻingan, boy-badavlat kichik ijtimoiy guruhga aloqador boʻlgan va keyinchalik bu nom kattaroq hududda yashagan katta jamiyatga koʻchgan. Xulosa qilib aytish mumkinki, boshlangʻich satsionim kechki etnonimga aylangan. Haqiqatdan ham koʻrib chiqilayotgan atama koʻp maʼnoli va uzoq muddat davomida oʻzgarib kelgan. Demak, Ariylar atamasiga aloqador boʻlgan olimlar taxminlarini quyidagicha koʻrish mumkin:



Tahlil va natijalar. Ariylarga oid esatmalarga yuzlansak, Qadimgi dunyoda taxminan mil.avv. II ming yilliklar oʻrtalarida oʻxshashi boʻlmagan ikki yirik jamoa shakllanadi, bular: gʻarbda Dneprdan Uralgacha boʻlgan hududlarda Srubna madaniyati, Sharqda Uraldan Yeniseygacha esa Andronova madaniyatlarini. Shu vaqtda Old Osiyoda Hind-eroniy haqida eslatmalar uchraydi. Masalan, Mitani podshohi Kurtivaza Xettlar podshohi Supillulium bilan kelishuvga erishganida ular hind-eroniy xudolari Indra, Varuna va Nasatya nomlari bilan qasamyod qilishadi va hind-eroniy ismlarini olishni boshlashadi. Qoʻshimcha qilgan holda Hind-eroniy ismlarini Nuzi va Alalaxning hujjatlarida paydo boʻlganini koʻrishimiz mumkin, Hind-eroniyning otchilik terminologiyasiga kelsak, Mittaniyalik Kikkulining va Xettlarning ot-arava jabduqlari uchun otlarni shugʻullantirish risolalarida uchratish mumkin.

Ariylarning protoyurti lokalizatsiya hamda migratsiya masalasiga kelsak, bu masala aytib oʻtganimizdek, Ariylar muammosining negizini tashkil etib, koʻp olimlar turli gipotezalarni oldinga surishgan. XX asrda Ariylar masalasiga doir olimlar tomonidan oldinga surilgan fikrlarga nazar tashlasak. Masalan, A.A.Kammenhuber va M.Mayrxoferlar Ariylarning Mitanga kelishi taxminan mil.avv. II ming yilliklardan oldinroq sodir boʻlgan deb taʼkidlashadi (aniqrogʻi mil.avv. XVI asr oʻrtalarida). Yaʼni, ularning fikricha ular bu vaqtgacha boʻlinib boʻlishgan edi. Hozirda P.Time, M.Mayxofer, V.V.Ivanovlarning fikrlari alohida diqqat markazida boʻlib, ular Old Osiyo Ariylarini maxsus ariylar lahjasini tashuvchilar deb taʼkidlashgan hamda Old Osiyo Ariylari uzoq vaqt davomida hind-ariylarning qaysi boʻgʻiniga tegishli ekanliklari muhokamada boʻlgan.

Bu faktlardan kelib chiqib aytish mumkinki, birinchidan, mil.avv. II ming yilliklarda ariylar nafaqat boshqa hind-yevropaliklardan ajralib boʻlishgandi, balkim oʻziga xos alohida til lahjasini tashuvchilari boʻlishgan. Ikkinchidan,

Ariylarning madaniyatida otchilik va ot-aravalar juda muhim boʻlgan. Ariylarning oʻzlarining protoyurtlari bilan aloqalari mil.avv. XVII – XV asrlarda saqlanib qolgan, chunki qadimgi dunyoda ot-aravalarining paydo boʻlishi, otchilikning yuqori darajada rivojlanganligi va ot-aravalarining tarqalish hududlari ariylar bilan bogʻlanadi.

Hind-ariylar lahjasini Hind-yevropa va proto-eroniy atamalarini 3 madaniy yoʻnalish - ishlab chiqaruvchi xoʻjalik, ijtimoiy aloqalar va diniy qarashlarga asosan qiyoslash lozim.

Ishlab chiqaruvchi xoʻjalik bilan bogʻliq boʻlgan soʻzlari: 1) uy hayvonlari (echki, qoʻchqor, tuya, aygʻir, toʻngʻiz, buzoq) nomlari; 2) chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlashga oid atamalar (teri, jun, gazlama, arqon); 3) qishloq xoʻjaligi atamaları (don, ayvon, oʻroq); 3) asboblarni nomlari (bolgʻa yoki toʻr), ehtimol zinapoya (yoki koʻprik) soʻzlari.

Ijtimoiy munosabatlar, oila va shaxsiy munosabatlar keng koʻlamdagi atamalarini (odam, opa-singil, ism va h. k.) va muhim boʻlgan hind-ariy atamalarini: dasa (ariy boʻlmagan, begona, qul) va asura (xudo, boy, xoʻjayin, qahramon va h.k.) oʻz ichiga oladi. Undan tashqari ayirboshlash munosabatlari oʻrnatilishi “narx” soʻzi va raqamlarni ham oʻz ichiga oladi. Va nihoyat, toʻplangan leksik atamalar muhim qism boʻlgan diniy qarashlar va amaliyotlarni aks ettiradi.

Ariylarni asl vatanini lokalizatsiya qilishda Hind-ariy lahjasida uchraydigan jugʻrofiy nomlargaham alohida etibor beriladi. Qadimgi hind-ariylar yashagan hududlar dasht va tekisliklarda boʻlgan deb eʼtirof etiladi. Bunga sabab qilib hind-eroniy tillarida hind-yevropa tilida keng tarqalgan “qaragʻay daraxti” va “botqoqlik” soʻzlarining yoʻqligi bilan izohlanadi.

V.Miller Shimoliy Qoradengiz mintaqasidagi bir qator jugʻrofiy nomlarning Hind-eroniy etimologiyasini aniqlagan, keyinchalik V.I.Abaev tomonidan toʻldirilgan. Dnepr, Desna, Seym, shimoliy Donets va Poltava boʻylab Dnepr mintaqasida juda koʻp Hind-eroniy gidronimlari aniqlangan.

O.N.Trubachev va L. A.Lelekov tomonidan Shimoliy Qora dengiz mintaqasining bir qator toponimlarining hind-eroniy lahjasida o'qilishi ta'kidlangan.

S.S.Berezanskaya arxeologik xaritada Hind-eroniy gidronimlarini Dnepning yuqori va o'rta mintaqasi qo'shib, skif madaniyati chegaralariga to'g'ri kelmasligini ko'rsatadi va bu bilan Srubna madaniyati hududi bilan to'liq birlashtiradi hamda u Srubniklarning proto-eroniy ekanligini ta'kidlagan. Hind-eroniy toponimiyasi Volga va Uralda ham aniqlangan. Ushbu hududning gidronimlari orasida tadqiqotchilar hind-ariy lahjasi (sanskrit tilidan mara - dengiz) deb hisoblaydigan "mara" (Samara, Sakmara va boshqalar) bilan tugaydigan nomlarning katta guruhi ajralib turadi. N.L.Chlenova toponimlar xaritalarini tuzdi va Hind-ariy toponimlari Srubna va Andronovo madaniyati hududlarida keng tarqalganligini ko'rsatdi. Ushbu ma'lumotlar Fedorov majmuasini yaratuvchilarning madaniy va etnik atributlari muammosini yakuniy hal qilish uchun juda muhimdir. G. Morgensternning ta'kidlashicha, Pomir hududlari va Hindi Kush jug'rofiy nomlarini tahlil qilinishi, so'nggi yillarda Andronovo-Fedorovo qabristonlari va petrogliflar, jumladan, ba'zan tog' dovonlaridagi aravalari tasvirlari topilganligi, ehtimol hind-ariylarning janubga harakat yo'nalishini anglatishi mumkin. Bu yerda Hind-ariylar lahjasi o'rganilgan va qadimgi toponimikaning katta qismlari ochilgan. Yana bir lingvistik dalilga misol qilib Pomir va Tyanshan tog'laridan Novosibirsk viloyatining janubigacha, u yerdan Mo'g'uliston chegarasigacha bo'lgan hududda hamda Afg'oniston va

Pokistonda jug'rofiy nom bo'lgan hind-ariy atamasi "dara" – daryo keng tarqalgan.

Xulosa va takliflar. Ariylarning boshqa xalqlar bilan aloqalarini o'rganish va ularning vatanini lokalizatsiya qilish uchun yana bir muhim manba bu xalqlar mifologiyasidir. Ya'ni, qadimgi xalqlar umumiy xususiyatlarini o'rganish va qiyoslash lozimdir. Bu borada B. Munkachi, K. Karyalaynen va A. Kannistolarning ishlarini, shuningdek Vengriya, Finlyandiya va Rossiya olib borilgan ishlarni alohida ta'kidlash mumkin. Qo'shimcha sifatida aytish mumkinki, G.M.Bongard-Levin, E.A.Grantovskiy va V.N.Toporov asarlari juda katta qiziqish uyg'otadi. G.M.Bongard-Levin, E.A.Grantovskiy Eron hamda Hindiston afsonalarini izchil o'rgangan holda ta'kidalashdiki, Ariylarning afsonaviy vatani shimolda bo'lganligini qadimgi Eroniy xalqlar qarindosh ekanligini Avestoda o'z aksini topadi, binobarin, afsonaga ko'ra Ariylarning asoschisi hukmronligi ostidagi yerlarni 3 o'g'liga bo'lib beradi, ya'ni: Dunaydan Uralgacha Savromatlar ajdodi Sayrim, Markaziy Osiyo shimolini Turonliklar ajdodi bo'lmish Turoyga va Iradjemga Eron hududlarini.

Xulosa qilib aytish mumkinki, qadimgi xalqlarni madaniy aloqalarini hamda ularning jug'rofiy joylashuvlarini nafaqat Arxeologik manbalar asosida balkim lingvistik va mifologik jihatdan ham ko'rib chiqish lozim. Albatta to'plangan arxeologik, lingvistik va mifologik materiallarni qiyoslagan holda ko'p savollarga yechim topish mumkin. Shu masalalardan biri Ariylar masalasidir va bu masalaham o'z yechimini topsa ajabmas.

ADABIYOTLAR

1. Кузьмина Е.Е. "Откуда пришли индоарии?" Москва 1994
2. «Permjakisches Wörterverzeichnis aus dem Jahre 1833 auf Grund Aufzeichnungen F.A. Wolegows». Budapest, 1968.
3. Korenchy E. Iranische Lehnwörter in den Obugrischen Sprachen. Budapest, 1972.
4. Csillagy, 1974. — Csillagy A. I prestiti iranici nella lingue ugrofenniche e il problemadell appartenza uralo-altaica.
5. Koivulehto J. Zu den fruhen Kontakten zwischen Indogermanisch und Finnisch-Ugrisch. — Linguistische Studien. B., 1987, A 161/11.
6. Кадилова, Х. Б. Миллий идентикликни таназзулига мультимаданий таъсир муаммолари. Учёный XXI века, 82.
7. Xolmirzaev, X. D. (2022). Kadirova Ya. B., Kadirova XB Madaniyatshunoslik. T.: TDPU.–B.–46.-138.-147. Ziyonet. uz.
8. Кадилова, Х. Б. (2016). ОСОБЕННОСТИ СОЦИАЛЬНЫХ ИНСТИТУТОВ. Молодежь в науке и культуре XXI в.: материалы междунар. науч. 59.
9. Кадилова, Х. Б. (2015). ОСОБЕННОСТИ НАЦИОНАЛЬНЫХ СЕМЕЙ. ФЭН-наука, (10), 11-12.
10. Kadirova, X. B. (2024). Sotsiomadaniy qadriyatlar transformatsiyasida milliy identiklik va o'zlikni anglashning ahamiyati. Academic research in educational sciences, (3), 788-794.



Bobirjon SAFAROV,
Qarshi conch sement zavodi xitoy tili tarjimoni
E-mail: bobursafarov1994@mail.ru

A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti Ilmiy kengash kotibi, PhD I. Xurramov taqrizi asosida

XITOIY INVESTITSIYASINING O‘ZBEKISTONGA TA‘SIRI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

Annotatsiya

Ushbu maqolada Xitoy investitsiyasining O‘zbekistonga qanday ta‘sir ko‘rsatayotganligi uning foydali va muammoli jihatlari Qashqadaryo viloyati misolida yoritilgan. Maqolada bir qator faktlar, ilmiy maqolalar asosida Xitoy investitsiyasining yurtimiz yuksalishiga qo‘shayotgan hissasi shuning bilan birgalikda muammolar ham yoritishga harakat qilinilgan.

Kalit so‘zlar: Qashqadaryodagi Xitoy investitsiyasi, investitsiya ta‘siri, investitsiyaning ekologiyaga ta‘siri, xitoy tili tarqalishi, xitoyliklarning viloyatlardagi ta‘siri.

ВЛИЯНИЕ КИТАЙСКИХ ИНВЕСТИЦИЙ НА УЗБЕКИСТАН (В СЛУЧАЕ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ)

Аннотация

В данной статье на примере Кашкадарьинской области рассматривается влияние китайских инвестиций на Узбекистан, его полезные и проблемные аспекты. В статье на основе ряда фактов и научных статей попытались осветить вклад китайских инвестиций в развитие нашей страны, а также проблемы.

Ключевые слова: китайские инвестиции в Кашкадарье, влияние инвестиций, влияние инвестиций на экологию, распространение китайского языка, влияние китайского языка в регионах.

IMPACT OF CHINESE INVESTMENT ON UZBEKISTAN (IN THE CASE OF KASHKADARYA REGION)

Annotation

In this article, the effect of Chinese investment on Uzbekistan, its useful and problematic aspects is covered by the example of Kashkadarya region. In the article, based on a number of facts and scientific articles, the contribution of Chinese investment to the development of our country, as well as problems, is tried to be highlighted.

Key words: Chinese investment in Kashkadarya, impact of investment, impact of investment on ecology, spread of Chinese language, influence of Chinese in the regions.

Kirish. O‘zbekistonning qulay geografik joylashuvi va mamlakat hududidan muhim savdo yo‘llari o‘tganligi doimo qudratli davlatlar nazaridan chetda qolmagan. O‘zbekiston va Xitoy munosabatlari ming yillik davr sinovlaridan o‘tgan bo‘lib goh yaxshi qo‘shnichilik goh dushmanlik ruhida munosabatlar olib borilgan. 1991-yil iyunda O‘zbekistonning ilk rasmiy delegatsiyasi rasmiy tashrif bilan Xitoyning Urumchi shahrida bo‘lib, ikki davlat o‘rtasida savdo va turistik aloqalar boshlandi. XXR O‘zbekiston mustaqilligini 1991-yilni o‘zida tan olgan bo‘lsa 1992-yildan diplomatik munosabatlar o‘rnatilganidan so‘ng ikki davlat teng huquqli sheriklar ro‘lida bir qator loyihalarni amalga oshirdilar. Xitoylik olim Chjao Changqing “Markaziy Osiyo bir kamar bir yo‘l” dasturi doirasida rivojlanishi uchun barcha sharoitlar mavjud” nomli maqolasida shuni ta‘kidlaydiki:

Markaziy Osiyoning 5 respublikasi umumiy 4 million kvadrat km yetishi, umumiy aholisi 72 million nafarga yetganligi hudud ulkan tabiiy boyliklarga egaligini alohida ta‘kidlab o‘tadi. Lekin bu mamlakatlarda texnika va infratuzilmalarda yetarlicha kamchiliklar borligi va bu muammolarni yechish uchun sanoatni qayta modernizatsiya qilish lozimligi, buning uchun esa bu mamlakatlarda yetarlicha mablag‘ va texnika mavjud emasligini ham eslatib o‘tadi. Xitoy Xalq Respublikasi ilgari surayotgan “Bir kamar bir yo‘l” dasturi bu muammolarning yechimining eng maqbul yo‘li ekanligini ushbu maqolada isbotlashga urinilgan[1]. O‘zbekiston Respublikasi birinchi hukumat davrida ham bu loyihaga qiziqish bildirilgan. 2013-yil 9-sentabrda Prezident I.A.Karimov va XXR Raisi Si Tszin Pin o‘rtasidagi uchrashuv jarayonida 2 mamlakat o‘rtasida savdo, kommunikatsiya, transport infrotuzilmasi va ma‘daniy aloqalarni rivojlantirish

bo‘yicha kelishuvlar imzolangan. Hozirda esa mamlakatlar o‘rtasidagi aloqa yangi davrga kirib XXR ning Markaziy Osiyo ayniqsa O‘zbekiston bilan munosabatlari jadal rivojlanmoqda.

- **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekiston-Xitoy: ming yillar bardavom do‘stlik va hamkorlik” sarlavhali maqolalarida ta‘kidlaganlaridek 2023-yil oxirigacha ikki davlat o‘rtasidagi tovar ayirboshlash 40 foiz, Xitoy investitsiyasi 5 barobar, iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan korxonalar esa 3 barobarga yetganligi haqida alohida urg‘u berilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Guandun provensiyasi kotibi Xuan Kunmin bilan birgalikda Shenchen shahrida o‘tkazilgan qo‘shma investitsiya forumida ishtirok etishdi. Unda ta‘kidlanganidek, 2023-yilda Xitoy investitsiyasi O‘zbekistonga rekord darajada investitsiya kiritib 14 mlrd dollarga yetkazilgan. O‘zbekiston yana 20 mlrd dollar mablag‘ni o‘zlashtira olishlari va bu maqsadlarni amalga oshirishlari yo‘lida xitoylik investorlarga yordam berish uchun maxsus “Yo‘l xaritalari” yaratilishi haqida aytib o‘tiladi. Rossiyalik tadqiqotchi Aleksandr Ragojinning tadqiqotlariga ko‘ra XXRning O‘zbekistonga kiritayotgan to‘g‘ridan - to‘g‘ri sarmoyasi unchalik katta nisbatni tashkil etmasligi, balki xitoylik xususiy investorlarning ulushi talay qismni tashkil etishi haqida maqolasida keltirib o‘tadi.

Xususiy sektor investorlari esa O‘zbekistonning neft-gaz, kimyo, to‘qimachilik, elektroenergiya, sement, ko‘mir sanoati va qishloq xo‘jaligi kabi sohalarga qiziqish bildirayotganligi aniqlandi. Bu tadqiqodchi O‘zbekiston hukumati Xitoy kompaniyalari uchun alohida sharoit

yaratilgani fonida Xitoy sarmoyasi Turkiya, Germaniya, Janubiy Koreya va Saudiya Arabistoni kabi davlatlarni ortda qoldirayotganini ham ta'kidlab o'tmoqda. Lekin bu fikrlarning ba'zilarini yoqlash noto'g'ri deb bilaman bunda tadqiqotchi o'z tadqiqotlarini Rossiya nuqtayi nazaridan yoritganligi va fikrlar noholisligi maqolaga nisbatan ishonchsizlik kayfiyatini uyg'otadi. Xitoy investorlarining sarmoya oqimi viloyatlar kesimida turlicha taqsimlangan. Jumladan, Xitoyning Qashqadaryoga kiritayotgan asosiy sarmoyasi sement, neft-gaz, qishloq xo'jaligi va qayta tiklanuvchi energiyaga nisbatan qiziqishi yuqori. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Qarshi shahrida o'tkazgan yig'ilishda viloyatda o'rganilgan muammolar va yechimlar to'g'risida bir qator fikrlarni olg'a surdilar, jumladan viloyat mutasaddilari 1 mlrd dollar investitiya jalb etishlari buning uchun viloyatga yetarlicha imkoniyat borligi ta'kidlab o'tildi. Qarshi, Dehqonobod va Kitob tumanlarida sanoat zonalarida ishlatilmayotgan 100 lab korxonalarini chet ellik sarmoyadorlar va mahalliy tadbirkorlarga berish orqali 300 mln dollar sarmoya olib kirish va 3,5 tagacha ishchi o'rinlari yaratish majburiyati topshirildi. Qozon shahrida imzolangan 337 million dollarlik 21 loyiha va O'zbekiston - Xitoy forumida imzolangan 20 loyihani yetkazish vazifasi Qashqadaryo mutasaddilariga yuklangan[2]. O'zbekiston hozirda aholini kambag'allikdan chiqarishning Xitoy tajribasini o'rganib har bir viloyatga bittadan tumanda kambag'allikdan chiqarish dasturi amalga oshirish ishlari boshlab yuborilgan. XXR Jiansu provensiyasi gubernatori boshchiligidagi "O'zbekiston-Xitoy" biznes forumi o'tkazilishi va bunda 2 davlatdan 50 dan ziyod ishbilarmon doira vakillari o'rtasida hamkorlik shartnomalarining imzolaniishi O'zbekiston - Xitoy munosabatlari nafaqat davlat balki viloyatlar darajasida ham keng rivojlanayotganligi yurtimizda Xitoy sarmoyasi roli qanchalik kuchli ekanligi ko'zga tashlanadi.

- Tahlil va natijalar. Hozirgi paytda dunyoda globallashuv davrida Markaziy Osiyo davlatlarini o'z ta'sirida ushlab turishni istagan kuchlar mavjud bo'lib, bular AQSH va Rossiya hisoblanadi. Bunday vaziyatda Markaziy Osiyo davlatlari bunday xavfni oldini olish uchun Xitoy sarmoyasini olishga harakat qiladilar. AQShning Markaziy Osiyodan uzoqligi Rossiyaning Ukraina bilan olib borayotgan urushi va Xitoyga nisbatan iqtisodiy orqada ekanligi O'zbekistonda va Qo'shni respublikalarda Xitoy sarmoyasining monopolistik hukmronligi o'rnatilib borilmoqda. Buning o'ziga yarasha xavfli tomonlari mavjud, zotan, bir mamalakatda bir davlatning iqtisodiy ustunligi uning kelajagiga tahdid solmasdan qolmaydi. Lekin hozirda O'zbekistonda aholi sonining Keskin oshib borishi va resurslarning cheklanganligi iqtisodiyotni rivojlantirishni talab qiladi. Bu vaziyatdan chiqish va aholi turmush tarzini yaxshilash shu jumladan keskin o'sib boruvchi ishsizlik hamda davlatga to'lanadigan soliq tushumlarini yaxshilash uchun O'zbekiston hukumati chet el sarmoyasi va tadbirkorlarini har jihatdan qo'llab quvvatlamog'ida. So'nggi yillarda O'zbekiston hukumati to'g'ridan to'g'ri investitsiyani jalb qilish salmog'ini oshirish uchun investorlarga keng sharoit va huquqiy yordamlar ko'rsatib kelmoqda.

Viloyat va tumanlarda erkin iqtisodiy zonalar yaratilib ularga keng imtiyozlar qo'llanilib kelmoqda. Katta davlat ob'ektlari esa arzon narxda ba'zan esa 1 so'm qiymatda xususiyashtirilmoqda. Tadqiqotchilar 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida O'zbekistonga kiritilgan jami sarmoyaning 24.5 foizi aynan Xitoy sarmoyasi ekanligini hisoblab chiqishdi va bu boshqa davlatlar bilan taqqoslaganda ancha baland raqamlar[3]. Shu O'rinda savol tug'iladi: Nega xitoylik investorlar aynan O'zbekistonni sarmoya kiritish uchun eng maqbul hududlardan biri sifatida ko'rishmoqda? Bunga O'zbekistonning qolgan respublikalarga qaraganda aholi sonining anchayin salmoqli ekanligi va ishlab chiqaruvchi o'z

mahsuloti uchun bozor qidirib yurish tashvishidan xalos etadi. O'zbekiston xavfsiz mamlakat bo'lib uni qo'shni Afg'onistonga yaqinligi ishlab chiqarilgan mahsulotni bu davlatga eksport qilish uchun sharoit yaratilganligini eslatib o'tish joiz. Qashqadaryo viloyati kitob tumanida joylashgan birgina Qarshi Conch sement zavodi yiliga 1.2 million tonna sement ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lib ishlab chiqarilgan mahsulotning 70 % ichki bozor uchun qolgan 30 % mahsulot Qozog'iston, Qirg'iziston va Afg'oniston davlatlariga eksport qilmoqda. Zavod mahalliy homashyolardan foydalanadi. Loyihaning umumiy qiymati 150 million dollardan ortiq bo'lib, Xitoy davlati tomonidan moliyalashtirilgan 400 dan ortiq yangi ish o'rinlari yaratilgan[4]. Xitoy sement zavodi 2023-yildan boshlab o'z mahsulotini Afg'onistonga eksport qilishni boshladi. Bu esa qo'shni davlatga mahsulotni O'zbekiston brendi ostida yetkazib bermoqda, bu esa davlatimiz brendini chet elda nom qozonishiga sabab bo'ladi. Xitoyliklar mamlakatimiz hududining havf-xatarlardan holi ekanligini va bu yerdan turib o'z mahsulotlari chet elga eksport qilishga imkon borligini alohida ta'kidlab o'tishmoqda. Ularning fikrlarini o'rganish uchun bir qator satsial eksprementlar ham o'tkazilgan. Aynan shu yil xitoyliklarning mashhur Wechat (muloqot platformasi) va WenJuan.com saytlarida so'rovnomaga o'tkazildi va unda 50 yaqin xitoylik tadbirkor qatnashdi: bunda asosiy masala xitoylik sarmoyadorlar nega aynan O'zbekistonni afzal ko'rishmoqda va quyidagilar sabab qilib ko'rsatildi: tabiiy boyliklar, siyosiy barqarorlik, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va o'z novbatida Xitoyning O'zbekistonga geografik yaqinligi sarmoyadorlarning yanada ko'payish oqimini shakllantirmoqda. Bu so'rovnomada qatnashganlarning 30 foizga yaqini yurtimizga kelishga asosiy sabablardan tabiiy resurslar va arzon ishchi kuchiligini ta'kidlab o'tishmoqda[5].

Investitsiyalarning tarmoqlar bo'yicha taqsimlaydigan bo'lsak, ishlab chiqarish 36 %, qurilish 51 %, AKT 21 %, turizm 17 %, energitika va tog' kon 17 % tashkil etmoqda. Investorlarning talay qismi esa o'z mablag'larini bir tarmoqqa emas balki 2 yoki 3 sohaga yo'naltirmoqdalar bunga sabab esa ehtiyotkorlikdir. Qashqadaryo keng tabiiy resurslar va boshqa viloyatlarga nisbatan arzon ishchi kuchi sabab xitoylik investorlarning qiziqishiga sabab bo'lmoqda bu viloyat Toshkent yoki Samarqand kabi iqtisodiy rivojlangan va turistlar salmog' yetarli bo'lmagani uchun xitoylik investorlar sarmoyalarini xizmat ko'rsatish tarmoqlariga emas balki ishlab chiqarish tarmoqlariga kiritishni afzal deb bilishadi. Lekin bu muammoli masalani viloyat mutasaddilari chuqur his qilgan holda hozirda turizm infrotuzilmalarini rivojlantirish uchun Qashqadaryoning Miraki va Kitob tumanlarida istiqbolli rejalarni amalga oshirish ushlarini boshlangan. Investorlarning 42 foizi sarmoyadorlarning huquqlari himoyalanganidan qoniqishlari yuqori bo'lsa, 24 % vektorlar bu masalada neytral 34 % esa o'z noroziligini yashirishmagan. Masalaning qiziq tomonlar xitoylik investorlarning 28 % O'zbekistonda doimiy istiqomat qiladi, 66 % biznesini chet eldan turib boshqarsa, 6 % esa O'zbekistonga umuman tashrif buyurmagan. Xitoyning texnika sohasidagi yutuqlari va ularning yetkazib berishdagi yengilliklar mahalliy sarmoyadorlarning ular bilan hamkorligiga qiziqishni kuchaytirmoqda. Hozirda yurtimiz ayniqe viloyatlarda yangidan yangi biznes turlariga imkoniyat borligi mahalliy tadbirkorlarning ularni yuritishga, ishga tushirishga imkoniyat va bilimlarining yetishmasligi ularning chet elliklar, xususan, xitoyliklar bilan aloqalarini kuchaytirmoqda. Chet ellik tadbirkorlar mahalliy sarmoyadorlar kapitali va banklardan olingan kreditlar o'z bizneslari uchun kafolat o'rnida ko'rmoqdalar. Lekin sarmoyadorlar uchun muammolar ham mavjud:

Birinchidan, rivojlanmagan infratuzilma muhim muammo sanaladi. Bir qancha investorlar o'rtasidagi

so'rovnomada qatnashganlarning 54 % qismi mavjud infratuzima yetarli emasligi asosan: transport, energiya, internet yetarli darajada emasligini ta'kidlashgan. Shu o'rinda shuni eslatish o'rinli O'zbekiston 2023-yil internet tezligi bo'yicha 90 o'rinni egallagan.

Ikkinchidan, xitoyliklarning mahalliy sharoitlarga, til, madaniy va mentalitetga moslashishdagi qiyinchiliklar 46 % foiz xitoyliklarni chetdan turib o'z bizneslarini boshqarishga undamoqda.

Toshkent va Samarqanda yashovchi xitoylik sarmoyadorlarning bazilari o'z oila azolarini olib kelishni ma'qul ko'rsalar viloyatda o'z biznesiga ega xitoyliklar oila azolarini olib kelishni ma'qul ko'rishmaydi. Bunga asosiy sabab esa mahalliy shart-sharoit va farzandlarini Xitoyni o'zida ta'lim olishlarini afzal deb bilishlarida. Ba'zi xitoyliklar esa mahalliy aholi bilan oila qurushni yoqlashadi. Bunga ham ularda yetarlicha sabablar bor. Ulardan Xitoyda erkaklarga ayollarning hisobi o'rtasidagi tafovut kattaligi manbalarda 50 mln deb ko'rsatilgan. Xitoyda oila qurish uchun katta mablag' kerakligi eng asosiy sabablardir. Hozirda Xitoyliklar bilan oila qurish uchrab turgan bo'lasada lekin aholi o'rtasida ommalashmagan. Bunga til, din, ma'daniyat o'rtasidagi tafovut asosiy sabab qilib ko'rsatiladi.

Xitoylik investorlar mahalliy ishchi kuchining yetarli bo'lmagani uchun Xitoyning o'zidan kadrlarni olib kelishga harakat qiladi lekin bu usul foydani katta qismiga ta'sir qiladi. Chunki Xitoylik mutaxassislar mahalliy ishchilardan 3 yoki 4 ba'zida undan ham ko'proq maosh olishlari, undan tashqari xitoylik ishchilariga berilayotgan kompensatsiya va Xitoyga borib kelishlari uchun ajratilayotgan pullar ham ancha yuqori. Sarmoyadorlar bu muammolarni yechish va foydani maksimal saqlash uchun mahalliy ishchilarga xitoy tilini o'rgatishni afzal ko'rishadi. Ularga til o'rganish davomida turli rag'batlar ham ko'rsatiladi. Shu bilan birga ularning o'zlari ham o'zbek yoki rus tillarini ham o'rganishga harakat qilishmoqda bunga asosiy sabab mahalliy aholi bilan muloqot, tarjimonlarning oyligi balandligi, va aldanib qolmaslik deb ko'rsatiladi Xitoy investitsiyasi o'z novbatida xitoy tilini mamlakatimizda ommalashishiga ta'sir ko'rsatadi deb

hisoblashga asos bo'ladi. Ko'plab xitoyliklar o'rtasidagi so'rovnomaga ko'ra ularning 23 foizi sarmoyadorlarga ko'rsatilayotgan imkoniyatdan qoniqish hosil qilgan bo'lsa, 47 foizi norozi 23 foizi esa neytral munosabat bildirishgan. Investorlarning O'zbekiston qonunlarini yaxshi tushunadiganlari kam ular biror muammoga duch kelsalar mahalliy idoralarga yoki advokatlarga murojaat qiladilar. Shu o'rinda shuni aytib o'tish kerakki, hozirda ko'plab xitoyliklar atrof-muhitga oid qonunlar va cheklovlar ularning bizneslariga yetarli ta'sir etmasligi haqida ham aytib o'tishgan.

- Xulosa va takliflar. Hech qanday investitsiya davlat til, madaniyat, siyosat, ekologiyasiga salbiy ta'sir o'tkazmasligi lozim. Buni oldini olishning bir qancha foydali yechimlari mavjud bulardan:

Birinchidan, davlat qonunlarini ingliz tiliga tarjima qilish va u orqali chet elliklarni huquq va majburiyatlari aniq belgilash orqali karrupsiya holatlarini oldini olish. Shunday qilinsa mahalliy amaldorlarning ularning ishlariga noqonuniy aralashish, chet elliklarning mahalliy qonunlarni buzish holatlarini oldini olish mumkin.

Ikkinchidan, mahalliy kadrlarni bilim darajasini oshirish orqali xitoyliklar olib kirgan uskunalarni nafaqat ishlata olish, keyinchalik esa bunday uskunalarni o'zlashtirish lozim shundagina mamlakatimizda iqtisodiy o'sish sezilarli bo'ladi.

Uchinchidan, chetga mahsulot eksport qiluvchi korxonalarini salmog'ini oshirish. Hozirda Xitoy olib kirgan korxonalarining talay qismi mahsulotni ichki bozorga sotishmoqda va foydani katta qismi chet elga chiqib ketmoqda.

To'rtinchidan, atrof-muhitni himoya qiluvchi qonunlarni yanada kuchaytirish va bu orqali ekologiyani yaxshilash lozim. Hozirda buni amalga oshirishning bir qancha yo'llari bajarilmoqda Xususan, "Yashil belbog'" dasturi, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini yaratish kabi ishlar olib borilmoqda. Lekin xitoyliklar asosan ishlab chiqarish, kimyo, qurulish kabi sohalarga qiziqish bildirayotganligi atrof-muhitni yanada himoya qilish lozimligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. 赵常庆。中亚有条件成为一带一路示范区。2096-7756 (2020) 01-0012-07.<http://www.cnki.net>
2. Qashqadaryo viloyati hokimligi rasmiy web sayti.
3. Shokhrukhhuja Fakhridinkhujaev, Ozod Tanbaev: Policy to Practice: A Survey Conducted Among Chinese Investors in Uzbekistan.
4. <https://www.zhccement.com>
5. Shokhrukhhuja Fakhridinkhujaev, Ozod Tanbaev: Policy to Practice: A Survey Conducted Among Chinese Investors in Uzbekistan.



Nodira SAFIXODJAEVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti
E-mail: nodirasafixodjayeva@gmail.com

O'zMU professori, t.f.d X.Yunusova taqrizi asosida

MUSTAQILLIK YILLARIDA FARG'ONA VODIYSI MEHRIBONLIK UYLARIDAGI TA'LIM-TARBIYA JARAYONLARI

Аннотация

Muallif mazkur maqolada O'zbekistonda xususan, Farg'ona vodiysi viloyatlarida joylashgan Mehribonlik uylari hamda u yerda tarbiyalanayotgan yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning davlat qaramog'ida ekanligi, ularga milliy ta'lim berish va ularning ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash maqsadida keng ko'lamda islohotlar o'tkazib borilganligiga to'xtalib o'tgan. Shuningdek, maqolada tarbiyalanuvchilarni milliy qadriyatlar va an'analar ruhida tarbiyalashga qaratilgan islohotlar jarayoni ham batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: "Mehribonlik uylari", bolalar uylari, Farg'ona vodiysi, Andijon, Namangan, Farg'ona, Xalq ta'limi vazirligi, ta'lim.

EDUCATIONAL PROCESSES IN ORPHANAGE HOMES OF FERGANA VALLEY IN THE YEARS OF INDEPENDENCE

Annotation

In this article, the author pointed out that in Uzbekistan, in particular, in the regions of the Ferghana Valley, orphanages and orphans and children deprived of parental care are under the care of the state, and large-scale reforms have been carried out in order to provide them with national education and ensure their social development. The article also details the process of reforms aimed at educating children in the spirit of national values and traditions.

Key words: "Houses of Mercy", orphanages, Ferghana Valley, Andijan, Namangan, Ferghana, Ministry of Public Education, education.

ВОСПИТАТЕЛЬНЫЕ ПРОЦЕССЫ В ДЕТСКИХ ДОМАХ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Аннотация

В данной статье автор указал, что в Узбекистане, в частности в регионах Ферганской долины, детские дома и дети-сироты и дети, лишённые родительской опеки, находятся под опекой государства, и в стране проведены масштабные реформы в целях предоставления им национального образования и обеспечения их социального развития. В статье также подробно описан процесс реформ, направленных на воспитание детей в духе национальных ценностей и традиций.

Ключевые слова: "Дома милосердия", детские дома, Ферганская долина, Андижан, Наманган, Фергана, Министерство народного образования, образование.

Kirish. Azaldan bag'rikeng o'zbek xalqi yetim qolgan yoki ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni avaylab-asrab, ularga g'amxo'rlik qilishni o'z zimmasiga olib kelgan va bugungi kunda ham O'zbekistonda ana shunday yoshlarning ta'lim va tarbiya olishlari uchun katta e'tibor qaratilib kelinmoqda. Bu borada Mehribonlik uyida tarbiyalanayotgan yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar ham oddiy bolalar singari ta'lim-tarbiya olishlari Davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, ularni huquqiy himoyalash belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasida belgilab qo'yilganidek: "Davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta'lim olishini, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishini ta'minlaydi"[1.45].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021 yil 28 iyul kuni kam ta'minlangan oilalar va "Mehribonlik uylari"da tarbiyalanib kelayotgan bolalarni qo'llab-quvvatlashga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida quyidagilarni ta'kidladi: "Mehribonlik uylari"dagi bolalarga tarbiya berish, ularni fan, xorijiy tillar, kasb-hunar va

tadbirkorlikka o'qitish, sport bilan shug'ullanishlarini tashkil etish bo'yicha mutlaqo yangi metodikalarni ishlab chiqish zarur".[2]

Mustaqillik tufayli O'zbekistonda "Mehribonlik uylari"da ta'lim va tarbiya jarayonlarini milliy qadriyatlar va an'analarga muvofiqlashtirishga qaratilgan islohotlar boshlandi. O'tgan yillar davomida davlat tomonidan "Mehribonlik uylari" tarbiyalanuvchilariga milliy ta'lim-tarbiya berish va ularning ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash maqsadida keng ko'lamda islohotlar o'tkazildi. Shuningdek, davlat va jamoat tashkilotlari hamda homiyar ko'maklari orqali "Mehribonlik uylari"da yangi ta'lim dasturlari, metodikalar va psixologik yordam tizimlari joriy etildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekistonda "Mehribonlik uylari" faoliyati, ularda tarbiyalanayotgan tarbiyalanuvchilarning ta'lim-tarbiya olishlari uchun yaratilgan shart-sharoitlar va ularning ijrosi masalasi alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan. Biroq pedagogika va psixologiya, sotsiologiya va tarix sohalarida bir qator tadqiqot ishlari olib borilganki bular tadqiqot ishini yoritishda mavzuga doir ma'lum xulosalarni chiqarishga yordam beradi. Hususan tarix hamda sotsiologiya sohalarida bo'yicha D.Abdullayev[3], E.Zoitov[4], B.Tolibov[5] larning ilmiy-tadqiqot ishlarini keltirib o'tish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekistondagi "Mehribonlik uylari" o'zining aniq maqsadlari va vazifalari bilan tarbiyalanuvchilarga mukammal ta'lim va tarbiya berishga intiladi. Bunday muassasalarda ta'lim va tarbiya jarayonlari har tomonlama rivojlanishni ta'minlashi zarur bo'ladi, chunki ularning maqsadi – farzandlarning yosh va qobiliyatlariga mos ravishda ularni jamiyatga foydali a'zolarga aylantirishdan iborat. Ammo, bu jarayonda ba'zi xato va kamchiliklar ham mavjud bo'lib, ularning tahlili va yechimlarini topish muhim ahamiyatga ega.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan hujjatlarining ko'rsatishicha, 1991-2021 yillar davomida "Mehribonlik uylari" faoliyatida erishilgan yutuqlar, shu bilan birga, xato va kamchiliklar ham mavjud bo'lib, ularning yechimini topish muhim ahamiyat kasb etar edi. Mustaqillikning dastlabki yillarida "Mehribonlik uylari"ning ahvoli, moddiy-texnik bazasi yaxshi bo'lmaganligini, bu sohaga jiddiy e'tibor berilmaganligini ko'rish mumkin. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining boshqarma boshlig'i M.Qosimovga Namangan viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i N.I.Qozoqov tomonidan 1993 yil 13 mayda 03-1/359-sonli yuborilgan axborot xatida aniqlangan bir qator kamchiliklar ma'lum qilingan. Unga ko'ra, 1992 yilning oktyabr oyida viloyat prokuraturasi xodimlari viloyatdagi 26-bolalar uyi va bir qator maktab-internatlarda bo'lib, voyaga yetmagan o'smirlarning mazkur muassasalarda yashashi, o'qishi hamda tarbiya jarayonini belgilaydigan qonunlarning ijrosi bo'yicha tekshiruv o'tkazganlar. Tekshiruvlar natijasida bu sohada qilingan qator ijobiy ishlar bilan birga, ayrim muassasalarning ma'muriyatlari tomonidan bolalarning huquq va manfaatlarini buzish holatlari ham sodir etilganligi ma'lum bo'ladi. Jumladan, ovqatlanish normalariga rioya qilinmayotgani va oziq-ovqat mahsulotlari bilan o'z vaqtida ta'minlanmayotganligi, taomlar kaloriyasining pastligi, tibbiy yordam ko'rsatishning yaxshi emasligi ko'rinadi va natijada, 26-bolalar uyi direktori Z.T.Vasileva nafaqada bo'lgani uchun o'z arizasiga asosan, o'z vazifasidan ozod etilgan hamda ushbu muassasaning oshpazi M.Jalilovaga xayfsan berilgan [6].

Xuddi shunday tekshiruvlar Andijon Farg'ona viloyatlarida ham olib borilgan. Xususan, Andijon viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i J.Halilovning O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligiga yuborgan 1993 yil 29 iyundagi 103/01 sonli axborot xatida quyidagi o'rganilish natijalarini ma'lum qilgan. Unda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 1993 yil 15 yanvardagi I/3 raqamli taqdimnomasida ko'rsatilgan vazifalarning bajarilishi haqida axborot berilgan bo'lib, Andijon viloyatida 1 ta bolalar uyi va 13 ta maktab-internatlar mavjud ekanligi, ularni ta'lim-tarbiya sohasidagi mutaxassislar bilan ta'minlash, barcha ta'lim muassasalarida 1993 yilning II choragida o'quv yilini muvaffaqiyatli yakunlash, bolalarning yozgi sog'lomlashtirish mavsumini tashkil qilish va o'quv binolarini yangi o'quv yili uchun ta'mirlash ishlari olib borilayotganini ma'lum qilinadi. Bolalar uylari va maktab-internati tarbiyalanuvchilaridan 440 nafari shahardan tashqari, 186 nafari maktab qoshidagi, 255 nafari sayohat va ekskursiya bilan bog'liq bo'lgan oromgohlarda yozgi ta'tillarni o'tkazayotganligi, qolgan bolalar ota-onalari bilan oila qaramog'ida dam olishayotgani ko'rsatilgan.

Mazkur axborot xatiga ko'ra, maktablarda viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi va otaliq tashkilotlar mablag'lari hisobiga ta'mirlash ishlari olib borilgan. 2-son bolalar uyiga Andijon mashinasozlik zavodi hamda Andijon ip-gazlama kombinati homiy sifatida ko'mak bergan. Mazkur muassasa uchun Andijon ip-gazlama kombinati qo'shimcha xonalar qurishni oxiriga yetkizib bergan. Maktab-internatlar va bolalar uyiga 1993 yilga mo'ljallangan kiyim-kechakning 65 foizigina

olinganligi, bu maqsad uchun esa yetarli miqdorda mablag' viloyat savdo tashkilotlariga o'tkazilganligi ta'kidlangan. 1994 yil uchun kiyim-kechaklarga buyurtmalar to'liq olinib, uning ijrosi ustida ish ketayotganligi, o'tib borayotgan chorak davomida bolalar uyi tarbiyalanuvchilari va pedagogik jamoa a'zolari tomonidan jinoyatchilik, qonun va tartibbuzarlik hollari qayd qilinmaganligi ma'lum qilingan.[7]

Farg'ona viloyatida Andijon va Namangan viloyatlariga nisbatan "Mehribonlik uylari" soni ko'p bo'lgan. Agar Andijon va Namangan viloyatlarida "Mehribonlik uylari" soni bittadan mavjud bo'lgan bo'lsa, Farg'ona viloyatida uchta "Mehribonlik uylari" faoliyat yuritardi. Yuqorida keltirilgan o'rganishlar Farg'ona viloyatida ham olib borilgan va bir qator erishilgan yutuqlar bilan birga, kamchiliklar ham mavjudligi aniqlangan. Shunga ko'ra, Farg'ona viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i J.Xo'jaqulov O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining umumiy o'rta ta'lim bosh boshqarmasi boshlig'i M.Qosimovga 1993 yil 1 iyuldagi 02/1327-sonli axborot xatida bir qator holatlarni ma'lum qiladi. Unga ko'ra, Farg'ona viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi vazirligining 1993 yil 15 yanvardagi I/3 Hay'at qaroriga ko'ra, internat muassasalarida olib borilayotgan ishlar haqidagi hisobotlari tahlil qilinib, 1993 yil yanvardan har ikki oyda bir marta internat muassasalar, maxsus maktab va bolalar uylari rahbar hamda xodimlarining harakatdagi seminari muntazam ravishda samarali o'tkazila boshlangani keltiriladi. Bu seminar-kengashda mazkur muassasalarning faoliyati o'rganilib, tegishli chora-tadbirlar belgilangan, metodik ko'rsatmalar va amaliy yordam berish yo'lga qo'yilganligi hamda 1993 yil avgust oyida Qo'qon shahridagi 12-sonli bolalar uyida navbatdagi kengash o'tkazilishi ham aytilgan.

Shuningdek, viloyat Xalq ta'limi boshqarmasiga berilgan hisobotlarga ko'ra, internat muassasalarida bolalar uylarida bir qator ishlar amalga oshirilgan. Masalan, barcha muassasalar joriy yilning I va II choraklarida O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonunini o'rganish va uni o'z faoliyatiga joriy qilish hamda uni targ'ib qilishga, tegishli moddalarini bajarishga kirishgan. Yanvar oyida mehnat ta'limi o'qitila boshlangan, fevral oyida V.G.Musailovning ochiq darsi va "Chevarchilik darslarida estetik tarbiya" mavzusidagi ma'ruzasi, aprel oyidagi A.M.Skaleva, N.N.Nanuslarning ochiq darslari namunali uyushtirilgan. "Xayr alifbo" bayrami, ekskursiya va kasb tanlash ishlari olib borilgan. Aprel oyida 4-internatda sinflararo "Quvnoq startlar" va Qo'qon shahridagi 14-son bolalar uyi bilan futbol bo'yicha o'rtoqlik uchrashuvi o'tkazilganligi, "Xatna to'yi" tashkil etilganligi, tarbiyalanuvchilarni kiyintirish ust-boshlarini hozirlash ishlari qilinganligi, Qo'qondagi 12-son bolalar uyida "Biz nima bilamiz?" mavzusida ijodiy ishlar ko'rigi, "Oilaviy kecha", "Butun sayyoramizda tinchlik bo'lsin!" mavzusida badiiy kecha, ichki ishlar xodimlari bilan uchrashuv, bolalar uyi qatnashchilari bilan uchrashuv, Nodirabegim, Alisher Navoiy, G'afur G'ulom kabi ma'rifatparvarlarga bag'ishlangan kechalar, shuningdek, o'lkani o'rganish muzeyiga, "Sariq qo'rg'on" qishlog'iga ekskursiya tashkil etilganligi, "Navoiy – she'riyat sultoni" kitoblar ko'rgazmasi ham o'tkazilganligi boshqarma boshlig'ining axborotida qayd etilgan[8].

Yuqorida keltirilgan bir qator kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida, chora-tadbirlar belgilab berildi. Tegishli tashkilotlarga topshiriqlar va mas'uliyatli vazifalar topshirildi. Tarbiyalanuvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, tarixiy va madaniy an'analarga asoslangan ta'lim va tarbiya berish tizimlari ishlab chiqildi. "Mehribonlik uylari" tarbiyalanuvchilarini vatanparvarlik va Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularni jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida o'zlarini his etishlari uchun turli ko'rik-tanlovlar, diqqatga sazovor joylarga sayohatlar, badiiy kechalar, turli tadbirlar

muntazam ravishda tashkil etilib kelindi. 1999 yilda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan chiqarilgan buyruqqa asosan, "Mehribonlik uylari" o'rtasida "O'zbekiston – qo'shiq bayrami" o'tkazildi. Tadbir doirasida Xalq ta'limi vazirligiga qarashli "Mehribonlik uylari", maktab-internatlari o'quvchi, o'qituvchi, tarbiyachilari o'rtasida tanlov o'tkazish ko'zda tutilgan edi. "Mehribonlik uylari" maktab-internatlari rahbarlari zimmasiga o'quvchi, o'qituvchi, tarbiyachilarni saralash ko'rik-tanlovlarini mustaqil o'tkazish, joylarda qo'shiq ko'rik-tanlovlarini tayyorlash va yuqori saviyada o'tkazish uchun Xalq ta'limi boshqarmalari va muassasa rahbarlari boshchiligidagi komissiyalar tuzish, 1999 yil 20 martga qadar "Mehribonlik uylari"da, 1 aprelgacha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat Xalq ta'limi boshqarmalari va Toshkent shahar Xalq ta'limi boshqarmasida tasdiqlangan Nizom asosida qo'shiqlar ko'rik-tanlovining birinchi bosqichini o'tkazish kabi vazifalar yuklatildi. Shuningdek "Mehribonlik uylari" tarbiyalanuvchilari o'rtasida qo'shiqlar ko'rik tanlovini hududlarda o'tkazish quyidagicha taqsimlangan bo'lib, unga ko'ra, Farg'ona, Andijon, Namangan viloyatlari uchun 1999 yil 9 aprelda Farg'ona viloyatida, Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand viloyatlari uchun 1999 yil 13 aprelda Samarqand viloyatida, Jizzax, Sirdaryo, Toshkent shahri, Toshkent viloyatlari uchun 1999 yil 15 aprelda Sirdaryo viloyatida, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Navoiy, Buxoro viloyatlari uchun 1999 yil 23 aprelda Xorazm viloyatida o'tkazish belgilab qo'yildi [9].

Yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni yoki qonuniy vakillarini o'qitish va boqish davlat tomonidan to'liq ta'minlash asosida amalga oshirib kelinadi. 2002 yilda "Mehribonlik uylari"da 3884 nafar bola va o'smir sog'lomlashtirilgan bo'lib, ularning 1610 nafari qizlardan iborat edi. Mehribonlik uylaridagi o'quvchilarning umumiy sonidan 303 nafari (7,8 foizi) 6 yosh va undan kichik, 3258 nafari (83,8 foizi) 7-15 yoshlilar, 323 nafari (8,4 foizi) 16 yosh va undan katta yoshdagilar edi. "Mehribonlik uylari"da 34 millat vakillari tarbiyalangan. Shundan 1376 nafar bolaning otasi yo'q, 784 nafarining onasi yo'q, 580 nafari esa chin yetimlardir. 2001-2002 o'quv yilida "Mehribonlik uyi"ni 322 nafar bitiruvchi tark etgan bo'lib, ulardan 11 nafari akademik litseyga, 307 nafari kasb-hunar kollejiga, 1 nafari oliy o'quv yurtiga, 3 nafari esa ishga joylashgan. 2003 yilda "Mehribonlik uyi"ni 367 nafari tark etadi. 2002 yil davomida "Mehribonlik uylari"ning 9 nafar tarbiyalanuvchisiga vasiylik belgilandi, 23 nafari farzandlikka olindi, 211 nafari oilasiga qaytarildi [10].

Birgina Andijon viloyati misolida ko'riladigan bo'lsa, arxiv hujjatlarida qayd etilganidek [11], 2003 yilda 2-sonli "Mehribonlik uyi" 100 nafar tarbiyalanuvchiga mo'ljallangan bo'lib, unda 99 nafar tarbiyalanuvchi bo'lgan. Ular ushbu muassasaga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 15 fevraldagi 59-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom [12] asosida qabul qilingan.

"Mehribonlik uyi" da tahsil olayotgan tarbiyalanuvchilar to'la va sifati bilimga ega bo'lishlari uchun ular to'liq darsliklar bilan bepul ta'minlangan va bundan tashqari muassasa kutubxonasi badiiy kitoblari bilan ham boyitilgan

hamda "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti", "Siz qonuni bilasizmi", "Hayotimiz qomusi" mavzusida burchaklar tashkil qilingan. Shuningdek, 4 nafar tarbiyachilar viloyat pedagogik xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida o'z bilimlarini oshirgan. 4 nafar oliy ma'lumotli defektologlar esa alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalar bilan ish olib borganlar. Mazkur muassasa bitiruvchilarining keyingi hayot yo'lini tanlab olishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan bo'lib, muassasa bitiruvchilarining 4 nafari Ichki ishlar akademiyasida, 1 nafari Rossiya oliy harbiy bilim yurtida, 2 nafari Farg'ona harbiy-sport litseyida, 7 nafari Andijon kasb-hunar kollejlari o'qib kelganlar. Ularga yotoqxonaga va moddiy yordam sifatida har oyda 34 ming so'm miqdoridagi mablag' va transportlarda yurish uchun bepul kartochkalar bilan ta'minlangan. "Mehribonlik uyi"ning 21 nafar yetim va yarim yetim bolalarga davlat nafaqalari tayinlangan [11].

2004 yilga kelib, O'zbekiston Respublikasi bo'yicha jami 28 ta "Mehribonlik uylari" bo'lib, ularda 3748 ta bolalar tarbiyalangan. Ulardan 13 foizi chin yetimlarni, 23 foizini ota-onasi tashlab ketganlarni, 54 foizi ota yoki onasi borlarini, 12 foizi otasi yoki onasi og'ir kasallarning va nogironlarning bolalarini, 10 foizi ota-onalik huquqidan mahrum qilinganlarning va jinoyat sodir qilganlarning farzandlarini tashkil qilgan [14].

Albatta, "Mehribonlik uylari" soni va ularda tarbiyalanayotgan yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning soni doim ham bir xil ko'rsatkichda bo'lmagan. Bir jihati quvonarliki, yildan-yilga "Mehribonlik uylari" soni kamayib borgan.

Xulosa. O'zbekistondagi "Mehribonlik uylari"da ta'lim va tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etish bolalarning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Muammo va kamchiliklarning bartaraf etilishi, resurslar va professional malakani oshirish orqali ta'lim va tarbiya jarayonlarini yaxshilash mumkin. Ushbu ishlar ta'lim-tarbiya jarayonlarining hamma tarkibiy qismlarini to'liq qamrab olishi va umumiy rivojlanishiga yordam berish uchun muhimdir.

Bu borada "Mehribonlik uylari"da tarbiyalanayotgan yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar ham oddiy bolalar singari ta'lim-tarbiya olishlari davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, huquqiy jihatdan himoya qilib qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ham jinsi, irqi, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, har kimga ta'lim olishi uchun huquqi kafolatlanishi belgilab qo'yilgan [14].

O'zbekistondagi "Mehribonlik uylari" tarbiyalanuvchilarining ta'lim va tarbiya jarayonlari tarixiy jihatdan katta ahamiyatga ega. Qadimiy an'analar, sovet davridagi markazlashtirilgan tizimlar va mustaqillik davridagi islohotlar Mehribonlik uylarining ta'lim va tarbiya jarayonlarini shakllantirishda muhim rol o'ynagan. Tarixiy jarayonlarni o'rganish, "Mehribonlik uylari"dagi amalga oshirilayotgan hozirgi islohotlarning ahamiyatini tushunishga va ularning rivojlanish yo'nalishlarini belgilashga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. B 45
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev. Siyosat. O'zbekiston yangiliklari. Rasmiy sayt. www.gazeta.uz/uz 2021 yil 28 iyul
3. Abdullayev D. O'zbekistonda xayriya va homiylikning rivojlanish tarixi. (XIX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshlari). Tarix fan.bo'yi.fals.dok.(PhD) diss... Toshkent, 2019. – 172 b.
4. Zaitov E. O'zbekistonda institutsional muassasa bitiruvchilarini ijtimoiy himoyalash tizimini takomillashtirish. Sotsiologiya fan.bo'yi.fals.dok(PhD) diss... Toshkent, 2020. – 175 b.
5. Tolibov B. Aholining ehtiyojmand qatlamlariga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish mexanizmlarini takomillashtirish. Sotsiologiya fan.bo'yi.fals.dok(Phd) diss... – Toshkent, 2022. – 154 b.

6. O'zMA M-26-fond, 1-ro'yxat, 142-yig'majild, 1-varaq.
7. O'zMA M-26-fond, 1-ro'yxat, 142-yig'majild, 38-varaq.
8. O'z.MA M-26-fond, 1-ro'yxat, 142-yig'majild, 45-46-varaqlar.
9. O'zMA M-26-fond, 1-ro'yxat, 834-yig'majild, 97-99-varaqlar
10. O'zMA M-37-fond, 1-ro'yxat, 8122-yig'majild, 52-varaq
11. O'zMA M-37-fond, 1-ro'yxat, 8118-yig'majild, 138-140-varaqlar
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 15 fevraldagi 59-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Mehribonlik uyi to'g'risida"gi Nizom.
13. O'zMA M-37-fond, 1-ro'yxat, 8123-yig'majild, 26-varaq.
14. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi 637-sonli qarori. 2020 yil, 23 sentyabr, 5-9-modda.



UO•K: 9:93:930.2

Sherzod TANGIROV,
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti
Email: tangirov87@mail.ru

SamDU professori, t.f.d. B.Ergashev taqrizi asosida

ANALYSIS OF DOCUMENTARY SOURCES REGARDING THE TERRITORY, ADMINISTRATION AND POPULATION OF JIZZAKH REGION IN THE PERIOD OF DEPENDENCE ON THE RUSSIAN EMPIRE (1866-1917)

Annotation

Jizzakh region has historically served as an important trade center as one of the main stops in the network of the Great Silk Road route to Central Asia. The article analyzes the role of the Jizzakh region in the history of Turkestan before and after the invasion of the Russian Empire based on its administrative territorial structure, population, area, archival documents and sources. The region experienced several changes in the late 19th and early 20th centuries under the influence of various factors such as administrative reforms, economic changes, and social dynamics.

Key words: Zarafshan district, Jizzakh beg, Sangzor valley, beg, estate, uyezd, section, volost, Olloyor devanbeg.

АНАЛИЗ ДОКУМЕНТАЛЬНЫХ ИСТОЧНИКОВ ПО ТЕРРИТОРИИ, УПРАВЛЕНИЮ И НАСЕЛЕНИЮ ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ В ПЕРИОД ЗАВИСИМОСТИ ОТ РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ (1866-1917 ГГ.)

Аннотация

Джизакская область исторически служила важным торговым центром, одной из основных остановок в сети Великого Шелкового пути в Среднюю Азию. В статье анализируется роль Джизакской области в истории Туркестана до и после вторжения в состав Российской империи на основе ее административно-территориального устройства, численности населения, площади, архивных документов и источников. В конце 19 - начале 20 веков в регионе произошло несколько изменений под влиянием различных факторов, таких как административные реформы, экономические изменения и социальная динамика.

Ключевые слова: Зарафшанский уезд, Джизакский бегги, Сангзорская долина, беглик, имение, уезд, участок, волость, Оллоор деванбег.

ROSSIYA IMPERIYASIGA QARAMLIK DAVRIDA JIZZAX UYEZDI HUDUDI, BOSHQARUVI VA AHOLISIGA DOIR HUJJATLI MANBALAR TAHLILI (1866-1917 YILLAR)

Annotatsiya

Jizzax hududi tarixdan Buyuk ipak yo'lining Markaziy Osiyo yo'nalishi tarmog'ida asosiy bekatlardan biri o'laroq muhim savdo markazi vazifasini o'tagan. Maqolada Jizzax hududining Rossiya imperiyasi bosqiniga qadar va undan keyingi Turkiston tarixida hududning tutgan o'rni ma'muriy hududiy tuzilishi, aholisi, maydoni, arxiv xujjatlari va manbalar asosida tahlil qilingan. Hudud XIX-asr oxiri va XX-asr boshlarida ma'muriy islohotlar, iqtisodiy o'zgarishlar, ijtimoiy dinamika kabi turli omillar ta'sirida bir qancha o'zgarishlarni boshdan kechirdi.

Kalit so'zlar: Zarafshon okrugi, Jizzax bekligi, Sangzor vodiysi, beklilik, amloklik, uyezd, uchastka, volost, Olloyor devonbegi.

Kirish. Jizzax hududi Sirdaryo va Zarafshon daryolari oralig'ida joylashgan bo'lib, asosiy suv tarmoqlari Sangzor va Zomin, Tuyatortar kanali, shuningdek Zarafshon daryolari hisoblanadi[1]. Shuningdek o'rta asrlarda Buyuk ipak yo'lining Markaziy Osiyo yo'nalishi tarmog'ida Jizzax hududi asosiy bekatlardan biri o'laroq muhim savdo markazi vazifasini o'tagan[2].

XVIII asr boshlarigacha Buxoro xonligi hududi hisoblangan Zomin va Jizzax yerlari taqdiri Qo'qon xonligi tashkil topgandan so'ng O'ratepa, Xo'jand qatorida (1866-yilgacha) Buxoro va Qo'qon davlatlari siyosiy tarixi bilan bevosita yoki bilvosita bog'landi. Yozma manbalarda Xo'jand va unga tutash O'ratepa va Jizzax beklilari yerlariga egalik qilish uchun shiddatli va qat'iy kurash bo'lib, qo'ldan qo'lga o'tib turgan[3]. Bu davrga oid manbalarda Jizzax "Samarqandga kirish darvozasi" deb ham ta'kidlanadi[4].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning uslubiy asosini obyektivlik va tarixiylik prinsipi, fenomenologik va germenovik yondashuvlar, tizimlashtirish usullari tashkil etadi. Shuningdek, maqoladagi ma'lumotlarni tahlil etishda statistik usuldan ham foydalanildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Rossiya imperiyasi bosqichilik yurishlari arafasida Jizzax bekligi Buxoro amirligi tarkibida bo'lib, uning strategik hududlaridan biri hisoblangan. Mojar sharqshunos olimi Arminiy Vamberi 1863-yilgi Turkistonga sayohati bilan bo'g'liq xotiralarida Jizzaxni Buxoro amirligi ma'muriy-hududiy birliklari qatorida keltiradi[3]. Bu davrda Buxoro amirligi tarkibidagi o'z ma'muriy boshqaruviga ko'ra mustaqil yoki yarim mustaqil boshqaruvga ega shaharlarni sanab o'tishda ham Jizzax bekligi qayd etilgan[3]. Buxoro amirligi ma'muriy jihatdan beklilarga, bekliliklar esa amlokliklarga bo'lingan. Yirik bekliliklar esa tumanliklarga bo'lingan (masalan Buxoro bekligi)[5]. XIX asrning 60-yillarida Buxoro amirligi bir necha viloyatlardan tashkil topgan bo'lib, har bir viloyatda hukmron boshliq qo'yilgan bo'lib, ular hokim yoki bek deb atalgan[6].

Tarixchilarning Buxoro hukmdori amir Sayyid Abdulahadxon (1885-1911) davrida ham otasi amir Sayyid Muzaffarxon (1860-1885) davridagi davlat tuzumi saqlanib qolgan[4]. haqidagi ma'lumotiga asoslanib shunday xulosaga kelish mumkinki, boshqa hududlar kabi Jizzax hududi boshqaruv tartibi quyidagicha bo'lgan: Saltanat poytaxtidan

uzoqda joylashgan shaharlarning boshqaruvi amir tomonidan tayinlangan hokim (bek) boshqarilgan. Hududning qozisi va raisi ham amir tomonidan tayinlangan. Hokim mirbek, ya'ni mir (yoki bek) deb atalgan. U mamlakatning muhofazasi, siyosati va fuqarolar o'rtasida adolat o'rnatish hamda xiroju daxyak olish uchun mas'ul bo'lgan[7]. Hudud amlokliklarga bo'lib boshqarilgan. Buxorodan boshqa beklklardagi amloklor beklk hokimi tomonidan tayinlangan. Amloklorlik Buxoro amirligidagi eng kichik ma'muriy bo'linma hisoblanib, uni boshqaradigan amaldor "amloklor" deyilgan va unga bir qancha qishloqlar va ularning oqsoqollari bo'ysungan[5]. Amloklor hududning xiroju-ushriga mas'ul bo'lgan. Amloklorning ham bir qancha xizmatkorlari bo'lib, dorug'a va mingboshi deb atalgan, ular amloklor (turkchasi "bek" yoki "bey", ruschasi "volostnoy") ga yordam berganlar. Qozi hududda shar'iy (shariat asosida) masalalarni ko'rib chiqishga mas'ul bo'lgan. Rais shar'iy murofi'a, masjidlar va bozorlarni tekshirish, shu o'lka aholidan bo'lmish musulmonlar ahvoliga mas'ul bo'lgan. O'nlab mirzo-yu muharrir, noibu xizmatkorlar doim qishlog'u bozorlarda yurib, ma'muriyat ishlarini ijro etganlar [7].

Rossiya imperiyasi bosqini arafasida Buxoro amiri Sayyid Muzaffarxon amirlikning sharqiy chegaralari hisoblangan Jizzax bekligini mustahkamlash maqsadida ishonchli beklaridan Olloyor devonbegini 1865-yilda Jizzax begi (hokimi) etib tayinlagan edi[8]. Olloyor devonbegi shaharning mudofaa devorlarini qayta tiklash ishlarini amalga oshiradi. U 8 oy mobaynida tunu kun shahar istehkomi devorlarini tiklashga juda katta kuch sarflaydi. Qal'a devorlari yangidan ko'tarilib, 3 km uzunlikda mustahkam istehkom devorlari oldida chuqur ariqlar qaziladi[1].

XIX asr 60-yillarida Rossiya imperiyasi qo'shinlari Turkiston yerlarini birin-ketin bosib ola boshladi. M.G.Chernyayev boshchiligidagi mustahkamlash tomonidan 1865-yil 17-iyunda Toshkentning bosib olinishi va uning avvalroq tashkil etilgan Turkiston viloyatining markazi etib belgilanishi, 1867-yilda esa Toshkent, Sirdaryo va Yettisuv viloyatlaridan iborat Turkiston general gubernatorligining tashkil etilishi bilan Toshkent Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoda to'liq hukmronligini o'rnatilishida muhim tayanch vazifasini bajara boshladi[9].

M.G.Chernyayev boshchiligidagi rus qo'shinlarining Jizzax bekligini egallashga bo'lgan ilk urinishi 1865-yil fevral oyida Mirzacho'l orqali amalga oshirilgan edi. Biroq bosqinchilarning muvaffaqiyatsiz harakati, shuningdek mudofaachilarning mardonovor qarshiligi sababli imperiya qo'shinlari 10-fevralda Sirdaryo bo'yiga chekinishga majbur bo'lgan edi. Rossiya imperiyasi qo'shinlarining navbatdagi hujumi 1866-yil 24-mayda Xo'jandning egallanishi bilan davom etadi. 1866-yil 1-oktyabrda O'ratepa shahri ham ruslar tomonidan egallanadi. 1866-yil 15-18-oktabrda general N.A.Krijanovskiy boshchiligidagi hujum natijasida Olloyor devonbegi va u boshchiligidagi yo'l boshchilardan bir qanchasi qahramonlarcha halok bo'ladilar[2]. Xususan, N.A.Romanovskiy tomonidan Orenburg general-gubernatoriga yuborilgan axborotda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Jizzax shahri mudofaachilaridan 6 ming kishi o'ldirilgan, 2 ming kishi asir olingan. Tarixiy yozma manbalarga ko'ra, bu jangda jizzaxliklardan 9 ming jangchi, tinch aholidan 1500 kishi halok bo'lib, 1500 ga yaqin kishi asirga tushib, ularning 600 tasi og'ir yarador bo'lgan. Buxoro amirining 18 lashkarboshisidan 16 nafari Jizzax jangida halok bo'lgan edi[2]. Shu tariqa Buxoro amirligining sharqiy qismidagi muhim tayanch nuqtasi bo'lgan Jizzax bekligi Rossiya imperiyasi tomonidan egallandi.

Jizzax shahri va bekligi Rossiya imperiyasi tomonidan istilo qilingandan keyin uning hududida ham mustamlaka boshqaruv tizimi o'rnatila boshlandi. General N.A.Krijanovskiy Jizzax shahrining komendanti etib

tayinlandi. General ixtiyoriga favqulodda bo'lib qoladigan g'alayonlarning oldini olish maqsadida 10 rota piyoda askar, 300 nafar kazak, 10 ta to'p va boshqa qurol-yarog'lar qoldirdi[1]. Rossiya imperiyasining keyingi bosqinchilik harakatlari Buxoro amirligining muhim tayanch markazlaridan bo'lgan Samarqand va Kattaqo'rg'on hududlarini bosib olinishi va Rossiya imperiyasi tarkibiga qo'shib olish bo'ldi.

1867-yilda Turkiston viloyati 1866-yilda imperiya qo'shinlari tomonidan bosib olingan hududlar bilan birga Turkiston general-gubernatorligiga aylantirildi. Mazkur ma'muriy-hududiy birlik dastlab 1867-yil 11-iyulda tasdiqlangan "Yettisuv va Sirdaryo viloyatlarini boshqarish to'g'risida"gi Muvaqqat Nizom asosida boshqarilgan. Yangi "Nizom"ning asosiy mazmuni "ma'muriy va harbiy hokimiyatning bo'linmasligi hamda yagona qo'llarda jamlanishi"dan iborat bo'lib, yangi mustamlakadagi xalq ommasini doimiy qo'rquv va itoatda ushlab turishga imkon bergan[10].

1867-yil 12-iyulda Sirdaryo viloyati (markazi Toshkent) va Yettisuv viloyati (markazi Verniy) dan iborat Turkiston general-gubernatorligi (markazi Toshkent shahri) tashkil etilib, Rossiya imperiyasining Turkistonda shu vaqtgacha egallangan hududlari uning tarkibiga kiritildi. Uning birinchi general-gubernatori etib K.P. fon Kaufman tayinlangan. 1867-yilda Jizzax hududi Sirdaryo viloyati tarkibidagi uyezd sifatida qoldirilgan edi[11]. Jizzax uyezdni tashkil etilganidan so'ng uning boshlig'i polkovnik Kosov tayinlangan.[11. 256] Keyingi yillarda ma'muriy chegaralar Rossiya imperiyasining o'sib borayotgan ma'muriy ehtiyojlari va yerli boshqaruv talablariga yaxshiroq moslashtirish ishlari amalga oshirildi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Jizzax yerlarining bir qismi dastlab Zarafshon okrugi, 1887-yildan Samarqand bo'limi tarkibida bo'lib keldi. 1868-yil 28-iyunda tasdiqlangan, 93 banddan iborat bo'lgan "Zarafshon okrugini boshqarish to'g'risidagi muvaqqat qoidalar" nomli Rossiya imperiyasi tomonidan Zarafshon vohasi istilosidan so'ng, Zarafshon hududi ma'muriy boshqaruvini tashkil qilish bilan bog'liq ilk hujjat fon Kaufman tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, hujjatning 1-moddasiga ko'ra "Turkiston o'lkasi uzil-kesil tashkil etilguniga qadar Buxoro amirligidan 1868-yilda qo'lga kiritilgan yerlarda alohida Zarafshon okrugi tashkil etilishi", hujjatning 2-moddasiga asosan esa Zarafshon okrugi sharqda Ilono'tti darasi va Qashg'ar-Davon tizmasi tarmog'i bilan chegaralanishi, Sangzor vodiysi ham Zarafshon okrugi tarkibida [12] ekanligi belgilangan. Dastlab, hozirgi Jizzax hududining g'arbiy qismi Zarafshon okrugi tarkibida, qolgan asosiy qismi Sirdaryo viloyati tarkibidagi uyezd sifatidagi ma'muriy birlik bo'lgan. 1886-yilda tasdiqlangan "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida"gi Nizomga muvofiq Zarafshon okrugi Samarqand viloyatiga aylantirildi hamda bu viloyat to'rtta – Samarqand, Kattaqo'rg'on, Xo'jand va Jizzax uyezdlaridan (Xo'jand va Jizzax uyezdleri Sirdaryo viloyati tarkibidan olib berilgan) iborat bo'lishi ma'lum qilindi. Jizzax shahri uyezd markazi bo'lib qoldi[1].

Arxiv manbalariga ko'ra 1870-yilgi Jizzax uyezdni bo'yicha aholi soni 16752 nafar [13] ekanligi qayd qilingan bo'lib, Jizzax shahri bo'yicha 595 ta hovli, 3345 nafar yerli aholi [13], Zominda esa 40 ta hovli, 125 nafar aholi [14] yashaganligi keltirilgan.

Jizzaxning strategik ahamiyati Rossiyaning Markaziy Osiyoga kengroq ekspansiyasi jarayonining bir qismi sifatida muhim vazifani bajargan. Misol uchun, 1873-yilda Jizzax uyezdida tashkil etilgan general Golovachev boshchiligidagi 12 ta rota, 4 ta raketa, 14 ta to'p, 3400 ta soldat, 1300 ta ot, 7000 ta tuyadan iborat rus garnizoni Xiva xonligiga qarshi harbiy yurishga safarbar etilganligi [11], hududning Turkiston yerlarini bosib olish borasidagi keyingi harakatlarni tashkil etishda muhim vazifalardan birini bajarganligini ko'rsatadi.

1886-yil 12-iyunda tasdiqlangan “Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risida”gi Nizom o‘lkada yagona ma‘muriy-hududiy tizimni yaratdi. Mazkur hujjatga asosan Turkiston general-gubernatorligi uchta – Sirdaryo, Farg‘ona va Samarqand viloyatlaridan iborat bo‘ldi[15]. Jizzax hududi Zarafshon okrugi o‘rnida tashkil etilgan Samarqand viloyati tarkibida edi. Har bir uyezd o‘rtacha 3 ta uchastka va 20 ta volostdan iborat bo‘lgan[15]. Dastlabki davrlarda hududni boshqarishga oid munosabatlar, soliq va yig‘imlarga oid munosabatlar, o‘lkada mustamlaka boshqaruv shaklini bosqichma-bosqich tashkil qilishga oid munosabatlar 1867-yil 11-iyulda tasdiqlangan “Yettisuv va Sirdaryo viloyatlarini boshqarish to‘g‘risida”gi Muvaqqat Nizomga muvofiq meyorlashtirilib borilgan.

Tahlil va natijalar. Rossiya imperiyasi tarkibidagi Jizzax hududi XIX-asr oxiri va XX-asr boshlarida ma‘muriy islohotlar, iqtisodiy o‘zgarishlar, ijtimoiy dinamika kabi turli omillar ta‘sirida bir qancha o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Bu davrda uyezd ma‘muriy jihatda uchaska, volostlik va oqsoqolliklarga bo‘lib boshqarilgan.

1874-yilga oid statistik ma‘lumotlarda Jizzax uyezdida shahar - 1 ta, hovlilar soni 200 tadan 1000 tagacha bo‘lgan aholi manzilgohi soni - 1 ta, hovlilar soni 150 tadan 199 tagacha bo‘lgan aholi manzilgohi soni - 4 ta, hovlilar soni 100 tadan 149 tagacha bo‘lgan aholi manzilgohi soni - 6 ta, hovlilar soni 50 tadan 99 tagacha bo‘lgan aholi manzilgohi soni - 35 ta, hovlilar soni 49 tagacha bo‘lgan 110 ta aholi manzilgohi mavjudligi, hududda jami 157 ta aholi manzilgohi mavjudligi qayd qilinadi[16].

T.Saidqulov ma‘lumotiga ko‘ra XIX asr oxirlarida aholi soni bo‘yicha Jizzax Samarqand viloyatidagi 6 ta shahar ichida 4-o‘rinda turgan bo‘lib, 1887-1888-yillarda shahar aholisi 12735, 1897-yilda 15710, 1914-yilda 14034 nafar bo‘lgan[17]. Hujjatli manbalarda 1892-yilda Jizzax shahri aholisi 10128, shundan shaharning rus qismida yashovchilar soni 3096 nafar [18] ekanligi, 1908-yil 15-oktabrdagi ma‘lumotlarga ko‘ra, Jizzax shahar aholisi soni 11801, (1904-1905 yillarda 11350 nafar) ekanligi, shulardan 1500 rubl qiymatdan ortiq mulkka ega bo‘lgan fuqarolar soni 5 nafar (1904-1905 yillarda 1 nafar), 1000 rubl qiymatdan ortiq mulkka ega bo‘lgan fuqarolar soni 27 nafar (1904-1905 yillarda 15 nafar), 300 rubl qiymatdan ortiq mulkka ega bo‘lgan fuqarolar soni 332 nafar (1904-1905 yillarda 313 nafar) ekanligi qayd qilingan[19].

1892-yilda Jizzax uyezd bo‘yicha aholi soni 162668 nafar[20], 1893-yilda esa 159996 [20] nafar bo‘lgan. 1893-yilda Samarqand viloyati bo‘yicha 694754 nafar aholi istiqomat qilishini[21] hisobga olsak aholi soni bo‘yicha Jizzax uyezdining viloyatdagi ulushi 23 % ni tashkil qilishini bilishimiz mumkin.

Bu vaqtda Jizzax uyezdi bo‘yicha shahar va qishloq jamoalari (mahalalar) soni 102 ta (Jizzax shahrida 2 ta katta mahalla), 193 ta aholi manzili, 31768 ta hovli, 600 ta ellikboshi, 52 ta mirob borligi xujjatlarda qayd qilingan.[20, 342] Shuningdek, 1893-yilda Jizzax uyezdida 220 ta masjid, 191 ta maktabxona va qorixona, Jizzax shahrida 48 ta masjid, 12 ta maktab qorixona, 1 ta cherkov bo‘lgan[20]. O‘zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan 1906-yilgi Samarqand viloyatining xaritasida Jizzax uyezdi 17 ta volostdan iborat ekanligi aks ettirilgan[22].

Rossiya imperiyasi hukumati tomonidan Turkiston o‘lkasida 1908-1909-yillarda K.K.Palen boshchiligidagi taftish o‘tkazish uchun komissiyasiga taqdim etilgan hisobotlarda 1907-yilda Jizzax uyezdi 3 ta uchastkaga bo‘linishi, shulardan Zomin uchastkasida 5 ta volost, 25 ta qishloq jamoasi, 9838 ta xonadon borligi, Yangiqo‘rg‘on uchastkasida 7 ta volost, 38 ta qishloq jamoasi, 11493 ta xonadon borligi, Bog‘don uchastkasida 8 ta volost, 49 ta qishloq jamoasi, 12199 ta xonadon borligi qayd qilingan[23]. Shuningdek, ushbu hisobotda Samarqand viloyatining 1908-yilgi xaritasi [19] keltirilgan bo‘lib, unda Jizzax uyezdi va uning 18 ta volosti xaritada ko‘rsatilgan.

1916-yil 13-sentyabrga oid arxiv hujjatlarida Samarqand viloyati tumanlari va ularning maydoni to‘g‘risida ma‘lumot keltirilgan bo‘lib, unda Samarqand – 7751 verst2, Kattaqo‘rg‘on – 6997 verst2, Xo‘jand – 20036 verst2, Jizzax uyezdi 25812 verst2 ekanligi qayd qilingan[25].

Xulosa. 1866-yildan keyin Jizzax bkligining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi va imperiya mustamlakachilik tizimining o‘rnatilishi natijasida hudud Markaziy Osiyo hududiga chuqurroq kirib borishda asosiy tayanch va yo‘laklardan biriga aylandi. Mustamlaka ma‘muriyati mintaqaning qishloq xo‘jaligi manbalari va madaniy boyliklaridan foydalanish maqsadida hududda aholini ro‘yxatga olish, ma‘muriy chegaralarni belgilash, hudud xaritasini tuzishda ko‘pincha milliy ehtiyojlardan ko‘ra imperiya manfaatlarini ustun qo‘yildi va bu ishlar doimiy amalga oshirilib turildi.

ADABIYOTLAR

1. Хайдаров Х. Жиззах вилояти тарихи. Тошкент. Мехнат. 1996.
2. Хайдаров Х., Усмонов Қ. Жиззах тарихи. Тошкент. Ўқитувчи. 2009.
3. Арминий Вамбери. Путешествие по Средней Азии. Москва Издательская фирма «Восточная литература» РАН 2003.
4. Ахмад Дониш. Рисола ёхуд манғитлар хонадони салтанатининг қисқача тарихи. Қ.Йўлдошев таржимаси. Тошкент. Ўзбекистон миллий энциклопедияси нашриёти. 2014.
5. O‘zbekiston tarixi (Buxoro tarixi) X jild. Toshkent. O‘zbekiston. 2023.
6. R.Xoliqova. XIX asr ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Rossiya-Buxoro munosabatlari tarixi. Tarix fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent. 2006.
7. Мухаммад Али Болжувоний. Тарихи нофеий. Ш.Воҳидов ва З.Чориев таржимаси. Академия нашриёти. Тошкент. 2001.
8. Мирза Салимбек. Тарих-и Салими (Источник по истории Бухарского эмирата). Ташкент. Akademiya. 2009.
9. Х.Зиёев. Ўзбекистон мустақиллиги учун курашлар тарихи. Тошкент. Шарқ. 2001.
10. История Узбекской ССР, 1956.
11. Хамид Зиёев. Туркистонда Россия тожовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. Тошкент. Шарқ. 1998.
12. O‘z MA, I-21-jamg‘arma, 1-ro‘uxat, 4-yig‘majild 1-varaq orqa tomoni
13. O‘z MA, I-22-jamg‘arma, 1-ro‘uxat, 3-yig‘majild 8-varaq orqa tomoni
14. O‘z MA, I-22-jamg‘arma, 1-ro‘uxat, 3-yig‘majild 2-varaq orqa tomoni
15. Центральная Азия в составе Российской империи. - М.: Новое лит. обоз., 2008.
16. Соболев Л.Н. Географические и статистические сведения о Зеравшанском округе // Записки Русского географического Общества по отделению статистики. Т.VI. – СПб., 1874.
17. Саидкулов Т.С. Самарканд во второй половине XIX – начале XX веков. Из социально-экономической и политической истории средней части Зеравшанской долины: Учеб. Пособие. – Самарканд, 1970.

18. O'z MA, I-21-jamg'arma, 1-ro'yxat, 894-yig'majild, 27-varaq
19. O'z MA, I-18-jamg'arma, 1-ro'yxat, 3263-yig'majild, 248- varaq
20. O'z MA, I-21-jamg'arma, 1-ro'yxat, 894-yig'majild, 102-varaq orqa tomoni
21. O'z MA, I-18-jamg'arma, 1-ro'yxat, 296-yig'majild, 7- varaq orqa tomoni
22. O'z MA, I-1-jamg'arma, 12-ro'yxat, 2016-yig'majild, 14-varaq
23. O'z MA, I-18-jamg'arma, 1-ro'yxat, 3263-yig'majild, 226-varaq orqa tomoni
24. O'z MA, I-1, 27-ro'yxat, 3-yig'majild, 7-varaq



UDK:930

Ermat TILAYEV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti dekani, t.f.n
E-mail: ermattilayev@gmail.com

Buxoro davlat universiteti, t.f.d, professor Sh.Vohidov taqrizi asosida

IRANIAN AND CENTRAL ASIAN WRITTEN SOURCES ON THE MILITARY CAMPAIGNS OF THE AFSHARIS ON THE TERRITORY OF THE BUKHARA KHANATE IN 1738-1740

Annotation

This article analyzes the valuable information contained in the main written sources and historical treatises of Iran and Central Asia about the military campaigns of the Afsharids in the mid- XVIII th century in order to subjugate the Bukhara and Khiva khanates, as well as the unsuccessful campaign of Nadirshah's son Rezakulikhan in Karshi.

Key words: District, khanate, ambassador, madrasah, military campaign, army, soldier, written source, historical source.

ИРАНСКИЕ И СРЕДНЕАЗИАТСКИЕ ПИСЬМЕННЫЕ ИСТОЧНИКИ О ВОЕННЫХ ПОХОДАХ АФШАРИЕВ НА ТЕРРИТОРИЮ БУХАРСКОГО ХАНСТВА В 1738-1740 ГГ

Аннотация

В данной статье анализируются ценные сведения, содержащиеся в основных письменных источниках и исторических трактатах Ирана и Средней Азии, о военных походах афшаридов в середине XVIII века с целью подчинить себе Бухарское и Хивинское ханства, а также неудачный поход сына Надиршаха Резакулихана в Карши.

Ключевые слова: Округ, ханство, посол, медресе, военный поход, армия, солдат, письменный источник, исторический источник.

1738-1740 YILLARDA AFSHORIYLARNING BUXORO XONLIGI HUDUDIGA QILGAN HARBIY YURISHLARI HAQIDAGI ERON VA O'RTA OSIYO YOZMA MANBALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada XVIII-asr o'rtalarida afshoriylarning Buxoro va Xiva xonligini o'ziga bo'ysundirish maqsadida olib borga harbiy yurishlari, Nodirshohning o'g'li Rizoqulining Qarshiga bo'lgan muvafaqiyatsiz yurishi haqidagi Eron va O'rta Osiyoning asosiy yozma manbalari va tarixiy traktaklarida keltirilgan qimmatli ma'lumotlar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Tuman, xonlik, elchi, madrasa, harbiy yurish, qo'shin, sarboz, yozma manba, tarixiy manba.

Kirish. XVIII-asr o'rtalarida afshoriylar sardori Nodirshoh Buxoro va Xivani o'ziga bo'ysundira boshlaydi. Muhammad Qozim Marviy guvohlik berishicha, afshoriylar hukmdori Nodirshoh Rizoquli Mirzo bilan Abulfayzxon o'rtasidagi harbiy to'qnashuvdan qattiq xavotirda edi. U buxoroliklar harbiy qudratda ustunlikka ega va qizilboshlarga qattiq zarba bera oladi, deb hisoblardi. Nodirshoh to'ng'ich o'g'li Rizoquli Mirzodan ayrilib qolishdan qo'rqardi. Shuning uchun Ahmadxon Marvi vositachiligida Rizoquliyga maktub yo'llab, uni darhol Balxga qaytishga undaydi. Eron tarixchisi Nikzod Keloraziy Mir Nuroddinning ma'lumot berishicha, shunday sharoitda Nodirshoh Tahmasphon Jaloirga quyidagi mazmundagi alohida maktub yo'llaydi: "Mening buyrug'imga ko'ra, Balx ishg'ol qilingandan keyin Rizoquli Mirzo bilan birga o'sha yerda qolishing kerak edi. Menga quloq solmay, o'zingdan ancha kichik bo'lgan o'g'limni adashtirib (shu joyida yo'ldan urib desa ham bo'ladi jumla shu ma'noda kelgan), Movarounnahrni zabt etish bilan mashg'ul bo'lding. Bu bilan sen mening askarlarimning ham, o'g'limning ham hayotini xavf ostiga qo'yaypans" [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bu maktublar Nodirshoh Qandahorni qo'lga kiritgach, Hindistonga yurish niyatida bo'lgan bir paytda yuborilgan. U, agar Rizoquli Mirzo va Tahmasp Jaloir Movarounnaronda mag'lubiyatga uchasalar, u holda Hindistonni zabt etish orzusini ro'yobga chiqara olmaydi, deya taxmin qildi. Muhammad Kosim Marviyning "Nomi-yi Alamara-yi Nodiriy" traktatida

Tahmasp jaloirmi Nodirshoh ogohlantirgani qo'yidagicha qayd etilgan: Balxga qaytmasa, boshi kesiladi. Nodirshohning Qarshidan Balxga qo'shinlarni qaytarish haqidagi buyrug'i xususida manbalarda turli fikrlar bildirilgan [2]. Shunday qilib, Mirzo Mehdixon Astarobodiy "Jahonkushoi Nodiriy" asarida qizilbosh qo'shinlarining chaqirib olinishiga mashhur lashkarboshilar – Boboxon Choshlu va Azizqulibek Dadxohning o'limi sabab bo'lgan, deb hisoblaydi [3]. Mirzo Shamsi Buxoroiy esa qo'shinlarni olib chiqish sababini Nodirshohning ikki jabhada urush olib bora olmasligida deb biladi. Nodirshoh Abulfayzxonga xabar yuborib, uni qudratli va mustaqil davlat hukmdori deb hisoblaydi. G'arb tarixchilari Lokhart Lourens va Melkam Ser Jon ham shunday fikrda.

Nodirshoh Abulfayzxon Ashtarxoniy bilan ziddiyatga kirishishni istamaganligining sababi, Nodirshohning Hirot va Qandahorga yurishlari paytida Buxoro xoni betaraflikka amal qilganligi, ya'ni afshoriylar ishiga aralashmagan va raqiblarini qo'llab-quvvatlamaganligidadir. Muhammad Kozim Marviy qayd etganidek, Rizoquli va Tahmasp jaloir Qarshining ikkinchi qamalining boshida Nodirshohdan xat olib, Balxga qaytishga majbur bo'ladilar. Manbalarda aytilishicha, Rizoqulining Qarshi tomon yurishi otasidan bexabar amalga oshirilgan. Lekin Muhammad Kosim Marviy buning aksini yozadi. U bu borada Tahmasp Jaloirning bayonotlarini keltirdi. Nodirshohning so'zlariga Tahmasp shunday javob beradi: "Um-ul-bilod (shaharlar onasi) Balxni qo'lga kiritib, Amudaryoning narigi tomoniga o'tib, Qo'ng'iro't, Qarshi va Shelduk yerlarini qo'lga kiritishimizni buyurgan edingiz, biz

sizning buyrug'ingizga binoan harakat qildik. Agar bizni qaytarib chaqirmaganingizda edi, biz butun Movarounnahrni zabt etgan bo'lardik" [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Rizoquli Balxga qaytgach, Qunduz hukmdori Yusufxonning qizilboshlarga bo'ysunishdan bosh tortganidan xabar topdi. U hatto Balxning sobiq hukmdori Saidxonga boshpana bergan. Shuning uchun Rizoquli Qunduzga yurish qildi. Yusufxon Qunduzni tark etishga majbur bo'ldi. U va uning sheriklari Badaxshondan boshpana oldi. Rizoquli qo'shinlari ta'qibga tushib, Ko'lobga (Badaxshondan ikki-uch kunlik masofada joylashgan hudud) yetib olgach, Nodirshohdan ikkinchi maktub oladilar va u yerda shoh keyingi yurishni to'xtatib, Balxga qaytishni talab qiladi. Nodirshohning o'zi uzoq vaqtdan buyon O'rta Osiyo xonliklarini, birinchi navbatda, Buxoro va Xivani bosib olish rejasini ishlab chiqqan edi. Ammo 1736-1739 yillardagi sharoit buni amalga oshirishga imkon bermadi. U Mavvararonga harbiy yurishlar uchun ko'prik (trampolin) sifatida Marvni tanladi, chunki O'rta Osiyo xonliklari sarhadlariga yo'l o'sha yerdan boshlanar edi. Maqsadga erishishda - Nodirshoh qo'shinlarining Buxoro va Xiva tomon yurishida Marv asosiy kalit vazifasini bajarar edi. Aynan shu sababli, afshoriylar tomonidan zabt etilgan dastlabki hududlardan biri shu voha edi.

Muhammad Kozim Marviyning yozishicha, Nodirshoh Bobo Alibek Afshorning o'g'li Qalbalixonni Marvga hukmdor qilib tayinlagan va Shohqulibek eshik og'aboshi unvoniga sazovor bo'lgan. Nodirshoh Xurosonning turli mintaqalaridan 3000 dexqon xonadonini Marv viloyatiga ko'chirishga buyruq berdi. Ularga oziq-ovqat uchun yer ajratildi va vayron bo'lgan bog'larni tiklash va aholi punktlarini rivojlantirish buyurildi. Bundan tashqari, u turli mintaqalarda yashovchi barcha marvliklarga ortga qaytishni buyurdi. Ozarbayjonda xizmat qilayotgan marvlik harbiylar ham o'z vatanlariga kelishlariga to'g'ri keldi.

Nodirshoh puxta tayyorgarlikdan so'ng Buxoro tomon yo'l oldi. Nodirshohning O'rta Osiyoga yurishining sabablarini Lokhart Lourens ochib beradi: birinchidan, O'rta Osiyoda siyosiy birlikning yo'qligi, ikkinchidan, Nodirshohning mahalliy xonliklar ustidan o'z hokimiyatini kengaytirishga intilishi, uchinchidan, Xurosonning shimoliy chegaralarida xavfsizlikni ta'minlash, o'zbek va turkman qabilalarining doimiy hujumiga uchragan, to'rtinchidan, ayniqsa Xivada rus ta'sirining kuchayishiga yo'l qo'ymaslik [5]. Muhammad Kozim Marviyning yozishicha, Nodirshoh hujum boshlanishidan oldin Marv hukmdori Qalbalixon bilan o'z qo'shinini qo'shin, oziq-ovqat va qurol-yarog'lar bilan ta'minlash chora-tadbirlarini ko'rishni, shuningdek, Movarounnahrqa qarshi yurish chog'ida artilleriya snaryadlari ishlab chiqarishni so'radi.

Nodirshohning Movarounnahrni yoki Turon yurishi 1740 yilda Hindiston, Sind va Balujistonni bosib olgandan keyin amalga oshirildi. Nodirshoh Hirotda bo'lganida, Marv yaqinidagi Bandi Sultondan Murg'ob daryosi qirg'oqlarini qo'riqlashni o'z ixtiyorida besh yuzga yaqin odam bo'lgan ikki marvlik harbiy boshliqqa topshirdi. Nodirshohning topshirig'iga ko'ra, uning qo'shinlari kelguniga qadar ular Qurmach daryosidan to'siqsiz o'tishni ta'minlash uchun shu yerda qolishlari kerak edi. Movarounnahr yurishini amalga oshirish uchun Nodirshoh dastlab Balxga joylashdi, ya'ni, bu shahar ko'prik (trampolin) sifatida tanlangan. Nodirshoh qo'shinlarining soni haqida yozma manbalarda turli ma'lumotlar keltirilgan. Ular ellik mingdan bir yuz ellik ming kishigacha raqamlar beradi. "Nomi-yi Alamara-yi Nodiriy" xabarida "Eron qo'shinlarining boshi Chorjuda, oxiri esa Balxda bo'lgan" deb yozadi [6].

Eronlik tarixchi Nikzoda Kelorazi Mira Nuroddin Nodirshoh Movarounnahr bosqinidan oldin Termiz va Kelif chorrahalarida ponton ko'priklar qurishga va Balxga

bo'ysungan tumanlarga qo'shinlarni safarbar qilishga buyruq bergani haqida ma'lumot beradi [7]. Shunday qilib, hind duradgorlari tomonidan yaratilgan 1100 ta kema (kichik kemalar) Jeyhun (Amudaryo) suvlariga tushirildi. Kemalarning har biri ming manga qadar og'irlikni ko'tarishi mumkin edi. Bu kemalar artilleriya qismlari, bug'doy va daryoning narigi tomoniga o'tish uchun materiallar bilan to'ldirilgan edi. Qizilbosh qo'shinlari 1740-yil 10-avgustda Kelif o'tish joyiga yetib kelishdi. Bu hududga kemalar ham yetib keldi. 1740-yil 20-avgustda Nodirshoh qo'shini Nodirshohning bosh qarorgohi sifatida tanlangan Kerki hududiga joylashdi. Muhammad Vafoyi Karminaning yozishicha, 1740-yil sentabr oyi boshida Nodirshoh Buxoroni, keyin esa Xorazmni zabt etish niyatida Chordjou orqali Amudaryoning boshqa (chap) sohiliga o'tadi [8].

Bu vaqtda Abdulfoyxon rohatga berilib, hokimiyat tizginini Hakimxon otaliq mang'itga qo'ydi. "Tarixi Rahimxoniy" kitobida qayd etilganidek, Hakimxon xonning xatti-harakatidan norozi bo'lib, u bilan azaldan adovatda bo'lib, Abdulfoyxdan qo'rqardi. Nodirshohning yurishi u tomonidan najot sifatida qabul qilindi. Hakimxon Nodirshohga maktub yozar ekan, kamtarlik va itoatkorlik bildirdi. U Nodirshohning Buxoroga bostirib kirishini "omadli" deb hisobladi. Mirzo Abdal Azim Samiy ta'kidlaganidek, Hakimxon otaliq o'g'li Rahimbiyni Nodirshoh huzuriga nazr (qimmatbaho sovg'alar) bilan yuborib, Buxoroga taklif qiladi. Shu munosabat bilan Muhammad Vafoyi Karminaning "Tuhfat-al-xoni" da Muhammad Rahimbiy Nodirshoh huzuriga Qarshi va Hisor hukmdorlari va boshqa amaldorlar bilan birga kelgani va ularni sharaf bilan kutib olgani aytiladi. Buxoroliklar delegatsiyasi tarkibida Rahimbiyaning onasi ham bor edi, u unga shohga xizmat qilishni tavsiya qildi. Rahimbiyni samimiy kutib olishdi va shoh qarorgohiga jo' nab ketishdi.

Tahlil va natijalar. Nodirshoh Amudaryoning chap qirg'og'iga o'tganda Abdulfoyxon Qarshida edi. U dahshatga tushib, shohni sharafli mehmon sifatida qabul qilish niyatida Hakimxon otaliqning o'zini Nodirshoh qarorgohiga yuboradi. Hakimxon bu majlisga oliy martabali zotlar, Juybar shayxlari vakillari hamrohligida boy sovg'alar bilan yetib keldi. Ularni Nodirshoh munosib kutib oldi. Bu voqeani tahlil qilib, o'zbek tarixchisi M.A. Abduraimov bu uchrashuv Hakimxonning siyosiy mavqeini mustahkamlashda ijobiy rol o'ynadi, degan xulosaga keldi. Eronlik tadqiqotchi Rizoifaryam Maryam Ismoil shu munosabat bilan aytadiki, Hakimxon otaliq shoh bilan uchrashar ekan, unga mamlakatning ichki tanazzulini, beqaror siyosiy vaziyatni, aholining noroziligini va hokazolarni ochiqdan-ochiq aytib, sodiqlik bilan harakat qilishga tayyorligini bildiradi, shohga xizmat qiladi.

Yana bir eronlik tarixchi Kuzonlu Jamilning bu masala bo'yicha qayd etishicha, Hakimxon Abdulfoyxonning xabarlarini yetkazgach, Nodirshohni Qorako'lga taklif qilib, u yerda uchrashuv va muzokaralar o'tkazish rejalashtirilgan edi. Shoh ham Abdulfoyxonni o'z qarorgohida qabul qilib, muzokaralar olib borish istagini bildirdi. Bu majlisda Nodirshoh Hakimxonga katta vakolatlar berdi. Eron podshohi Hakimxonga maktub taqdim etib, uni Buxoroga vakil qilib yuboradi. Buxoroga qaytgan elchilar (delegatsiya) ning natijalari haqida Buxoro xoniga xabar beradi. Lekin yozma manbalarda yozilishicha, Hakimbiy otaliq Nodirshoh bilan uchrashib, Buxoroga kelganidan keyin Abdulfoyxon bilan uchrashishni istamagan.

Mir Arab madrasasini o'ziga qarorgoh qilib tanladi va shu yerda muqim bo'ldi. So'ng o'z izdoshlarini yig'ib, yig'ilish o'tkazib, ularga jamoat joylarida (bozorlar, masjidlar, mahallalar) bundan buyon odamlar o'zlarining barcha muammolarini hal etish uchun Hakimbiy otalikka murojaat qilishlari haqidagi xabarni yetkazish vazifasini qo'ydi. Bundan xabar topgan buxoroliklar Mir Arab madrasasiga tobora

ko'proq kela boshladilar. Shu tufayli Hakimbiy otaliqining xalq orasida nufuzi orta boshladi. Ammo saroy a'yonlariga bu yoqmadi. Ular Hakimbiyning bu harakatini hukumatga xiyonat, aholiga nisbatan hurmatsizlik, deb baholadilar.

Bunday keskin vaziyatda Abulfayzxon o'z a'yonlarining talabiga ko'ra Arkda majlis o'tkazib, shaharni qizilboshlar hujumi tahdididan himoya qilish masalalarini hal qilishga qaror qiladi. Bu majlisga Hakimbiy otaliq ham taklif qilingan. Biroq, u uchrashuvda qatnashishdan bosh tortdi. Shundan so'ng Abulfayzxon va uning atrofida gilar reja tuzib, unga ko'ra yuzaga kelgan muammolarni muhokama qilish uchun Mir Arab madrasasiga borishga va uchrashgandan so'ng Hakimbiy o'rab olib, qatl etishga qaror qiladilar. Biroq xon va uning atrofida gilar asl niyatidan xabar topgan Hakimbiy qarshilik ko'rsatadi. Xon Hakimbiy otaliqqa qarab yurganida, Mir Arab madrasasidan unga qarata o't ochiladi. Abulfayzxon Arkga qaytishga majbur bo'lib, Nodirshohga taslim bo'ldi.

Abulfayzxon nufuzli amaldorlar orasidan tarafdorlari hamrohligida Nodirshoh bilan yuzma-yuz uchrashuvga borishga qaror qiladi. Xon mulozimlari Namozgoh darvozasidan Nodirshoh huzuriga bordilar. Hakimbiy otaliq bir guruh qurolli kishilar bilan ularning orqasidan ergashdi. Eron tarixchisi Ahmad Panoh Simnoniyning yozishicha, Abulfayzxon Nodirshoh huzuriga "Amir Temur Kuragoniyning to'rt ko'z gusi" va "Marhum Chingizxon oltinlari" kabi sovg'alar bilan kelgan [9]. Uch rahbarning

(Abulfayzxon, Hakimbiy otaliq va Nodirshoh) uchrashuvi Buxoro yaqinida Zaravshon qirg'og'idagi Chahor-Bakr shahrida bo'lib o'tdi. Yig'ilishda Hakimbiy tavozening barcha zohiriy ko'rinishini namoyon etgan, xon ham otalikka odob va rahm-shafqat ko'rsatgan.

Bu uchrashuvning asosiy natijasi Nodirshohning Buxorodagi juma namozi xutbalarida o'z nomini tilga olish va tangalarga zarb qilishni buyurganligidir. Abulfayzxon Eron shohining vassali sifatida qoldi. Lekin, aslida, butun hokimiyat Hakimbiy otalikka o'tdi. Bundan tashqari, Rahimbiy (Hakimbiy otaliqning o'g'li) boshchiligidagi 10 ming buxorolik sarboz (askar) Nodirshoh qo'shiniga xizmat qilish uchun ketgan.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, afshoriylarning Buxoro xonligi hududiga olib borgan harbiy yurishlarining asosiy natijasi quyidagicha bo'ldi: birinchidan, ashtarxoniylar hukmdori Abulfayzxon Nodirshohning vassaliga aylandi; ikkinchidan, Amudaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan yerlar Abulfayzxon tasarrufida qoldirildi, Buxoro xonligining Amudaryoning chap qirg'og'ida joylashgan yerlari (Chordjou, daryoning janubi va shimolidagi yerlar, shuningdek, Balx) Eronga o'tib ketdi; uchinchidan, Nodirshoh Abulfayzxonning qizlaridan biriga uylanib, ashtarxoniylar bilan oilaviy aloqalarni mustahkamladi, Nodirning jiyani Aliquli Mirzo ham Abulfayzxonning boshqa qiziga uylandi; to'rtinchidan, Nodirshohning Buxoroni bosib olishi ashtarxoniylar (Joniyar) hukmronligiga chek qo'ydi.

ADABIYOTLAR

1. Nikzad Kelorazi Mir Nuroddin. Eronning Buxoro va Xiva xonliklari bilan XVII-XVIII asrning birinchi yarmida harbiy-siyosiy va diplomatik munosabatlari. t.f.n diss. Dushanbe, 2015. - 169 b.
2. Muhammad Kosim Marviyning "Nomi-yi Alamara-yi Nodiriy", -T.I-II-III. / N. D. Mikluxo-Maklay. Matnning nashri, so'zboshi va umumiy nashri. O.D.Shcheglova. Indekslar va izohli mundarija. T. II/M. -M., 1965 -B. 586-587
3. Mirzo Mahdixon Astarobodiy. Jahonkushoi Nodiriy. / Said Abdullohning izni bilan Anvar/MM Astarobodiy. - Tehron, 1377y - B. 266-269.
4. Muhammad Kosim Marviyning "Nomi-yi Alamara-yi Nodiriy", -T.I-II-III. / N. D. Mikluxo-Maklay. Matnning nashri, so'zboshi va umumiy nashri. O.D.Shcheglova. Indekslar va izohli mundarija. T. II/M. -M., 1965 -B.587
5. Lukhart, Lorens. Nodirshoh (forscha). Tarj. Rashidi Yosami/L. Lorens. - Tehron: Dunyo kitob.1382/2003
6. Muhammad Kosim Marviyning "Nomi-yi Alamara-yi Nodiriy", -T.I-II-III. / N. D. Mikluxo-Maklay. Matnning nashri, so'zboshi va umumiy nashri. O.D.Shcheglova. Indekslar va izohli mundarija. T. II/M. -M., 1965 -B.588
7. Nikzad Kelorazi Mir Nuroddin. Eronning Buxoro va Xiva xonliklari bilan XVII-XVIII asrning birinchi yarmida harbiy-siyosiy va diplomatik munosabatlari. t.f.n diss. Dushanbe, 2015. - 170 b.
8. Muhammad Vafoyi Karminagi. Tuxfai xani (xon tuhfasi). A. Rudakiy nomidagi til, adabiyot, sharqshunoslik va yozma meros institutining 1426-sonli qo'lyozmasi. AN RT.
9. Ahmad Panoh Simnoniy. Nodirshoh: jasorat va milliy fojia aksi.-Tehron, 1368 yil.



Nurullo TURSUNOV,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Tarix fanlari kafedrası dotsenti, tarix fanlari doktori

E-mail: nurullo2447603@gmail.com

Faxriddin YORMATOV,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi

TISU dotsenti, t.f.d. M.Fayzullayeva taqrizi asosida

DO'STLIK VA ISHONCHGA ASOSLANGAN O'ZBEKISTON – CHEXIYA RESPUBLIKALARI HAMKORLIGI TARIXIDAN

Annotatsiya

Maqolada O'zbekiston Respublikasi va Chexiya Respublikasi o'rtasida o'ziga xos ilk hamkorlik munosabatlarining o'rnatilish tarixi haqida qichqacha ma'lumotlar berilib, keyingi yillarda bu hamkorlikning yanada rivojlanganligi va yangi qirralari haqida batafsil so'z yuritilgan. O'zbekiston Respublikasi va Chexiya Respublikasi o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy, savdo va madaniy sohalarida olib borilayotgan ikki tomonlana aloqalar hamda strategik hamkorlik natijalari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Respublikasi, Chexiya Respublikasi, hamkorlik, strategik, Prezident, savdo, iqtisodiyot, madaniyat, diplomatik, ilmiy-texnikaviy hamkorlik, Toshkent, Praga, investitsiya.

ИЗ ИСТОРИИ УЗБЕКИСТАНА-ЧЕШСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА, ОСНОВАННОГО НА ДРУЖБЕ И ДОВЕРИИ

Аннотация

В статье представлена подробная информация об истории установления уникальных первых отношений сотрудничества между Республикой Узбекистан и Чехией, а также подробно рассмотрены дальнейшее развитие и новые аспекты этого сотрудничества в последующие годы. Представлена информация о двусторонних отношениях между Республикой Узбекистан и Чехией в социально-экономической, торговой и культурной сферах, а также результатах стратегического сотрудничества.

Ключевые слова: Республика Узбекистан, Чехийская Республика, партнерство, стратегическое, Президент, торговля, экономика, культура, дипломатическое, научно-техническое сотрудничество, Ташкент, Прага, инвестиции.

FROM THE HISTORY OF UZBEKISTAN-CZECH COOPERATION BASED ON FRIENDSHIP AND TRUST

Annotation

The article provides detailed information about the history of the establishment of the unique first cooperative relationship between the Republic of Uzbekistan and the Czech Republic, as well as the further development and new aspects of this cooperation in subsequent years. Information is presented on bilateral relations between the Republic of Uzbekistan and the Czech Republic in the socio-economic, trade and cultural spheres, as well as the results of strategic cooperation.

Key words: Republic of Uzbekistan, Czech Republic, partnership, strategic, President, trade, economics, culture, diplomatic, scientific and technical cooperation, Tashkent, Prague, investments.

Kirish. Chexiya Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi o'rtasidagi hamkorlik aloqalari mustaqilligimizning ilk yillaridanoq o'rnatildi. O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini Chexiya Respublikasi 1992-yil 24-yanvar kuni tan olib, 1993-yil 1-yanvarda esa o'zaro hamkorlik munosabatlari yo'lga qo'yildi. Chexiya Respublikasi tomonidan 1992-yil Toshkentda Savdo vakolatxonasi faoliyat yurita boshlagan bo'lsa, 1993-yilga kelib, ikki davlat o'rtasida savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlik to'g'risidagi hukumatlararo bitim tuzilib, ikki davlat hamkorligi yanada jadallasha boshladi. Ijtimoiy-madaniy hamkorlik borasida ham o'ziga xos ishlar amalga oshirildi. O'zbekistonning yosh iste'dodlari 1994-yildan buyon Chexiyaning Liditsa shahrida o'tadigan an'anaviy Jahon bolalar ijodiyoti ko'rgazmasida qatnashib keladi. Chexiya hukumati O'zbekistonlik talaba va tadqiqotchilar uchun har yili grantlar ajratmoqda.

1997-yil 14-16 yanvar kunlari O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning Chexiya Respublikasiga qilgan rasmiy tashrifi ikki hamkor va do'st mamlakatlar o'rtasidagi aloqalarning yanada rivojlanishiga sabab bo'ldi desak, aslo mubalog'a bo'lmaydi. Tahrif chog'ida ko'plab kelishuvlarga erishilib, bir qator

shartnomalar tuzildi. Bu borada: "Sarmoyalarni o'zaro rag'batlantirish va himoyalash, tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqaruvchi muassasalar va milliy banklarning hamkorligi to'g'risidagi"gi shartnoma shular jumlasidandir.

1997-yil 27-29 oktabrida Chexiya Respublika Bosh vazirri V. Klaus mamlakatimizga rasmiy tashrif buyuradi. Bu tashrif ikki hamkor va do'st davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqdi. 2003-yili ikki davlat o'rtasidagi tashqi savdo aylanmasi 39,4 mln. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, uning 19,8 mln. dollari eksport va 19,7 mln. dollari importdan iborat bo'ldi.

Bugungi kunda yurtimizda Chexiya investitsiyasi asosida tashkil etilgan 28 ta qo'shma korxonalar faoliyat yuritmoqda. Bundan tashqari, madaniy va ta'lim sohasida ham aloqalar kun sayin rivojlanib bormoqda. 2003-yildan boshlab O'zbekiston FA Arxeologiya instituti Praga Universitetining Karlova nomidagi klassik arxeologiya instituti bilan O'zbekistonning janubiy mintaqalari antik madaniyatini o'rganish yo'lida hamkorlik qilib kelmoqda [1].

Tahlil va natijalar. Toshkentda 2004-yilning oktabr oyiga kelib, Chexiya Respublikasi elchixonasining ochilishi ikki do'st va hamkor mamlakatlar o'rtasidagi aloqalarning yanada keng rivojlanishiga sabab bo'ldi. Birinchi

Prezidentimiz Islom Karimovning taklifiga binoan Chexiya Respublikasi Prezidenti Vatslav Klaus 2004-yilning 12-15 sentabr kunlari rasmiy tashrif bilan yurtimizda bo'ldi. Uchrashuv chog'ida Prezidentlar o'zaro munosabatlarning bugungi ahvolini tahlil etib, istiqbollarini muhokama qildilar, tomonlarni qiziqtirgan xalqaro muammolar yuzasidan fikr almashdilar. Ushbu tashrif O'zbekiston-Chexiya munosabatlarini hamda o'zaro hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarishi ta'kidlandi. Suhbat chog'ida ikki davlat tomonidan savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiyaning faoliyatiga, terrorchilik va diniy ekstremizmga, noqonuniy muhojirlik va qurol-yarog' savdosiga, uyushgan jinoyatchilik va narkobiznesga qarshi kurashda hamkorlikni yanada kuchaytirish masalalariga alohida e'tibor berilishi to'g'risida ham kelishib olindi.

Davlat rahbarlarining muloqoti ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalarining kengaytirilgan tartibdagi muzokarasida davom etdi. Muzokarada savdo-iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish va ijtimoiy sohadagi aloqalarni faollashtirishga oid masalalar asosiy o'rin egalladi. 2004-yil 28-iyun kuni "iqtisodiyot, sanoat va ilmiy-texnikaviy sohalarda hamkorlik bo'yicha" yangi bitimni imzoladi. O'zbekistonda 2004-yilda chexiyalik ishbiarmonlar sarmoyasi ishtirokida tuzilgan 30 ta korxonalar tashkil qilgan. Ular xalq iste'moli mollari, oziq-ovqat mahsulotlari, qurilish materiallari, dori-darmon ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohasida faoliyat ko'rsatmoqda. Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligida Chexiyaning "Eriell Korporatsiya", "Marts TsZ", "Tomas Praga", "ChKD Nove Energo", "Ayveks-ChR", "Yason Trevel", "Yantsen" kabi kompaniyalari ro'yxatdan o'tgan.

O'zbekiston Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki Chexiyaning "Cheshka Sportelna", "Investichni a postovni bank", "Komerchni bank", "Chek eksport bank" kabi banklari bilan aloqa o'rnatgan. "Asaka" banki "Obxodni bank" bilan hamkorlik qilmoqda.

O'zbekiston va Chexiya savdo-sanoat palatalari o'rtasidagi hamkorlik hamda sayyohlik, farmatsevtika, neft-gaz, kimyo sanoati korxonalarini yaqindan hamkorlik olib borilmoqda. O'zbekistonga Chexiyaning tramvay va trolleybuslari keltirilmoqda. "V.P.Chkalov nomidagi Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi" davlat aktsiyadorlik jamiyati bilan Chexiya mudofaa vazirligi o'rtasida harbiy-transport samolyotlarini etkazib berish borasida muzokara olib borilmoqda. Ayni paytda O'zbekiston-Chexiya hamkorligida 16 ta loyiha ishlab chiqilmoqda [2].

O'zbekiston Chexiyaga asosan paxta tolasi, matolar, ayrim rangli metallarni sotadi, Chexiyadan esa uskunalar, rezina buyumlar va dori-darmon oladi. Binobarin, O'zbekistonda Chexiya mahsulotlariga, Chexiyada O'zbekiston mahsulotlariga talab va ehtiyoj bor. Ikki mamlakat iqtisodiyotida bir-biriga to'g'ri kelmaydigan tarmoqlar deyarli yo'q, aksincha, ko'pgina sohalarda ular bir-birini to'ldira oladi. Yurtimizda "Tatra", "Shkoda" kabi kompaniyalarni yaxshi bilishadi. Ikki tomonlama manfaatli sohalarda hamkorlikni kuchaytirish uchun yanada kengroq qulaylik yaratish lozim.

Fanlar akademiyasi, Qishloq va suv xo'jaligi, Xalq ta'limi, Sog'liqni saqlash vazirliklarining ilmiy muassasalari o'rtasida materialshunoslik, tibbiyot, mikroelektronika, yadro fizikasi, mashinasozlik, farmakologiya kabi sohalarda yaqin hamkorlik olib borilmoqda.

O'zbekiston Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki bilan "Chexoslovenska obxodni banka A.S.2" o'rtasida kredit bitimi imzolandi. Jurnalistlar bilan uchrashuvda Islom Karimov va Vatslav Klaus muzokara natijalari haqida so'zlab, muloqot o'zaro ishonch ruhida o'tganini ta'kidladilar. Muzokaralar, imzolangan hujjatlar o'z samarasini berishiga, ya'ni o'zaro hamkorlik barcha sohalarda yangi pog'onaga

ko'tarilishiga ishonch bildirildi. Chexiya Prezidentiga Milliy universitetning Faxriy doktori unvoni berildi. O'zbekiston va Chexiya o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi o'tgan yili 2011-yilga nisbatan 32,3 foizga oshib, 77,5 million, joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida esa 77,8 million AQSh dollarini tashkil qildi[3].

Shavkat Mirziyoyev Prezident etib saylangandan so'ng, bu ikki davlat o'rtasidagi aloqalar yanada kuchaydi. Prezidentimiz 2023-yil 25-aprel kuni Toshkent shahrida rasmiy tashrif bilan bo'lib turgan Chexiya Bosh vazirri Petr Fiala boshchiligidagi hukumat delegatsiyasini qabul qildi. O'zbekiston-Chexiya munosabatlarini yanada rivojlantirish va ikki mamlakat o'rtasidagi amaliy hamkorlikni ustuvor yo'nalishlarini muhokama qilishdi. Chexiya O'zbekistonning Yevropadagi an'anaviy hamkoridir. Joriy yilda ikki tomonlama diplomatik munosabatlar o'rnatilganining 30 yilligi nishonlanmoqda. Keyingi bir necha yilda o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 2 barobarga, qo'shma korxonalar va loyihalar soni esa 2,5 barobarga ortdi.

Bugungi kunda qurilish materiallari, tibbiy uskunalarini ishlab chiqarish, ishbiarmonlik infratuzilmasini rivojlantirish loyihalari amalga oshirilmoqda. Ta'lim, sog'liqni saqlash va madaniyat sohasidagi almashinuvlar har doimgidek faol. Mazkur tashrif doirasida O'zbekiston - Chexiya arxeologik ekspeditsiyasining 20 yilligiga bag'ishlangan ko'rgazma ochildi. Uchrashuv chog'ida o'z mintaqalarida sanoat peshqadamlari bo'lgan mamlakatlarning o'zaro manfaatli hamkorligida mavjud salohiyatni samarali ishga solish muhimligi alohida ta'kidlandi.

Hukumatlararo komissiya ishini faollashtirish va uning navbatdagi yig'ilishini o'tkazish zarurligi qayd etildi. Ishbiarmonlar kengashining faoliyatini qayta yo'lga qo'yilmoqda, uning doirasida O'zbekiston va Chexiya poytaxtlari va hududlarida biznes-forumlarni muntazam o'tkazib borish rejalashtirilmoqda. Gumanitar almashinuvni kengaytirish, shu jumladan, Chexiyaning yetakchi oliy ta'lim muassasalarida o'zbekistonlik talabalarning tahsil olishi uchun kvotalarni ko'paytirish va madaniy tadbirlar dasturini qabul qilish masalalariga alohida e'tibor qaratildi [4].

Chexiya Respublikasi mamlakatimizning Yevropadagi eng muhim hamkorlaridan biri sanaladi. Keyingi paytda, ayniqsa, iqtisodiy, investitsiyaviy munosabatlar tobora mustahkamlanib, o'zaro savdo aloqalari uchun qulay muhit yaratildi. Natijada, tovar ayirboshlash hajmi yil sayin ortmoqda. Xususan, 2022-yil davomida o'zaro savdo hajmi 184,8 million AQSH dollari, jumladan, eksport- 30,5 million AQSH dollari, import-154,2 million AQSH dollarini tashkil etdi.

Chexiyada yurtimizda ishlab chiqarilgan tabiiy mato va gazlamalar, shuningdek, xizmatlarga talab katta bo'lsa, o'z navbatida, mamlakatimizga farmatsevtika mahsulotlari, qurilish materiallari, elektrotexnika buyumlar yetkazib beriladi [5].

2023-yil 10-11 oktabr kunlari Chexiya Bosh vazirri Petr Fialaning taklifiga binoan O'zbekiston Bosh vazirri Abdulla Aripov boshchiligidagi hukumati delegatsiyasi rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo'ldi. Tashrif yakunlari bo'yicha umumiy qiymati 800 million yevrodan ziyod investitsiya bitimlari va savdo shartnomalari imzolandi. Hukumat delegatsiyasi Brno shahrida an'anaviy tarzda 60 yildan beri har yili o'tkazib kelinayotgan "MSV - 2023" xalqaro sanoat ko'rgazmasida ishtirok etdi. Uning rasmiy ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirri Abdulla Aripov so'zga chiqdi [6].

Ushbu ko'rgazmada 43 davlatdan 1260 ta kompaniya ishtirok etib, O'zbekiston delegatsiyasi alohida stand bilan ilk bor qatnashdi. "Made in Uzbekistan" Milliy standda avtomobilsozlik, elektrotexnika, kimyo sanoati, qurilish

materiallarini ishlab chiqarish borasidagi namunalar namoyish etildi.

Praga shahrida ikki mamlakat Bosh vazirlari ishtirokida O'zbekiston-Chexiya biznes forumi bo'lib o'tdi. Unda Abdulla Aripov va Petr Fiala siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va madaniy-gumanitar sohalarda ishonchni oshirish orqali ikki tomonlama munosabatlarni chuqurlashtirish istiqbollarini nazarda tutuvchi kengaytirilgan hamkorlikni o'rnatish to'g'risidagi qo'shma deklaratsiyani qabul qildi.

Delegatsiya rahbarlari ishtirokida hamkorlikni faollashtirishga qaratilgan quyidagi ikki tomonlama hujjatlar imzolandi:

O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Chexiya Respublikasi Hukumati o'rtasida Shaxslarning readmissiyasi va tranziti to'g'risida bitim;

O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Chexiya Respublikasi Hukumati o'rtasida Shaxslarning readmissiyasi va tranziti to'g'risida bitimning ijro bayonnomasi;

O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Chexiya Respublikasi Hukumati o'rtasida diplomatik pasport egalari viza talablaridan ozod etish to'g'risida bitimlar [7] imzolandi.

Bugungi kunda O'zbekiston va Chexiya o'rtasidagi qishloq xo'jaligi sohasidagi savdo aloqalari ijobiy o'sish dinamikasini ko'rsatmoqda.

Bu ishlarning davomi o'laroq, O'zbekiston Qishloq xo'jaligi vaziri hamda Chexiya Respublikasi Qishloq xo'jaligi vaziri Marek Vybormiy o'rtasida anglashuv memorandumini imzolandi. Bu esa ikki davlat savdo salohiyatini yanada oshirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

2022-yil boshidan joriy yilning oktyabr oyigacha mamlakatlar o'rtasidagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining tovar ayirboshlash hajmi bor yo'g'i 4 million dollarni tashkil etgan. Bugungi bo'lib o'tgan biznes-forum esa bu ko'rsatkichni bir necha barobarga oshirishga xizmat qiladi [8].

O'zbekiston Respublikasi hukumati bilan Chexiya Respublikasi hukumati o'rtasida kengaytirilgan hamkorlikni o'rnatish to'g'risida [9] qo'shma deklaratsiya imzolandi.

2023-yil 18-iyul kuni Toshkentdagi Hilton mehmonxonasida O'zbekiston - Chexiya biznes forumi bo'lib o'tdi. O'zbekiston-Chexiya hukumatlararo komissiyasining 9-yig'ilishi doirasida tashkil qilingan mazkur forumda O'zbekiston tog'-kon sanoati va geologiya vaziri Bobir Islamov hamda Chexiya Respublikasi sanoat va savdo vaziri Yozef Sikela, shuningdek ushbu vazirliklarning rahbar va mas'ul xodimlari qatnashishdi.

Forumda tog'-kon sanoati, ko'mir sifatini boshqarish tizimi, geologik tadqiqotlar, tog'-kon uskunalari ishlab chiqarish, misni qayta ishlash, muhim foydali qazilmalarni (pegmatitlarni) qazib olish va qayta ishlash, shisha buyumlar ishlab chiqarish va boshqa yo'nalishlarda hamkorlik hamda investitsiya loyihalarini amalga oshirish imkoniyatlari muhokama qilindi. Tadbirda vazirliklar rahbarlari ikki tomonlama xalqaro hamkorlik anglashuv memorandumini imzoladilar [10].

2023-yil 26-aprelda Prezident Shavkat Mirziyoyev Chexiya Respublikasi Bosh vaziri Petr Fiala boshchiligidagi hukumat delegatsiyasini qabul qildi [11]. O'zbekiston va Chexiya hamkorlikning har bir yo'nalishi bo'yicha ishchi guruhlar tuzish va "yo'l xarita" larini ishlab chiqadi. Bu haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Chexiya Bosh vaziri bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda ma'lum qilindi.

Mazkur kelishuvga binoan, qazib chiqarish tarmog'i, energetikani modernizatsiya qilish, energetik mashinasozlik, elektrotexnika, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik va charm sanoati, transport va logistika, to'g'ridan to'g'ri aviaqatnovlarni yo'lga qo'yish, transport yo'laklarini rivojlantirish va boshqalar ustuvor yo'nalishlar sifatida qayd etildi. O'zbekistonda Chexiyaning ilg'or texnologiyalarini keng joriy qilishga qaratilgan loyihalarni qo'llab-quvvatlash va birgalikda moliyalashtirish vositalaridan foydalanish muhimligi ko'rsatib o'tildi.

O'zbekiston va Chexiya oliy ta'lim muassalari o'rtasida ham o'zaro ilmiy aloqalar kun sayin kengaymoqda. Termiz iqtisodiyot va servis universiteti ham Chexiyaning bir qator nufuzli oliy o'quv yurtlari bilan ilmiy hamkorlik aloqalarini o'rnatgan. 2024 yil 3-17 iyun kunlari Termiz iqtisodiyot va servis universiteti professor-o'qituvchilari Chexiyadagi Yevropa amaliy fanlar va menejment institutida "Ta'limda sun'iy intellekt: istiqbollarini va oqibatlarini" mavzusidagi malaka oshirish kurslarida ishtirok etishdi.

Mazkur kursda universitet professor-o'qituvchilari oliy ta'limda sun'iy intellektdan samarali foydalanish, uning salbiy ta'sirining oldini olishga bag'ishlangan yangiliklardan xabardor bo'lishdi.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, shunday xulosa qilish mumkinki, o'tgan davr mobaynida, ikki do'st va hamkor davlatlar O'zbekiston va Chexiya Respublikalari o'rtasida keng qamrovli hamkorlik aloqalari olib borilib, katta yutuqlarga erishildi. O'zaro do'stlik va hamkorlikka asoslangan bu aloqalar kelgusida bundanda yuksalishi muqarrardir.

ADABIYOTLAR

1. <http://geografiya.for.uz/yevropa-mamlakatlari/628-chexiya.html>
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_%E2%80%94_Chexiya_munosabatlari
3. <https://darakchi.uz/oz/3124> Jamiyat 12.11.2013, 09:14
4. <https://zamin.uz/jamiyat/115453-shavkat-mirziyoyev-chexiya-bosh-vaziri-boshchiligidagi-delegatsiyani-qabul-qildi.html>
5. <https://gov.uz/oz/lists/view/1191/>
6. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/10/12/czech/>
7. <https://buzb.uz/uz/news/chexiyada-ozbekiston-chexiya-biznes-forumi-bolib-otdi>
8. <https://www.agro.uz/131023-1/>
9. <https://lex.uz/uz/docs/-6669623>
10. <https://old.gov.uz/uz/news/view/>
11. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/04/26/innoprom/>



UDK: 9(58)+070+301.33(584.4)

Ravshan TURSUNOV,
O'zbekiston Milliy universiteti professori v.b.
E-mail: ravshan.tursunov.1980@mail.ru
O'zMU professori, t.f.d. D.Urakov taqrizi asosida

COVERAGE OF HUNTING ISSUES IN THE GOVERNMENT OF TURKESTAN IN THE END OF THE XIX CENTURY – THE BEGINNING OF THE XX CENTURY

Annotation

In the article, the issues of hunting and hunting business in the territory of Turkestan in the end of the 19th - beginning of the 20th century, as well as the procedures related to it, are researched based on the documents of the National Archives of Uzbekistan. The measures and projects implemented for the introduction of the hunting procedure in the country are included in scientific consumption. The article also explains that many species of animals and birds are in danger of extinction due to the hunting processes carried out in the country, and this situation has had a negative impact on the ecosystem of the region.

Key words: General Governor of Turkestan, ecology, fauna, hunting, community of hunters, right to hunt, hunting dogs and birds, illegal hunting, Tashkent hunting society.

РАЗЪЯСНЕНИЕ ВОПРОСОВ ОХОТЫ В ТУРКЕСТАНСКОЙ ТЕРРИТОРИИ В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКА

Аннотация

В статье на основе документов Национального архива Узбекистана исследуются вопросы охоты и охотничьего дела на территории Туркестана в конце XIX - начале XX века, а также связанные с этим процедуры. Реализуемые мероприятия и проекты по внедрению охотничьего порядка в стране включаются в научное потребление. В статье также поясняется, что многие виды животных и птиц находятся под угрозой исчезновения из-за осуществляемых в стране охотничьих процессов, и эта ситуация оказала негативное влияние на экосистему региона.

Ключевые слова: Туркестанский генерал-губернатор, экология, животный мир, охота, сообщество охотников, право охоты, охотничьи собаки и птицы, незаконная охота, Ташкентское охотничье общество.

XIX ASRNING OXIRI – XX ASR BOSHIDA TURKISTON O'LKASIDA OVCHILIK MASALALARINING YORITILISHI

Annotatsiya

Maqolada XIX asrning oxiri – XX asr boshida Turkiston o'lkasida ov va ovchilik masalalari hamda u bilan bog'liq bo'lgan tartib-qoidalar O'zbekiston Milliy arxivi hujjatlari asosida tadqiq etilgan. O'lkada ov qilish tartibini joriy etish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar va loyihalar ilmiy iste'molga kiritilgan. Shuningdek, maqolada o'lkada amalga oshirilgan ov jarayonlari oqibatida ko'plab hayvonot va qushlarning turlari yo'qolish xavfi ostida qolganligi, bu holat esa mintaqa ekotizimiga salbiy ta'sir ko'rsatganligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Turkiston general-gubernatorligi, ekologiya, fauna, ovchilik, ovchilar jamoasi, ovchi itlar va qushlar ovchilik qilish huquqi, noqonuniy ovchilik, Toshkent ovchilik jamiyati.

Kirish. Kishilik jamiyatiga qaraydigan bo'lsak, insoniyat ibtidoiy jamiyat davridan boshlab ovchilik bilan shug'ullanib kelgan. Odamlar dastlabki davrlarda yirtqich hayvonlar hamlasi qurboniga aylangan bo'lsa, keyinchalik ular ustidan nazoratni o'rnatishga erishganlar. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, insoniyat tomonidan keyinchalik ko'plab hayvonlar va qushlarni ovlash orqali ularning turlarini qirilib ketishiga sabab bo'lgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Rossiya imperiyasi Turkiston o'lkasini bosib olgandan so'ng, Turkiston mintaqasining tabiiy shart-sharoitlari va tabiiy resurslari hamda flora-faunasini o'rganish borasidagi say'harakatlari yanada kuchayganligini alohida ta'kidlash kerak. Mavzuga oid manbalar va adabiyotlarni o'rganish jarayonida shuni ko'rish mumkinki, o'rganilayotgan davr bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ularda mintaqadagi ovchilik masalasi va u bilan bog'liq ekologik muammolar tadqiq etilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tarix fanida umume'tirof etilgan tarixiy metodlar, jumladan, tarixiylik, izchillik, mantiqiy tahlil, xolislik tamoyillaridan foydalanilib, XIX asr oxiri – XX asr boshida Turkiston o'lkasida ovchilik masalasi tarixi arxiv hujjatlari asosida yoritib berilgan.

Tahlil va natijalar. XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshida Turkiston o'lkasida ham ov va ovchilik jarayonlari alohida ahamiyatga ega bo'lib, uni tartibga solish borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Ovchilik borasida meyoriy xujjatlar qabul qilinadi. Chunki bu davrga kelib mahalliy aholi va boshqa millat vakillari tomonidan hayvonlar va qushlarni ayovsiz tarzda ovlashayotganligi jiddiy sabab bo'lgan.

1886 yilning 21 oktabr kuni Rossiya imperiyasi harbiy vaziri P.S.Vannovskiy (1881-1898 yy.) "Harbiy qo'shinlarda ov mashg'ulotlarini joriy qilish to'g'risida"gi oliy farmonni imzolaydi[1]. Xujjatda bu farmon yoki harbiy ovchilik tartibi Finlyandiya Buyuk Knyazligi hududida mahalliy qonunchilikka asoslanib, amalga oshirilishi ko'rsatilgan bo'lsa-da, farmon ijrosini ta'minlash maqsadida vazirlikning 260-sonli buyrug'i chiqarilib, hududlarga jumladan, Turkiston general-gubernatorligiga ham ijro uchun yuborilgan. Mazkur farmonga ko'ra, piyoda va otliq harbiy qo'shinlarning har bir qismi tegishli mashg'ulotlar asosida oldindan tayyorgarlikdan o'tgan va jangovor sharoitda juda xavfli, shuningdek, shaxsiy topqirlik talab qilinadigan maxsus topshiriqlarni bajarishga shay odamlarga ega bo'lishi kerak bo'lgan. Qayd qilingan

odamlar faol, kuchli, chaqqon, o'q otishda mohir (ham otliq, ham piyoda sifatida) va umuman olganda, yuqorida ko'rsatilgan maqsadlarni amalga oshirish qobiliyatiga ega insonlar orasidan saralab olinishi shart bo'lgan. Tayyorgarlikni yuqori darajada tashkil qilish maqsadida ularni muayyan harbiy qismning alohida ovchilar jamoasi sifatida shakllantirishga ruxsat beriladi. Jamoa mashg'ulotlari piyoda qo'shinlarida yirtqich hayvonlarni ovlash, otliq qo'shinlarda esa, itlar bilan ov qilishga qaratiladi. Bu mashg'ulotlar, imkon boricha, razvedka va hududni o'rganish bo'yicha vazifalar bilan uyg'unlashtirilishi lozim[2].

Rossiya imperiyasi harbiy vazirining "Harbiy qo'shinlarda ov mashg'ulotlarini joriy qilish to'g'risida"gi oliy farmoni asosida tashkil topgan 5-Turkiston chiziqli batalyoni ovchilar jamoasi faoliyati ham alohida e'tiborga loyiq. 1894 yil 4 yanvar kuni batalyonning 15 nafardan iborat ovchilar jamoasi Amudaryo bo'limi Dau Qora katta yo'lidagi Chimboy bo'limidagi hududlarda ov jarayonini tashkil etadi. Batalyon a'zolari to'plagan ma'lumotlarga ko'ra, ushbu hududlarda yo'lbarslar ko'p bo'lib, ular mahalliy aholining chorvalariga zarar yetkazgan, hattoki, odamlarni yeb qo'ygan holatlar ham kuzatilgan ekan. 5-Turkiston chiziqli batalyoni leytenanti F.N.Kolushevning yozishicha, 1894 yilning 10 yanvaridan to 21 yanvariga qadar ovchilar jamoasi faqatgina bitta yovvoyi cho'chqani va yo'lbarsni ovlashgan. Muallifning yozishicha, Dau Karinskiy ko'llarida muz qatlamlari yupqa bo'lib, u hayvonlar va odamlarni ko'tara oladigan darajada bo'lmagan. Mahalliy aholining so'zlariga ko'ra, shu tufayli aksariyat yo'lbarslar, yovvoyi cho'chqalar ham Orol dengizi qirg'oqlari tomonga ketishgan[3].

Yana bir arxiv xujjatida Turkiston o'lkasida ovchilik qilish huquqi, ov qilish joylari, ov uchun to'lanadigan bojlar va boshqa qonun-qoidalar to'g'risida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Mahalliy aholi ongida ovchilik qilish huquqi ov qilinadigan yerga egalik qilish huquqiga aloqador bo'lmay, mahalliy aholi vakillari tushunchasi quyidagicha: har bir erkin shaxs begona yerlarda ham ovchilik qilishi mumkin; faqatgina mulkdorning yerga egalik qilish huquqini buzmasang yetarli; mahalliy huquq sohasida boshqalarning yerlarida ovchilik qilishda hech qanday qonuniy cheklovlar mavjud emas. Haqiqatdan ham, hattoki, xususiy yer egalari (beklar, xonlar) o'z yerlari uchun ovchilik huquqini sotish orqali foyda olmaydilar[4].

Ushbu holatga sobiq Turkiston general-gubernatori, baron A.B.Vrevskiyning 1892 yil 3 fevraldagi qonunga nisbatan keltirgan tushuntirishi, sharhi bilan yechim topilgan bo'lib, unga ko'ra, "3-bandda deyilgan "yovvoyi o'rmonlarda, soliq to'lovchi yer maydonlarida va aholiga tegishli yerlarda ov qilishga" Turkiston Nizomining 155-moddasiga asosan, general-gubernator tomonidan yuqoridagi qonunga qo'shimcha o'zgartirishlar tasdiqlagan qoidalari asosida ruxsat beriladi. Hozirgi kungacha uchta viloyatda Samarqand, Farg'ona va Sirdaryoda o'rmonchilik xo'jaliklari boshliqlari hamda o'lka davlat mulklari boshqarmasi rahbarlari tomonidan ham ovchilik uchun ma'muriy jarima undirilishi amalga oshirilmagan[5].

Shu bilan birga, ta'kidlash lozimki, 1893 yili 1-Qonunlar to'plamining 8-qismi, 136-moddasiga ko'ra, "davlat yerlaridan noto'g'ri foydalanish holatlari" deb qushlar va hayvonlarni ovlash belgilangan bo'lib, bunda ommaviy sotuvdan ijaraga olingan yer mulklarida yoki Dehqonchilik va davlat mulklari vazirligi tasdiqlagan boj bo'yicha to'lov amalga oshirish orqali ovchilik huquqiga ega bo'lish mumkin. Ammo mavjud ma'lumotlardan ayonki, Turkiston o'lkasida ovchilik bojidan daromad tushumi qayd etilmagan. Buning sababi – o'lka uchun maxsus ovchilik to'g'risidagi qonunning ishlab chiqilmaganligi va Rossiya imperiyasining amaldagi qonunchiligining qo'llanilmasligi bo'lgan. Yaqin vaqt ichida chora-tadbirlar amalga oshirilishi, ya'ni davlat yerlari va

o'rmonlarida ovchilik qilish uchun boj to'lovlarining miqdori qonuniy belgilanishi, mulkdan bepul foydalanishga chek qo'yish qat'iy zaruratdir[6].

Shu munosabat bilan Toshkent ovchilik jamiyati davlat yerlarida ovchilik qilish uchun to'lov miqdorini aniqlash masalasi bo'yicha Qishloq xo'jaligi ustavining 8-moddasida belgilangan ovchilik guvoohnomasini olish uchun quroldor ovchi va qushlar ovchisidan ruxsat etilgan davr muddatiga 3 rubl to'lov undirish qoidasini ma'qulladi. Ushbu to'lov miqdori ham ko'ngil ochar sport turi, ham daromadli hunar bo'lgan turli xil ov o'ljalari boy bo'lgan ovchilik uchun Turkiston o'lkasiga mutlaqo mos kelmaydi.

Shuning uchun ham loyihalashtirilgan to'lov o'lka uchun eng qulay va mo'tadil chora bo'lgan. Bundan tashqari, to'lovlar 3 ta viloyat uchun ham bir xil qilib belgilanishiga erishish maqsadida muvofiq bo'ladi. Faqat ovchilik chiptalar ov usuliga qarab quyidagicha belgilanadi: birinchidan, qurol bilan, lekin it yordamisiz ov qilish; ikkinchidan, qurol bilan va zotdor it yordamida ov qilish; uchinchidan, qurol bilan va maxsus zotdor it yordamida ov qilish; to'rtinchidan, qurshov usulida ov qilish[7].

Keltirilgan ov usullariga qarab boj to'lovlari miqdori ham turlicha bo'lishi maqsadga muvofiq bo'lib, qurol bilan, lekin it yordamisiz ov qilish uchun 3 rubl, qurol bilan va it yordamida ov qilish uchun 5 rubl undirilishi kerak bo'lgan. Bunda, bu ikkala ov turi uchun chiptalar bir yilga berilishi ma'qul, qurol bilan va maxsus zotdor it yordamida ov qilish uchun esa yillik chipta 15 rubl va bir martalik chipta 5 rubl qilib belgilanishi, qurshov usulida ov qilish uchun faqat bir martalik chipta 10 rubl qilib belgilanishi kerak. Ushbu oxirgi keltirilgan narxni juda ko'p yoki juda past, deb hisoblab bo'lmaydi, chunki sanab o'tilgan ov turlarining hech birida qurshov usulida ov qilishda bo'lganidek, katta tavakkal qilinmay, bir vaqtning o'zida, aynan bu ov usulida qolgan usullardan ko'ra juda katta o'ljani ko'lga kiritish mumkin[8].

Sirdaryo, Farg'ona va Samarqand viloyatlarida ovchilikni tartibga solishga qo'shimcha ravishda loyihalashtirilayotgan chora-tadbirlarga ovchilik jamiyati tomonidan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilib, ular asosan ov man qilingan davrning muddatini oqilona belgilashga bag'ishlangan[9]. Ushbu qo'shimcha va o'zgartirishlar aytib o'tilgan 3 ta viloyatda ovchilikni tartibga solish masalasiga tegishli materiallarni ko'rib chiqishda e'tiborga olingan va Turkiston o'lkasining ovchilik to'g'risidagi qonunlar to'plamiga kiritilgan.

Toshkent ovchilik jamiyati ushbu qonun to'plami va unga birlashtirilgan tushuntirish sharhlarini ko'rib chiqib, 1906 yil 6 iyundagi bayonnomasida quyidagilarni qaror qilgan: "mazkur ovchilik to'g'risidagi qonunlar loyihasini tasdiqlanganligi to'g'risida ariza taqdim etish, shunga qadar o'lka boshqaruv rahbaridan ushbu qoidalarni butun mintaqa hududi uchun muvaqqat va majburiy meyor sifatida zudlik bilan amalga kiritishni so'rash, shu bilan birga, shahar, uyezd va qishloq mirshabligiga ushbu qonun ijrosini nazorat etish va qoidabuzarlarni qonuniy javobgarlikka tortishni taklif qilishni so'rash". Aholining barcha qatlamlari ushbu qoidalar va cheklovlar haqida to'liq xabardor bo'lishi uchun ularni rus va mahalliy tilda chop ettirish va aholi orasida bepul tarqatish so'ralgan"[10].

Loyiha muallifi Toshkent ovchilik jamiyatining buyrug'iga butunlay qo'shiladi. Ovchilik jamiyatining 1906 yilning 8 iyundagi bayonnomasining 1-bandida keltirilgan qaroriga kelsak, u ovchilik to'g'risidagi qonun loyihasiga mirshablar va qishloq raislarining ovchilik va o'ljalari savdosi masalasida e'tiborsizligi uchun javobgarlik to'g'risida qo'shimcha kiritish zarurligi haqida bo'lib, muallifning fikricha, ushbu masala 1885 yilda Jazo choralarini to'g'risidagi to'plamning 553-moddasida nazarda tutilgan va o'zgartirish uchun jiddiy zarurat bo'lmagan. Ovchilik qonunini buzganligi

uchun belgilangan jarima pullarning xabar yetkazgan shaxsga ajratiladigan (mukofot puli) qismidan tashqari 50% qismi hamda musodara qilingan qurol-yarog'lar, o'ljalar sotuvidan tushgan pullar Turkiston o'lkasining maxsus fondiga aylantirilgan. Mukofot puli tuzoqlar, arqonlar va boshqa shu kabi vositalar noqonuniy ovchilik vositalari sifatida ularning egasidan musodara qilib, tortib olinishi evaziga hosil bo'lgan. Ammo o'qotar qurol va ov qushlari kabi qonuniy ovchilik vositalari ba'zida juda katta baholanib, ular musodara qilinmaydi. Ushbu qonuniy ovchilik anjomlari brakonerlardan vaqtinchalik ashyo sifatida olib qo'yilishi mumkin. Ular sud ishini ko'rib chiqqunigacha va jarima undirib olingungacha ta'minot sifatida saqlanib turadi, ammo anjomlarning egasi unga egalik qilish huquqidan mutlaqo mahrum bo'lmaydi. Va nihoyat bunday anjomlarni egasidan tortib olish ancha qiyin ish bo'lganligini ko'pgina holatlar isbotlagan[11].

Shunday qilib, umid qilamizki, halol ovchilar, mahalliy ovchilik jamiyatlari va ma'muriyat bir jam bo'lib, o'lkada ovchilikni tartibga solish zaruratini anglab yetishi, hukumatning ovchilik masalalarida bevosita qatnashishi va mahalliy ovchilikni qo'llab-quvvatlash uchun kerakli mablag'ni taqdim qilishini ta'minlaydi. O'lkadagi oliy hokimiyat tushuntirib o'tilgan qo'riqlovchi qonun-qoidalar va ov qilishni chegaralovchi muddatlarni tezda amalga kiritish orqali, bir zumda bunday yordamni ko'rsata oladi.

Shu orada o'lkada ovchilik masalasini tartibga solinmaganligi sabab yuzaga kelgan quyidagi holatni aytib o'tamiz. O'rmonchilar belgilangan to'lov yo'qligi bois davlat o'rmonlari va shunday hududlarda ov qilishga hech kimga ruxsatnoma bera olmaydilar, shuning uchun ham ularga bunday xo'jaliklardan hech daromad kelmaydi, ular faqatgina 146-modda bo'yicha jarima to'lovidan keladigan foydani ko'zlashadi. Garchi qonunga ko'ra, davlat yer va o'rmon mulklari ovchilik borasida xuddi xususiy mulkni tartibga soluvchi meyorlar kabi qonunlar orqali tartibga solinsa-da, sudyalarda chiqaradigan jarima to'lovlari esa yetkazilgan zararni qoplash uchun o'rmonchilik budjetiga kelib tushmay, balki jinoiy jazo sifatida qamoqxona idoralari g'aznasiga kelib tushadi[12].

Xulosa. Xulosa sifatida shuni ta'kidlash kerakki, Turkiston o'lkasida XIX asrning ikkinchi yarmida ekologik holat, ya'ni, o'lkadagi hayvonot olamini asrab-avaylash, ularni turlarini saqlab qolish va ko'paytirish borasidagi holat achinarli ahvolda bo'lgan. Mahalliy va rus ovchilari tomonidan o'lka hayvonot olamiga jiddiy ziyon yetkazilgan. Ushbu holatlarni oldini olish maqsadida hukumat tomonidan bir qator meyoriy-huquqiy xujjatlar ishlab chiqarilgan. Biroq, o'lkada ov qilish tartibi nazoratga olingan bo'lsa-da, bu davrda iqtisodiy manfaat nuqtai nazardan qonunlarga rioya etilmasligi oqibatida mintaq faunasi to'liq antropogen xavfdan qutila olmaganligini alohida ta'kidlash lozim.

ADABIYOTLAR

1. ЎзМА, И-7-фонд, 1-рўйхат, 2842-иш, 40-варақ.
2. Турсунов Р.Н. XIX asr oxiri – XX asr boshida Turkiston o'lkasida ov jarayonlari va uning ekotizmga ta'siri // QarDU xabarlari. 2022. Maxsus son. – B. 159.
3. В камыших Приаралья: охота на тигров по-туркестански. // https://rus-turk.livejournal.com/128900.html?cut_expand=1&page=2.
4. ЎзМА, И-7-фонд, 1-рўйхат, 2842-иш, 36-варақ.
5. ЎзМА, И-7-фонд, 1-рўйхат, 2842-иш, 36-варақ.
6. ЎзМА, И-7-фонд, 1-рўйхат, 2842-иш, 36-варақнинг орқаси.
7. ЎзМА, И-7-фонд, 1-рўйхат, 2842-иш, 36-варақнинг орқаси.
8. ЎзМА, И-7-фонд, 1-рўйхат, 2842-иш, 37-варақ.
9. ЎзМА, И-7-фонд, 1-рўйхат, 2842-иш, 37-варақнинг орқаси.
10. ЎзМА, И-7-фонд, 1-рўйхат, 2842-иш, 37-варақнинг орқаси.
11. ЎзМА, И-7-фонд, 1-рўйхат, 2842-иш, 38-варақ.
12. Турсунов Р.Н. Описание российскими востоковедами охоты и связанных с ней процессов в Туркестане во второй половине XIX века – начале XX века (на основе документов Национального Архива Узбекистана) // Коллектив авторов. Из истории изучения Туркестанского края российскими востоковедами второй половины XIX – начала XX века / Монография. – Т.: «TAMADDUN». 2022. – С.94.



UDK: 575.93/94

G'ayratbek XAYDAROV,
Adijon davlat universiteti professori
E-mail: gayratbek.xaydarov@mail.ru

O'zMU professori A.Yermetov taqrizi asosida

HISTORY OF COOPERATIVE RELATIONS WITH UZBEKISTAN AND THE RUSSIAN FEDERATION (1992 - 2013)

Annotation

The socio-economic, cultural-educational and political cooperation relations of the Republic of Uzbekistan with the Russian Federation are analyzed in the article.

Key words: Economic, social, political, transaction, investment, cooperation, joint venture, production, product.

ИСТОРИЯ СОТРУДНИЧЕСТВЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ С УЗБЕКИСТАНОМ И РОССИЙСКОЙ ФЕДЕРАЦИЯМИ (1992 – 2013 гг.)

Аннотация

В статье анализируются отношения социально-экономического, культурно-просветительского и политического сотрудничества Республики Узбекистан с Российской Федерацией.

Ключевые слова: Экономический, социальный, политический, сделка, инвестиция, кооперация, совместное предприятие, производство, продукт.

O'ZBEKISTON VA ROSSIYA FEDERATSIYASI BILAN HAMKORLIK ALOQALARI TARIXI (1992 – 2013 yy.)

Annotatsiya

Maqolada O'zbekiston Respublikasining Rossiya Federatsiyasi bilan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy hamda siyosiy hamkorlik aloqalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, bitim, investitsiya, hamkorlik, qo'shma korxonalar, ishlab chiqarish, mahsulot.

Kirish. XX asrning so'nggi o'n yilligiga kelib Sovet rejimining yemirilishi natijasida mustaqil suveren respublikalar vujudga kela boshladi. Binobarin, o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish, aholining farovonligini oshirishda hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirish maqsadida, avvalo mintaqadagi mamlakatlar bilan teng huquqli asosda samimiy do'stlik va ahil qo'shnihilik munosabatlarini o'rnatishga e'tibor qaratildi. Jumladan, O'zbekiston va Rossiya Federatsiyasi o'rtasidagi diplomatik aloqalar ham 1992 yil 20 martdan o'rnatilgan bo'lsa, ushbu yilning 30 may oyida esa Davlatlararo munosabatlar, do'stlik va hamkorlik asoslari to'g'risidagi bitim tuzildi. Rossiya va O'zbekiston hamkorlik aloqalarining ertangi taraqqiyotiga baho berib o'tgan O'zbekiston respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov quyidagi fikrlarni bayon etadi "... demokratik, iqtisodiy va siyosiy jihatdan sog'lom hamda ravnaq topib borayotgan Rossiya barcha yangi suveren davlatlarning, shu jumladan O'zbekiston respublikasining ham mustaqilligini mustahkamlash uchun nihoyatda zarurdir"[1]. Rossiya va O'zbekiston o'rtasida aloqalarni tartibga soluvchi 200 dan ortiq bitimlar va kelushuvlar imzolangan bo'lsada, ularning ba'zilari sharoitlarning o'zgarishi natijasida o'zining ahamiyatini yo'qotdi.

O'zaro diplomatik aloqalar natijasi o'laroq Rossiya Federatsiyasi Prezidenti va O'zbekiston respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov 1994-2009 yillar oralig'ida bir necha bor uchrashuvlar tashkil qilib, ushbu tashriflardan ko'zlangan maqsad ikki tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy va siyosiy sohalaridagi bitimlarni amalga oshirishga yo'naltirildi. 2003 yil avgust oyida Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning O'zbekistonga tashrifi ikki

tomonlama munosabatlarga katta turtki bo'ldi. Binobarin, mulqotlar chog'ida savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy hamkorlikni yanada faollashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilib, O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 1 milliard 149 million AQSh[2] dollariga yetganini ma'lum qildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasidan Rossiya Federatsiyasiga paxta tolasi, yengil avtomobil, meva-sabzavot kabi mahsulotlar eksport qilingan bo'lib, Rossiya Federatsiyasidan esa mamlakatimizga mexanik va elektr mashina-uskunalar, transport vositalari, qora metall, plastmassa va undan tayyorlangan mahsulotlar import qilindi. Ikki mamlakat ishbiarmonlarining hamkorligi tufayli O'zbekiston Respublikasida 520 ta qo'shma korxonalar barpo etilgan. O'z navbatida, ushbu korxonalar orasida Rossiyaning 100% sarmoyasi evaziga qurilgan o'nlab qo'shma korxonalar ham mavjud. Mazkur korxonalar asosan oziq-ovqat, to'qimachilik, yog'ochni qayta ishlash, dori-darmon, ishlab chiqarish, mashinasozlik hamda qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashtirilgan. Rossiyaning 40 dan ortiq kompaniyasi, jumladan, "Aeroflot", "Avtovaz", "Zarubejneftgaz", "LUKOYL", "Texmashimpeks" va boshqa kompaniyalar o'z vakolatxonalariga ega. Rossiya Federatsiyasida esa o'zbek rezidentlari ishtirokida tashkil etilgan 167 korxonalar, shu jumladan, 72 qo'shma korxonalar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Ishlab chiqarish sohasida, ayniqsa aviasozlikda avvalgi kooperatsiya aloqalari saqlanib qolgan[3]. 2004 yil aprel oyida O'zbekiston respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning Rossiyaga qilgan davlat tashrifi natijalari bo'yicha muhim kelishuvlarga erishilib, ikki davlat rahbarlari savdo-iqtisodiy harbiy-siyosiy va gumanitar sohalarida hamkorlikning ustuvor yo'nalishlarini belgilab olgan holda 2004 yil 16 iyunda Toshkent shahrida ShHT sammiti doirasida imzolangan Strategik sheriklik to'g'risidagi

shartnoma imzoladilar. Shuningdek, Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlikni mustahkamlash, tashqi siyosat, mudofaa va huquqni muhofaza qilish organlari va maxsus xizmatlar orqali maslahat mexanizmlarini shakllantirish masalalari bo'yicha tomonlar o'rtasida yaqin hamkorlikni nazarda tutadi.

2005 yilning 14 noyabr oyida ikki mamlakat prezidentlari o'rtasida Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnoma imzoladilar[4]. Shartnoma Rossiya Federatsiyasi va O'zbekiston Respublikasi o'rtasida xalqaro huquqiy hamkorlika qaratilgan bo'lib, unda tomonlar milliy, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikni ta'minlash, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashda, terrorizmga qarshi kurash, ommaviy qirg'in qurollari tarqalishi, giyohvand moddalarning noqonuniy aylanishi va boshqa tahdidlarga qarshi kurashish choralari o'z zimmlariga oldilar. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tamonidan 2006-yil 19-iyulda Shartnomani ratifikatsiya qilish to'g'risidagi sertifikatlar bilan almashishi natijasida hujjat rasmiy ravishda kuchga kirdi.

Binobarin, O'zbekiston umumiy tashqi savdosida Rossiya Federatsiyasining ulushi taxminan 29 foizini tashkil etadi. Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni tartibga soluvchi asosiy hujjat 1992 yil 13 noyabrdagi Savdo aloqalari to'g'risidagi shartnoma hisoblanadi. Rossiya MDH mamlakatlari orasida mamlakatimizning eng muhim savdo-iqtisodiy hamkori hisoblanadi. Jumladan ikki mamlakat o'rtasida 1995-2009 yillarda tovar ayriboshlash hajmi 1,713 million dollardan 2,540 million dollarga oshdi[5]. Rossiya Federatsiyasi bilan O'zbekiston o'rtasidagi iqtisodiy aloqalari yanada rivojlanib, taraqqiy topishida, avvalo 1998-2007 yillar oralig'ida belgilangan hamkorlik dasturini amalga oshirilishi bo'ldi. O'z navbatida, davlatlar o'rtasida iqtisodiy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo qo'shma komissiya mavjud bo'lib, uning to'qqizinchi yig'ilishi 2007 yil mart oyida bo'lib o'tgan.

2000-yil may oyida imzolangan Rossiya Federatsiyasi sub'ektlari va O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilmalari o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish to'g'risidagi hukumatlararo bitim asosida hududlararo munosabatlar tobora takomillashib bormoqda. Jumladan, mintaqaviy savdoda yetakchi o'rinlarni egallagan Moskva, Oltoy o'lkasi, Sverdlovsk, Ivanovo, Orenburg va Chelyabinsk viloyatlarini egallagan bo'lsa, Rossiya kompaniyalarining ham yildan yilga O'zbekistonga qiziqishi ortib bormoqda. Qiziqishning ortib borishi esa O'zbekiston iqtisodiyotining yaxshilanishiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlikning istiqbolli yo'nalishi neft va gaz sektori – uglevodrodlarni, ayniqsa tabiiy gazni qidirish, qazib olish, tashish va qayta ishlash sohasi hisoblanadi. Gaz qazib olish bo'yicha O'zbekiston MDH mamlakatlari orasida Rossiya va Turkmanistondan keyin uchinchi o'rinni egallab turibdi va dunyodagi eng yirik gaz qazib oluvchi o'n mamlakat qatoriga kiradigan O'zbekiston Respublikasi 2002-yil dekabr oyida Rossiyaning "Gazprom" kompaniyasi va "O'zbekneftgaz" milliy xolding kompaniyasi o'rtasida bitim imzolab strategik hamkorlik yo'lga qo'yildi. Hamkorlikda 2003-2012-yillarda O'zbekiston gazini, shuningdek, Rossiya kompaniyasining mamlakat hududida tabiiy gazni qazib olish sohasidagi loyihalarga qo'shilishi haqida so'z yuritilgan. O'zbekistonda gaz qazib olish loyihasiga asosan, 2006 yilda "Gazprom" Ustyurt xududida yangi maydonlarni o'zlashtirmoqda. Rossiyaning 2006-2013 yillarda geologik qidiruv ishlariga investitsiyalar hajmi 383,3 million dollarni tashkil qiladi[6]. O'z navbatida, o'zbek gazini Rossiya orqali o'zga davlatlarga o'tkazish, shuningdek, yangi neft va gaz manbalarini qidirib topish, ularni qazib olish va qayta ishlash sohasida o'zaro hamkorlik nazarda tutilgan.

O'zbekistonda gazni qazish va o'zlashtirish bo'yicha ish olib borayotgan Rossiya Federatsiyasining yana bir

kompaniyasi "Lukoil" bo'lib, ushbu kompaniyaning 2004 yilda "O'zbekneftgaz" bilan hamkorlikdagi Kandyt-Xauzak-Shady-Kungirad" loyhasi bo'yicha shartnomasi qariyb 35 yillik muddadga ega[7]. Rossiya Federatsiyasi va O'zbekiston viloyatlari o'rtasida mintaqaviy hamkorlik munosabatlarini yanada kengaytirish bo'yicha 2000 yil 19 mayda hukumatlararo bitim imzolandi. Ushbu imzolangan bitim asosida ikki mamlakat hududlari o'rtasida 80 ortiq savdo-iqtisodiy kelishuvlar mavjud. Hamkorlikning eng faol aloqalari Moskva, Sankt-Peterburg, Voronej, Chelyabinsk, Irkutsk, Sverdlovsk viloyatlari, Tatariston respublikalari, Sibir va Ural regionlarining ishbilarmon doiralardan O'zbekiston Respublikasiga delegatsiyalar kelib turadi, ular O'zbekistonning xo'jalik yurutuvchi sub'ektlari bilan o'zaro manfaatli shartnomalar tuzildi. Chkalov nomidagi aviatsiya zavodi, "O'zDEU – avto", "O'zavtoyol" bilan tuzilgan shartnomalar shular jumlasidandir[8]. O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi munosabatlarida iqtisodiy-ijtimoiy aloqalar bilan bir qatorda harbiy-texnikaviy hamkorlik ham rivojlanib kelmog'ida. Ushbu sohadagi asosiy ikki tomonlama hujjat 1999-yil dekabr oyida imzolangan harbiy va harbiy-texnikaviy sohalarida har tomonlama hamkorlikni yanada chuqurlashtirish to'g'risida Shartnoma hisoblanadi. 2001 yil may oyida chegara masalalari bo'yicha davlatlararo shartnoma imzolangan bo'lsa, ushbu yilning iyun oyida harbiy-texnikaviy hamkorlikni muvofiqlashtirish maqsadida Rossiya va O'zbekiston o'rtasida harbiy texnikaviy hamkorlik bo'yicha ishchi guruhi tuzildi. 2001 yilning oktabrida esa Rossiya havo kuchlari, havo mudofasi kuchlari va O'zbekiston Respublikasi Havo kuchlarining birgalikda foydalanish to'g'risidagi davlatlararo shartnoma ikki mamlakat aviatsiya xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kelishuvga erishildi. 2001 yil iyun oyida tuzilgan Rossiya, O'zbekiston ishchi guruhining sakkizinchi yig'ilishi 2007 yil may oyida Moskva shahrida o'tkazildi. 2007-2009 yillar davomida ikki davlat o'rtasida tovar aylanmasi 4 mlrd. AQSh dollaridan kam bo'lmagan bo'lsa, 2010 yilga kelib mazkur ko'rsatgich 6 mlrd. AQSh dollaridan oshdi. Ayni paytda O'zbekiston Respublikasi hududida Rossiya sarmoyasi ishtirokida 848 ta korxonalar faoliyat olib bormoqda. Ustav kapitalining tashkil etayotgan Rossiya investitsiyalarining umumiy hajmi taxminan 500 mln.dollarni tashkil etadi. O'z navbatida, Rossiya Federatsiyasi hududida O'zbekiston Respublikasi rezidentlari ishtirokida 443 ta korxonalar tashkil etilgan[9].

2012-yil 12-13 dekabr kunlarida madaniyat, fan va texnika, ta'lim, sog'liqni saqlash, axborot, sport, turizm, yoqilg'i energetika, savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlik masalalari bo'yicha Rossiya Federatsiyasi va O'zbekiston respublikasi o'rtasida hukumatlararo komissiya faoliyati Toshkent shahrida bo'lib o'tdi. Rossiya Federatsiyasi ta'lim va fan vazirligi va Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi bitim doirasida har yili O'zbekiston umumiy ta'lim muassasalari bitiruvchilari Rossiya Oliy o'quv yurtlariga tajriba almashish uchun o'qishga yuboriladi. Bundan tashqari, M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot akademiyasi, I.M.Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universitet filiallari Toshkent shahrida muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Rossiya-O'zbekiston hamkorligining ustuvor yo'nalishlarining madaniyat, ilm-fan, ta'lim sohalarida, sport va turizm O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Rossiya Federatsiyasi Hukumati o'rtasidagi 2013-2015 yillarga mo'ljallangan madaniy-gumanitar va ilmiy-texnikaviy sohadagi hamkorlik dasturi bilan belgilandi.

Xulosa. Xozirgi kunda rivojlanib borayotgan O'zbekiston davlati dunyo hamjamiyatida o'z o'rnini va salohiyatiga ega bo'lib bormoqda. Mamlakatni har tomonlama taraqqiy ettirishda, avvalo mintaqadagi qo'shni respublikalar va rivojlangan davlatlar bilan teng huquqli asosda diplomatik

aloqalarni o'rnatish maqsadga muvofiqdir. Bu borada O'zbekiston va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida Davlatlararo munosabatlar, do'stlik va hamkorlik asoslari to'g'risidagi bitimning imzolanishi ushbu mamlakatlar o'rtasida yangi qirralarni ochib berdi. 1992-2013 yillar oralig'ida ikki mamlakat o'rtasida siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy-ma'naviy,

xarbiy-texnikaviy sohalarda ko'plab bitimlar, shartnomalar va normativ huquqiy xujjatlar imzolandi. O'zbekistonning strategik xamkoriga aylanib borayotgan Rossiya Federatsiyasi mamlakatning iqtisodiy rivojida o'ziga hos o'ringa ega bo'lib, O'zbekistonning tashqi savdo-iqtisodiy aloqalarida salmoqli o'rin egallaydi.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – Toshkent: O'zbekiston, 1999. 461 – B.
2. O'zbekiston respublikasi statistika qo'mitasining ma'lumotlari 2003 y
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 7- jild. – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti , 2004. – 370 B.
4. Abduraxmonov Q O'zbekistonda inson omili va manfaatlari-eng oliy qadriyat. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashrit matbaa ijodiy uyi 2017. – 170 b.
5. O'zbekiston respublikasi statistika qo'mitasining ma'lumotlari 2009 y
6. O'zbekiston respublikasi statistika qo'mitasining ma'lumotlari 2013 y
7. Karieva M Nezavisimost-svobodnaya i blogopoluchnaya jizn. -Toshkent: Shark 2010. – 50 b.
8. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 7- jild. – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti , 2004. – 370 B.
9. O'zbekiston respublikasi statistika qo'mitasining ma'lumotlari 2010 y



UDK: 94(575.1)

Mahmud HAMRAYEV,
Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
E-mail: mahmudhamrayev1811991@gmail.com

Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti professori O.Rashidov taqrizi asosida

AMIRZADE WHO "ABANDONED" THE EMIR

Annotation

This article sheds light on the propaganda policy of the Soviets in order to censure the identity of the last emir of Bukhara namely Amir Said Olimkhan, and his relations with his son Shahmurad. In the article, you can see the letter written by the son to the father under the pressure of Soviets and the reaction of former emir to this letter.

Key words: Amir Olimkhan, Bukhara Emirate, Red Army, Shahmurad Olimov, Izvestia newspaper, revolution, Devonbegi Mosque, Khurjun madrasa, Soviet government.

ЭМИРЗАДЕ КОТОРЫЙ "ОТКАЗАЛСЯ" ОТ ЭМИРА

Аннотация

В данной статье выясняется личность последнего Эмира Бухары после свержения проливающего свет на пропагандистскую политику Советов, Эмира Олимхана и его связь между сыном Шахмурадом. В статье можно увидеть письмо сына отцу под советским давлением и реакцию бывшего эмира на это письмо.

Ключевые слова: Эмир Олимхан, эмирская Бухара, красная армия, Шахмурад Олимов, газета "Известия", революция, мечеть Деванбеги, медресе Хуржун, Советское правительство.

AMIRDAN "VOZ KECHGAN" AMIRZODA

Annotatsiya

Mazkur maqolada Buxoroning so'nggi amiri Amir Said Olimxon taxtdan ag'darilgach, sovetlarning amir shaxsini qoralash maqsadida olib borgan propaganda siyosati va o'g'li Shohmurod bilan aloqalariga oydinlik kiritiladi. Maqolada o'g'lining otaga sovetlar tazyiqi bilan yozgan maktubi va bu maktubga sobiq amirning munosabatini ko'rish mumkin.

Kalit so'zlari: Amir Olimxon, Buxoro amirligi, qizil armiya, Shohmurod Olimov, Izvestiya gazetasi, inqilob, Devonbegi masjidi, Xurjun madrasasi, Sovet hukumati.

Kirish. XX asr ikkinchi yarmida shiddat bilan Sharq tomon harakatlanayotgan "rus ayig'i" 1868-yilda Buxoro amirligini o'zining protektoratiga aylantirdi. 1917-yilda Lenin boshliq bolsheviklar partiya esa Nikolay II ni taxtdan ag'darib, Rossiyada hokimiyatni egallagandan so'ng Buxoro amiriga mustaqillikni tiklash uchun bir imkon paydo bo'ldi. Amir o'z elchilari orqali bir qator mamlakatlar bilan aloqa o'rnatishga harakat qildi. Ammo ikki mustamlakachi davlat yani Rossiya va Buyuk Britaniya o'rtasida bu davrda "Katta o'yin" siyosati avjiga chiqqan, Buxoro singari davlat uchun Buyuk Britaniya Rossiya bilan teskari bo'lishni xohlamasdi. Amir Olimxon qachondir bolsheviklar albatta Buxoroga bostirib kirishini bilar, ularga qarshi turish uchun armiyani qayta qurollantirish zarurligi haqida o'ylardi. Ammo davlat rahbari nafaqat oldinni ko'ra bilishi, balki kuchli siyosat ustasi ham bo'lishi kerak edi. Aynan Amir Olimxonga shu xislatlar yetishmadi. Rossiyada hokimiyat almashgan, uning to'liq ta'siri Turkistonga, xususan amir Buxorosiga yetib kelmagan davrda qo'shin islohoti o'tkazishga ulgurilmadi. Bu o'rinda amirni qo'l qovushtirib o'tirgan deyish xato albatta. Ammo butun dunyoda "inqilob sharpa"lari kezib yurgan bir paytda, Amir Olimxon amalga oshirgan kichik islohotlar dengizdan tomchi edi xolos. 1920-yil 2-sentyabrda qattiq janglar natijasida Turkfront qo'shinlari tomonidan Buxoro egallandi[1].

Said Olimxon 1920-yil sentabrda poytaxtni tark etar ekan, nafaqat davlat xazinasini, balki haramini ham shaharda qoldirishiga to'g'ri keldi. Uning qolgan butun qarindoshlari, jami 118 kishi Xoja Orif (hozirgi Shofirkon)da ruslar tomonidan asir olinib, Buxoro shahridagi Xurjun madrasasida uy qamog'ida tutildi. Olimxonning 3 farzandi ham asirlikda

qoladi. Bolsheviklar uch o'g'il Said Sultonxon, Said Shohmurodxon va Said Rahimxon hamda ikki jiyani Said Rahmatullo va Said Sayfiddinlarni turli usullar orqali qiynaydi[2]. Inqilobchilar Buxoroga kimgach, Buxoro amirining uch nafar begunoh farzandini tungi soat uchdan ertalab soat o'n birgacha Devonbegi masjidida turg'uzib qo'yadi. Soat o'n birda ruslar asir olgan amir bolalarining kiyimlariga fors va o'zbek tillarida "Olimxon zolim", "Respublikani istamaydi", "Xalqni qul bo'lib ishlashga majbur qiladi", "Qutilganlarning shukur qilinglar" degan so'zlarni yozib bozor va ko'chalar bo'ylab aylantirib chiqishadi. Ammo bu bolsheviklarga aks natija berdi. Bolalarning bunday tahqirlanganligini ko'rib xalqning amirga qarshi qismi ham uni qo'llay boshladi[3].

Amir Olimxon va uning mulozimlari ruslarga qarshi urush olib borish, qurol-yarog' olish maqsadida Afg'onistonga ketgach, Buxoroda qolgan oilasi, o'g'illari, amakilari va onasining taqdiridan xabari yo'q edi. Fayzulla Xo'jayev 1923-yil yozida BXSr hukumatining qarori bilan Amir Said Olimxonning onalari To'raoyim, Shamsiyaoyim, To'tioyim, qizlari Xosiyatoy, Saodatoy, zavjalari Muharramoyim, Musharrafoyim, Muborakoyim, Xursandoyim, amakilari MirMuhammad Siddiq Muzaffarxon o'g'li, Mir Nosir Muzaffarxon o'g'li, Mir Abdulazimxon Muzaffarxon o'g'li, singlisi Shoxoy, tuqqan onasi Davlat Baxt va boshqa yaqin qarindoshlarini o'z ixtiyorlariga ko'ra Afg'onistonga yubordi[4]. Amirning uch farzandi esa ruslar qo'lida asirda qoladi. Fayzulla Xo'jayev Amir Olimxonga maktub yo'llab, "agar siz ruslarga qarshi kurashni to'xtatsangiz va mujohidlarni qo'llashni bas qilsangiz uch farzandingizni ham

Afg'onistonga jo'natamiz. Aks holda ular bizda qoladi" deydi. Fayzulla Xo'jayev shu tariqa amirni kurashdan to'xtatmoqchi bo'ladi. Biroq Amir Olimxon bu ruslarning hiylasi ekanligini va Fayzulla Xo'jayev bu maktubni ularning bosimi ostida yozganligini tushunib, jangni davom ettiradi. Maktubga javoban esa "Mening minglab bolalarim Buxoroda ruslar qo'lida asir qoldi. Siz uch farzandim evaziga urushdan voz kechishimni istaysiz. Men uchun Buxoroda qolgan bolalar va uch farzandim o'rtasida hech qanday farq yo'q. G'alaba qilsak o'z farzandlarim va qolganlar ham Buxoroda qoladi. Men uchun eng muhimi Buxoro va Turkistonni ruslardan tozalash" mazmunida javob yo'llab, qilingan taklifni rad etadi[3].

Uch oylik jismoniy va ruhiy jazolashlardan keyin, Said Olimxon farzandlari Moskvaga olib ketildi. Katta o'g'il Sultonxonning bir oyog'i nogiron bo'lib, qamoqqa olindi hamda o'sha yerda vafot etdi. Sovet rejimiga nisbatan nafratini yaqqol namoyon qilgan kenja o'g'il Abdurahimxon 1937-yil josuslikda ayblanib, o'ldirildi[5]. O'rtancha o'g'il Shohmurodning taqdiri esa, o'zgarib ketdi. U Sovet hukumatining tazyiqi qosti do'stlarining, balki sevgan qizi Javhar Bashiyevaning qistovi bilanmi "Izvestiya" gazetasining 1929-yil 16-iyundagi sonida otasidan voz kechganligi isboti sifatida "Sobiq Buxoro amiriga o'g'lidan" sarlavhali maqola e'lon qilindi. Maqolada o'g'il o'z otasidan oshkora voz kechganligini ko'rish mumkin. Shundan so'ng Shohmurod uchun "porloq kelajak" sari yo'llar ochildi. U harbiy bilim yurtiga o'qishga kiradi. Onasi Muharram oyim Moskvada o'qiyotgan o'g'li Shohmurod bilan ko'rishish uchun ruxsat so'rab, Qobuldagi sho'ro elchixonasiga ko'p bor murojaat qildi. Biroq, 1933-yil Muhammad Azizxon uchrashuv so'rganida bilim yurti uning nomidan "biz sovet ta'limini olganmiz" deb rad javob beradi. Shohmurod Olimov bilim yurtidan so'ng Moskva shahri, Korolenko ko'chasi, 23-uy, 7-xonadonda yashab, harbiy zavodga muhandis bo'lib ishga kiradi. Keyinchalik Moskvada harbiy-muhandislik akademiyasida tahsil oldi. Ikkinchi jahon urushida kurashib, qator orden va medallar bilan taqdirlanadi. 1944-yilda og'ir yarador bo'lib, bir oyog'idan ajraladi. Urushdan keyin o'zi tahsil olgan akademiya faoliyat yuritdi va general darajasigacha ko'tariladi. Turmush o'rtog'i Lidiya Mixaylovna xotirasiga ko'ra, u ba'zan ota-onasini eslab yig'lar ekan. General Shohmurod Olimov Moskvada 1985-yil vafot etgan. Biz quyida "Izvestiya" gazetasining 1929-yil 16-iyundagi sonida chop qilingan maqolani e'tiboringizga havola etmoqchimiz.

Sobiq Buxoro amiriga o'g'lidan

(Ochiq xat)

Biz o'g'ilning otaga xatini havola qilmoqdamiz. Ota – sobiq Buxoro amiri, rus podshohligining qo'llab-quvvatlashi bilan Buxoro amirligini boshqargan va oq podshohning sodiq quli bo'lgan. Ishchi xalq tomonidan Buxorodan surgun bo'lgan ota uzoq vaqt davomida Afg'onistonning noma'lum joylarida muhojir bo'lib yurgan. Yaqinda u sovet hokimiyatiga qarshi urush e'lon qildi va shu bilan birga bosmachi to'dalar bizning Garm[6] shahri yaqinidagi hududimizga bostirib kirishdi. O'g'il - A.Shohmurod boshqa jabhadan. U Moskva ishchi fakulteti talabasi. Otasining yangi natijasiz harakatlari haqida eshitib "sobiq o'g'il" sifatida otasiga "birinchi va oxirgi" xatini yozmoqda. Biz insoniyat tarixida kamdan-kam uchraydigan ushbu hujjatni chop etmoqdamiz. Bu hujjat Buxoroni siyosiy jihatdan toptagan monarx oilasining bir vakiliga sotsialistik g'oyalarning kuchi ta'sir etganligiga ko'rsatadi.

"Senga umrim davomidagi birinchi va oxirgi xatni yozyapman. Aslida yozmoqchi emasdim, o'rtamizda qandaydir aloqa bo'lishini xohlamagan edim. Lekin oxirgi kunlardagi voqealar noiloj senga yuragimning qoni bilan xat yozishga majbur qildi.

1917-yilda insoniyat tarixida birinchi marta dunyo ikkita lagerga bo'lindi: kapitalizm lageri va sotsializm lageri.

1918-yilga kelib, sening zulming eng yuqori nuqtasiga yetib kelgach registon, sen qashshoqlikka mahkum qilgan bechoralar, dehqonlar va shafqatsiz qatag'oningga qarshi bosh ko'tarishga jur'at qilganlar qoni bilan to'ldi.

Sen o'z kayf-u safolaring bilan band eding. Ota - o'g'il bo'la turib, yilda bir marta ko'rishar edik. Boshqa vaqtni biz (uch aka-uka) onalarimiz bilan ayollar davrasida o'tkazar edik. Sen o'g'illaring bor yo'qligini ham bilmas eding. Men bu narsalarni tushunmas (u vaqti 9 yosh edim), lekin onamning qayg'uli hikoyalari xotiramda jonli muhrlanib qolgandi.

1920-yil. Buxorodagi mustabit tuzum, yarim mustamlaka va shafqatsiz reaksion hukumat ag'darildi. Sening mullalar va boylardan iborat hukumating ham quladi. Buxoro amirligi o'ldi. O'rniga boshqa tuzum keldi - xalq hokimiyati. Biz yangi tashkil etilgan Buxoro Xalq Sovet Respublikasi qaramog'iga olindik. U bizni boqdi, o'stirdi va kiyintirdi.

1923-yil biz Sovet Buxorosi ishchi va dehqonlarning farzandlari bilan birga Moskvaga o'qishga yuborildik. O'rta Osiyo ishg'ol etilgach, Buxoro Sovet respublikasi, Turkmaniston[7] avtonom Sovet Respublikasi va Xorazm Sovet Respublikalari bilan birgalikda SSSR tarkibiga teng huquqli bo'lib kirib, O'zbekiston SSRni tashkil etdi. Nafaqat sen, balki sen to'g'ridan-to'g'ri tobe bo'lgan rus mustabid hokimiyati tomonidan zulm ostida qolgan Buxoro amirligi ham o'ldi. Buxoro o'zgardi, yangilandi. Endi hech qanday zo'ravonlik ham, zulm ham yo'q. U yerda jaholat va savodsizlik bartaraf etilyapti, yangi maktablar soni ko'payyapti, ularda o'n minglab batraklar va mehnatkash aholining bolalari o'qish va yozishni o'rganyapti, turli fanlarni o'qiyapti.

Bolsheviklar partiyasining mohir rahbarligi ostida xalq xo'jaligi mustahkamlanib, yangi jamiyatga, kommunizm jamiyatiga o'tish uchun o'sib boryapti.

Mana 6 yildan beri Movkvada, butun ittifoqning siyosiy va iqtisodiy markazida o'qiyman. Men ishchilar fakultetida tahsil oldim. Fakultetdagi o'rtoqlarim bilan birga yashab men katta Sovet jamiyatining umumiy jamoasiga qo'shildim. Men sendan nafratlana boshladim. Men umuman otam bo'lmagan deb hisoblayman va senga esa o'g'ling borligini unutishingni maslahat beraman. Lekin boshqa narsa bor. Notanish ammo ko'zga issiq ko'rinadigan chehra. U yangi tilda so'zlashadigan, hayotga yangicha qaraydigan, yangi inson bo'lib, qayta tug'ildi.

Dunyo ikkita qutbga bo'lingan.

Inqilobiy harakat nafaqat G'arbda, balki Sharqda ham kuchayib bormoqda: Xitoy qashshoqlari imperializm zulmiga qarshi isyon ko'tarmoqda. Hindlar o'zining mustamlakachiligiga qarshi chiqib, mustaqilligini himoya qilyapti. Butun yer yuzida inqilob uchqunlari alanganib, barcha zararli narsalarni yoqib yuboradi.

Imperializm millatlarni bir-biriga qarshi qo'yadi. Ularni to'liq o'z mustamlakasiga aylantirish uchun aldaydi.

Va sen, inidan haydalgan quyon, imperializmning qo'li va xoin Bache-Sakao hukumati himoyasi ostida Buxoroga o'tish uchun Sovet Tojikistoniga hujum qilmoqchisan. Bu senga u yerda sovet hokimiyatini yo'q qilib, yana Buxoro amirligini tiklash uchun kerak. Yagona farq shundaki, sen avval xalqning suvini siqib, ularni rus chori bilan baham ko'rgan bo'lsang endi buni dunyoviy, har doim och va yirtqich - Angliya bilan qilmoqchisan. Bunday bo'lmaydi. Sovet hokimiyati Tojikistonda bor va har doim bor bo'ladi. Sovet hokimiyati shu qadar oson tiklanmaganki, uni har qanday surgun bo'lgan zolim osonlikcha yo'q qila olsa.

1920-yil Buxoroni tark etayotib, Sharqiy Buxoro bo'yab bosmachi urug'ini sepding, lekin ularning oxirgilari ishchi va dehqonlardan tashkil topgan qizil armiyasi va milliy bo'linmalar - qizil-askarlar tomonidan butunlay yo'q qilindi.

Ammo sovet yerlarida yana bosmachi to'dalari paydo bo'la boshladi. Lekin bu safar ham qizil armiya odamlarni aldaydigan bu qaroqchilarni yo'q qiladi. Sovet Tojikistonning orqasida buyuk Sovet ittifoqi 140 million aholisi bilan turibdi. SSSR ortida esa G'arb va butun mustamlaka Sharqning ishchilar sinfi turibdi. Bu mening senga oxirgi so'zlarim. Butunlay ajralamiz. Agar taqdir mening xohishimga qaramay bizni uchrashtirsa, demak dushman bo'lib uchrashamiz.

Sening sobiq o'g'ling A.Shohmurod”.

Xo'sh bu maktub yozilishiga qanday sabablar bor edi? Avvalo sovet hukumati mavjud bo'lgan 69 yil mobaynida shaxsga sig'inish illatidan xoli bo'lmagan. Shohmurod harbiy bilim yurtini tamomlab, akademiya kirishni orzu qilardi. Sovet davlatining dushmanlaridan bo'lgan sobiq amirning o'g'liga bunday istiqbol kulib boqmasligini hamma bilardi. Har xil taxminlar bor. Yoshligidan sovet jamiyatining bir a'zosi bo'lib, sovet mafkurasi bilan tarbiyalangan kommunistdan nimani ham kutish mumkin edi. Bazi manbaalarda esa talabalik davridagi do'stlari qistovi bilan bu ishni amalga oshirgan deyiladi. Nima bo'lganda ham Shohmurod bu maktubni yozib, nafaqat otasidan balki, butun bolalik xotiralaridan, tarixidan, hattoki kindik qoni to'kilgan vatanidan ham voz kechgan edi. Sovet mafkurasi bilan tarbiyalangan ba'zi odamlardan millatga sodiqlikni kutish ham noto'g'ri aslida. Amirning Buxoroni tashlab chiqishi ilojisizlikdan bo'lsa-da, o'z farzandlarini dushman qo'lida qoldirishini oqlamaymiz albatta. Ammo bu qanday jamiyat bo'ldiki, farzandni o'z otasidan voz kechishga majbur qilsa? Bu qanday davlat bo'ldiki, qurol sifatida hatto bolalardan

foydalansa? Ushbu maktub Olimxonga Afg'onistonning Moskvadagi elchisi tomonidan yetkazilgan. Maktubni o'qib chiqqan Olimxon esa elchiga qarab, shunchaki jilmayib, bu maktubni o'g'lim yozganiga ishonmayman deydi. Maktubni yozdirishdan ruslarning birdan bir maqsadi bo'lgan. Ya'ni amirga ularning qo'lida amirni tiyib qo'yuvchi qurol borligini eslatib qo'yish va bu quroldan xohlagan payti foydalana olishini ko'rsatishdan iborat edi. Shohmurod nomidan bu xatning yozdirilishiga, amirning 1927-1928-yillarda Buxoro aholisini bolsheviklarga qarshi kurashga undab, josuslari orqali yo'llagan murojaat maktublari ham sabab bo'lgan deyish mumkin. Amir sovetlar ta'biri bilan aytganda, qanchalik johil va qonxo'r bo'lganda ham o'g'ilning o'z otasiga bunday mazmunda maktub yo'llashiga ishonish qiyin. Oddiygina bir savolni har birimiz o'zimizga berib ko'raylik. Xo'sh amirlikning sovetlar tomonidan ag'darilishi oddiy Buxoro xalqiga nima berdi? Amir ag'darilgach qashshoq aholi boyib, yoki butun muammolar bir zumda hal qilindimi? Bu gapimiz albatta rusparastlarga yoqmasligi tabiiy. Amirlikning tugatilishi balki to'g'ri bo'lgandir. Lekin buni sovetlar milliy ziyolilar qo'li bilan amalga oshirganligi xalqimizning yana bir necha o'n yillar davomida jipslashmasligiga, o'z ichimizdan xoin izlashga sabab bo'ldi. Amirlik qulagach sovetlarning asosiy ishi amir shaxsini qoralash, xalqning qolgan qismini ham bu fikrga ishonitirishdan iborat bo'ldi. Ular qaysidir ma'noda bu ishning uddasidan chiqishdi albatta. Hattoki hozirgi vaqtda ham haqqoniy tariximiz bazi "shaxs"larga yoqmasligi buning isboti.



Amirning ruslar qo'lida qolgan farzandlari
Chapdan o'ngga: Said Sultonmurod, Said Rahimxon, Said Shohmurod.
(shaxsiy arxiv)



Harbiy bilim yurti talabasi Shohmurod Olimov (Tarjimon.uz)

ADABIYOTLAR

1. Rajabov.Q. Buxoroga qizil armiya bosqini va unga qarshi qurolli kurash: tarix haqiqati (1920-1924 yillar). Toshkent ., "Ma'naviyat", 2002, 12 b.
2. Ahat Andican Osmanlidan Gunumuze Turkiye ve Orta Asya, Doğan Yegmont Yay. -I, 2009. – S. 95.
3. Naci Yengin. Buhara Emirligi Turkistan ve Enver Pasa. -I.: Bilgeoguz, 2010. S. 150-151
4. SH.Hayitov, K.Rahmonov, O.Ahmadov. Buxoro va buxoroylarning jahoniy shuhrati. Toshkent., "Navro'z", 2020, 71-72 b.
5. Gulseren Doğan 1917-1924-yillari arasinda Turkistan milli devletleri. – I.: Yelaziğ, 2018. – S. 112.

6. G`arm - "qishloq, hudud". O'sha vaqtdagi Qorategin bekligining markazi. Hozirgi Tojikistonning Rasht viloyatidagi qishloq.
7. Maktubda Turkmaniston deyilgan. Ammo bu Turkiston ASSR. O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi, (ruscha: Узбекская Советская Социалистическая Республика) – Sovet Ittifoqi tarkibiga kirgan respublikalarning biri. Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi hamda Xorazm Xalq Sovet Respublikasi hududlarining, asosan, o'zbeklar va qoraqalpoqlar yashaydigan qismlarida vujudga kelgan. 1924-yildan 1936-yilgacha O'zbekiston Sotsialistik Sovet Respublikasi (ruscha: Узбекская Советская Социалистическая Республика) deb atalgan. Ayrim manbalarda Sovet O'zbekistoni deb yuritiladi.